

Б.Б.БАЙМЕТОВ



ҚАЛАМТАСВИР  
(ПОРТРЕТ)

BAVMETOV B.B.

# QALAMTASVIR

(portret)

«BOOK TRADE 2022»  
TOSHKENT – 2022



UO'K: 741

KBK: 85.14

B-22

Baymyetov B.B.

Qalamtasvir [portret]: o'quv qo'llanma / Toshkent: «BOOK TRADE 2022» nashryoti, 2022. - 144 bet.

Qalamtasvir (portret) nomli mazkur o'quv-qo'llanma bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda oliy pedagogik ta'limda o'qitiladigan fanlarning asosi bo'lgan qalamtasvirda portret ishlash metodikasini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, talabalarga portret ishlash malakalarini shakllantirishga qaratilgan. Qo'llanma qalamtasvir fanidan bakalavrlar tayyorlash bo'yicha tuzilgan o'quv dasturlaridan joy olgan vazifalarni bajarishni ko'zda tutadi va talabalarga shakllarni uslubiy izchillik tamoyili asosida tasvirlashni maqsad qilib qo'yadi.

“San'atshunoslik” fakultetlari talabalari uchun mo'ljallangan mazkur o'quv qo'llanmadan uzluksiz ta'lim tizimida tasviriy san'at sohasiga aloqador barcha mutaxassislar ham foydalanishlari mumkin. Qo'llanmada o'quv uslubiy izchillikda bajarilgan ishlar bilan bir qatorda mashhur usta rassomlarning ishlaridan namunalar keltirilgan.

#### Tag'rizchilar:

**Gulyamov K.M.** – K.Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn instituti dotsenti, p.f.n.,

**Muratov X.X.** – Chirchiq davlat pedagogika instituti “Tasviriy san'at” kafedrasida dotsent v.b.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil 19 iyuldagi 233-sonli buyrug'iga asosan o'quv qo'llanma sifatida nashr etishga ruxsat berildi.

ISBN 978-9943-9396-0-8

## MUQADDIMA

Tasviriy san'atda inson bilan bog'liq mavzu asosiy o'rinni egallaydi. Tabiatning eng murakkab va shu bilan bir qatorda eng go'zal mahsuli bo'lgan inson gavdasi ayniqsa, uning portretini tasvirlashga rassomlar qadim-qadimdan qiziqib kelganlar. Mamlakatimiz hududidan topilgan eramizdan avvalgi taxminan ikki minginchi yillarga mansub harbiy kishi, ayollarning haykal portretlari fikrimizning yorqin dalili bo'la oladi. Inson portretini tasvirlash eng murakkab jarayon bo'lishiga qaramasdan qadimgi odamlar uning go'zalligini namoyon etishga harakat qilganlar. Ularda portret xarakterini tasvirlash uchun malaka yetarli bo'lmasada, peshona, ko'z, lab, burun shakllarini o'xshatib ishlashga harakat qilganlar.

Hozirgacha barcha badiiy oliygohlarda bo'lgani kabi, pedagogika instituti va universitetlarida rassom o'qituvchilarini tayyorlashda inson portretini tasvirlashga alohida o'rin berilgan. Zamonaviy pedagog-rassom portret ishlash bo'yicha professional malakalarga ega bo'lishi bilan bir qatorda, inson psixologiyasini o'qiy oladigan, hamda uning yuz tuzilishini tasvirlash orqali ichki dunyosini ko'rsata olishi zarur. Buning uchun esa u ko'plab mashqlar bajarishi, bosh chanog'i tuzilishi va plastik anatomiyasini o'rgangan bo'lishi zarur.

Inson boshining murakkab shakllarini to'g'ri tasvirlay olish narsaning o'ziga qarab xaqoniy rasm chizish mashqlariga asoslangan. Bu esa antik davrga mansub gipsdan yasalgan Dovud bosh bo'laklarini (ko'z, burun, lab, quloq) o'ziga qarab tasvirlash orqali boshning gipsdan yasalgan kesik shakli namunasi chizish, undan keyin esa, Antik davr gips bosh namunalarini; Apollon, Venera, Diadumen, Gomer kabi bosh haykali bosh rasmini o'ziga qarab tasvirlash mashqlari vositasida amalga oshiriladi.

Talabalar 1 kursning 2 semestrda bosh bo'laklarini so'ngra esa kesik bosh namunasi, anatomik Ekorshen namunasi tasvirlaydilar. So'ngra Antik davr gips bosh haykalini chizadilar. Shundan keyin esa, inson portretini o'ziga qarab tasvirlash mashqlari boshlanadi.

Mazkur o'quv qo'llanmaning asosiy maqsadi, bakalavrlar tayyorlash bo'yicha tuzilgan o'quv dasturlaridan joy olgan vazifalarni

bajarish metodikasini ishlab chiqish hamda talabalarga portret ishlash malakalarini shakllantirishga qaratilgan. Pedagogika institut va universitetlarining talabalari uchun mo'ljallangan mazkur o'quv qo'llanmadan tasviri san'at bilan shug'ullanuvchi barcha mutaxassis va qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

## I BOB. ODAM BOSHI SHAKLI TUZILISHINING ASOSIY QONUNIYATLARI

### 1.1. Bosh shaklini tahlil qilish va tasvirlash usuli

Odam boshining tuzilishi o'ta murakkab va ko'pqirralidir. Har bir odam boshining bosh suyagi tuzilishi va tashqi ko'rinishi, plastik tasviri o'zining betakror xususiyatlariga ega. Shu bilan birga boshning umumiy shakli, uning konstruktiv – anatomik asosi bir xilda bo'lgan tuzilish konuniyatiga asoslanadi. inson boshini to'g'ri tasvirlash uchun rasm chizuvchi uning shakli, bosh suyagining qismlari va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liklikni xamda tasvirlash jarayonida olingan bilimlarni qo'llay bilishi kerak. Ushbu ko'nikmalarni o'zlashtirishi uchun u juda ko'plab mashq kilishi zarur. Talabalar ta'lim jarayonida dasturda ko'zda tutilgan quyidagi vazifalarni bajaradilar;

1. Boshning gipsli modeli bo'laklari.


2. Tirik bosh, uning yelka kamari bilan rasmini bajarish.

Bunda ular tasvir tuzilishining ayrim qirralarini qayta-qayta takrorlaydilar. Vaholanki, har bir o'quv topshirig'ida talaba katta bilim va malakalarni o'zlashtirib olishi kerakki, buni birgina vazifani bajarish jarayonida amalga oshirib bo'lmaydi. Boshning umumiy shaklini aniqlash, chiziqli-konstruktiv tuzilma hosil qilish va hokazo tamoyillarni o'zlashtirish uchun maxsus mashqlar kerak. Talabalar odarda bunga rioya qilmaydilar, ular uchun bu mashqning hojati yo'qdek ko'rinadi. Go'yoki ularga maxsus mashqlar yordami kerak emasdek tuyuladi va mazkur mashqlar bosqichli rasmlar chizish paytida ham amalga oshiraveriladi degan tushuncha paydo bo'lishi mumkin. Lekin rasm chizish paytida talaba uni o'zlashtirib olamaydi. Natijada ishini o'z holicha davom ettiraveradi va oldinga intilmay, ko'nikmadan foydalanaveradi.

Bosh shakli tuzilishi qonuniyatlari va uni tasvirlash qoidalarini o'rganishda talaba eng avvalo, tasvirlashning dastlabki bosqichida kechadigan tahlil usuli va boshning umumiy shaklini tasvirlashni o'zlashtirib olishi zarur. Garchi akademik rasm chizishda ishing har bir bosqichi qisqa vaqt davom eisa ham talaba uning mazmunini tushunib maxsus mashqlar yordamida amalda uning har bir bosqichini puxta o'zlashtirib olishi kerak. Quyida bosh shakli tuzilishini tahlil qilish va tasvirlash usulining mohiyatini batafsilroq ko'rib chiqamiz.

Har bir buyumni to'la idrok etishda yorug'lik asos bo'lganidek, bosh shaklini idrok qilishda ham rassomga yorug'lik yordam beradi. Nur bosh usti bo'ylab yoyilib, rassomga uning plastikasini ko'rish imkonini beradi. Dastlab inson bosh shaklini juda tez umumlashgan holda idrok etadi; Bosh go'yo shardek, bo'yin silindrik, burun prizmadek, ko'z sharsimon qobiqdek, ko'rinadi. Faqatgina diqqat bilan qaragandagina rassom boshning ham yaxlit, ham uning qismlari plastik tavsifining nozik tomonlarini ilg'ay boshlaydi.

Psixologik nuqtay nazardan qaraganda, inson dastlab predmetning umumiy shaklini, shundan keyingina uning bo'laklarini idrok eta boshlaydi. Ilmiy tadqiqot natijalari ko'rib idrok etish jarayonining beshta asosiy bosqichini (fazasini) ajratib ko'rsatadi:



1 rasm. Odam bosh shaklining turli nuqta va holatlardan kesib ishlangan namunalari).

1. Predmetning fazodagi holati bilan uning umumiy nisbatlarini taxminiy baholash o'rtasidagi farqni ajratish:

2. Shaklning rakursda turishi:


3. Perspektiv tomonlarining o'zgarishini farqlash:

4. Shaklning uning detallari farqlanmay berilganda bir xil umumiy tarzda idrok etish:

5. Shaklning uning detallari bilan to'liq holda bir xilda aks etish.

Ko'rish idroki qonuniyatlariga rioya qilgan holda rasm chizuvchi birinchi navbatda, boshning umumiy ko'rinishini tasvirlab, uning shakli-shamoyili xususiyatlarini umumiy ko'rsatishi zarur.


Uyg'onish davridayoq rassomlar ushbu zaruriyatni ko'rsatib o'tganlar. Masalan, Alberti o'zining «Rangtasvir to'g'risida uch kitob» asarida shunday yozadi. «Biz biror narsaga qarar ekamiz, u fazoda ma'lum joyni egallab turganini ko'ramiz. Keyinchalik, ushbu jisimga chuqurroq qarab, uning barcha ko'p sonli bo'laklarini uyg'unlashib ketganligini seza boshlaymiz».



2-rasm. Albrext Dyurer. Bosh shaklini sxematik ishlash usuli

Har qanday predmetning shakli (bu o'rinda odam boshi ham) ko'p sonli yuzalardan iborat 1-rasm. Rasm chizuvchining vazifasi bu yuzalar ma'lum shaklini hosil qilgan holda o'zaro qanday uyg'unlashib ketganligini to'g'ri tushunishdan iboratdir. Lekin bu shaklning qog'ozda to'g'ri tasvirlash uchun talaba katta, uch o'lchamli jismining real ko'rinishini ilg'ab olishi, ya'ni o'z idrokini fazodagi ko'rinishi bilan

qo'g'oz sirtidagi ko'rinishiga moslay ola bilishi kerak. Bosh shaklini tasvirlashchizuvchidan perspektiva nazariyasi borasidagi bilimlar, tasvir qurish jarayonida esa ularning qoidalaridan foydalana bilishni talab etadi. Ko'p yillik amaliyot natijalari shuni ko'rsatadiki, oddiy geometrik jismlarning perspektiv tasvirini qurish unchalik qiyin ish emas, lekin odam boshi kabi murakkab shaklning perspektiv tasavvirini bajarish anchagina murakkab ish.



3-rasm. Albrect Dyurer. Bosh shaklini kesib ishlash usuli

Shuning uchun ta'limning pedagogik prinsipi – oddiydan murakkabga, umumiylikdan xususiylikka prinsipidan kelib chiqib uyg'onish davri rassomlari boshni tasvirlashga o'rgatishda eng oddiy geometrik shakllarni qo'llashdan kelib chiqqanlar, ya'ni ham yaxlit bosh, ham uning har bir qismini geometrik asosda ko'rishga va tasavvur qilishga o'rgatganlar. Rasm chizivchi ana shu prinsipga amal qilib, boshni haykal kabi yo'nib uning umumlashgan shaklini tasavvur qilishi kerak.


Bu A.Dyurer rasmida ko'rgazma tarzida berilgan 2-rasm.

Odam boshi shaklini tasvirlashni tahlil etish va qurishning bunday usuli bilan ko'p rassomlar foydalanganlar. 3-rasm.

Shon chizgan rasmlari bunga misol bo'la oladi. Amaliyot shuni isbot etdiki, kesib ishlash usuli tasvir qurishning prespektiv qurilish qoidasini o'zlashtirib olishni ancha yengillashtiradi. Uyg'onish

davridan keyin, hatto hozirgi kungacha bu uslubdan rassom pedagoglar foydalanaib kelmog'dalar.

Binobarin, yetuk rassom-pedagog D.Kardovskiy rasm chizish prinsiplari va o'qitish uslublari haqida gapirib shunday degan edi: «Xo'sh, shaklning o'zi nima? – Bu geometrik jismlar jumladan; kub, shar, silindr va hokazolardir. Ular u yoki bu xarakterga ega bo'lgan jismlardir. Tirik natavralarning shakllari albatta to'g'ri geometrik shakl bo'la olmaydi, lekin aslida ular ham usbu geometrik shakllarga yaqin turadi».




4-rasm. Gans Golbeyn. Odam bosh shaklining turli holatlardan sxema asosida ishlangan namunalari

XVII–XIX asr rassom-pedagoglari ham murakkab shaklini tasvirlashda eng sodda geometrik shakllardan kelib chiqqanlar (Karrachi, Preysler, Losenko, Shebuyev, Sapojnikov, Dyupuyui, Chistyakov, Anton Ashbe va ko'pchilik boshqalar). Masalan, yugoslav rassom pedagogi Anton Ashbe bosh rasmini chizishga o'rgatish tizimi uchun «shar prinsipi» va tus bilan modellashirishni asos qilib olgan. Rassom va pedagog D.Kardovskiy tasvirlashning dastlabki bosqichida «kesib» chizish usulidan foydalanishdir, deb hisoblashgan. Shuni takidlash zarurki, turli maktablarning va yo'nalishlarning deyarli barcha rassomlari bita xulosaga kelganlar;

bosh tuzilishini tasvirlashda umumiy hajm ko'rinishini bo'rtirgan holda katta boshlash, shundan keyingina bo'laklarga o'tish kerak. Bosh tuzilishining umumiy shakli nima o'zi? Bu o'z ko'rinishi jihatidan tuxum shakli eslatuvchi uch o'lchamli hajimli jismdir. Bosh rasmini chizishga o'rgatishda hamma o'qituvchilar talabalar diqqat e'tiborlarini shakl qurilishining ana shu xususiyatiga qaratganlar.

Bu narsani biz Preysler, Losenko, Sapojnikov, Kardovskiy va boshqalarning o'quv qurollarida ham ko'rishimiz mumkin. Rassom-pedagoglar odam boshi rasmini tasvirlashni o'rgatar ekanlar, har doim uning tuxumsimon shaklining tahlilidan boshlaganlar. A.Solovov, G.Smirnov, Ye.Alekseyeva bosh rasmini chizishni tuxumsimon massa tusini tasvirlashdan boshlashni tavsiya etganlar. (5-rasm. Portretni tus bilan ishlash usullari).



5-rasm. Portretni tus bilan ishlash usuli

Bu o'rinda boshlovchi rassomga boshning qismlardan emas, balki umumiylikdan, dastlab uning umumiy shaklini, shundan so'ng esa asta-sekin bo'laklarini tasvirlashni o'zlashtirib olishni tavsiya etganlar.


«**Kesib ishlash**» usuli qog'oz yuzasidan bosh shaklining ham umumiy ham tarkibiy qismlarini to'g'ri tasvirlashga yordam beradi. Bu usul talabalarning diqqat e'tiborini tashqi bo'laklarga (qoshlar, kipriklar va h.k.) emas, balki katta shaklning asosiy mazmuniga qaratish imkonini beradi. Buni tushunib olish qiyin emasdek tuyulsada, lekin uni rasmda ko'rsata olish ancha murakkab ishdir. Bu masalani ancha yengillashtirish uchun o'tgan asrdagi fransuz rassomlari aka-uka Dyupuyular bosh rasmini chizishga o'rgatishga shu usuldan foydalanganlar.



6-rasm. Jorj Gustav Leon Dyupuyi. Erkak portreti.

Bosh shaklini tahlil qilar ekamiz, umumiy ko'rinishda uning Bosh suyagi bilan yo'g'rilgan tuzilishning ma'lum qonuniyatlariga ega ekanligini ko'ramiz.

Mashhur haykaltarosh A.Golubkina shunday yozgan edi: «masalan, yuz tuzilishini qismlarga ajratib tashlang, siz ularning hammasi 14 ta asosiy bo'laklardan iboratligini ko'rasiz: 1-reja, peshona bug'rilari bilan peshona o'rtasi, peshona bug'rilaridan chakka qism suyagigacha 2-ta reja, 2-ta chakkadan dahandan pastki qism jag' chetigacha, 2-tasi ko'z kosachalarigacha, 2-tasi ko'z kosalaridan burun va og'iz burchaklarigacha 2-tasi og'izdan jag' suyagi va chaynash muskuligacha va burundan dahan ostigacha. Hamma insonlarning yuzlari ham har doim ana shu 14 ta rejadan iborat bo'ladi: faqat reja shakllarigina o'zgaradi xolos». A.Golubkina boshning sxematik rasmini tavsiya etar ekan, umumiy shaklini to'g'ri tasvirlashga yordam beradigan asosiy yuza va chegaralarning taqsimlanishiga e'tiborni qaratish lozimligi haqida gapiradi




7 rasm. Boshning umumlashgan tasviri.

Professor M.Kurilko bosh shakl tuzilishi sxemasini tahlil qila borib, bunda bosh qismi yuzalarining o'sha 14 ta yuzasiga asoslangan va detallarni bo'laklarga shakl berishda (burun, ko'zlar, lab, dahan) aniqliklar kiritgan hamda bosh va bo'yin shakllari o'rtasidagi bog'lanishni ko'rgazma tarzida ko'rsatib bergan.

Tasvirda bosh shaklining umumiy xarakterini bo'rtirish va kenglikda alohida yuzalar yo'nalishiga aniqlik kiritib borish, to'g'ri shakllashni kuzatish kerak. Rasmda shaklini ko'rsatishdan eng asosiy maqsad shundan iboratki, unda bosh shaklini yaxlit, eng xarakterli joylarini alohida bo'rtirib ko'rsatishdir. Katta shaklini ifodalash usuli bo'yicha ishlash rassomni shakl tuzilishi iker-chikirlardan voz kechib, faqat hajmning katta bo'laklariga e'tiborni qaratish, yaxitlik, umumiylikni ko'ra bilishga intilishga majbur etadi. Yaxitlikni ko'ra bilishga o'rgatish uchun bu yaxitlik qanday elementlardan tashkil topganligi, bu bo'lak va qismlar o'zaro qanday uyg'unlashishini bilish kerak. Bosh shaklini to'g'ri tasvirlash talabdan naturani ko'rib chiqish va tasvirlashda metodik bosqichlarda ishlashni talab etadi. Tasvirda katta shaklini tahlil qilish va ifodalash usulini egallash, chizuvchiga tasvir tuzilishining natijalarini oldindan ko'ra bilish, ya'ni uning chizayotgan rasmi oxir oqibarda qanday ko'rinish kash etishini oldindan tasavvur etish tajribasini beradi.


Bunday o'quv mashqlari asosida tahliliy usul yotishi kerak. Rassom bosh shaklini tasvirlar ekan, hajm alohida yuzalardan qanday tashkil topa borishini, shaklining konstruktiv asosi qanday shakllanayotganini ko'ra bilishi kerak. Rassom shaklini go'yo tomosha qilyotgandek, qalam tutgan qo'l xarakati esa, rasmdagi ana shu mayda-bo'laklarsiz umumlashgan shaklini plastik ifodaga bo'yundirishi kerak.

Bosh shaklining hajmini tasvirlashda shu narsani nazarda tutish kerakki, boshning ikkita asosiy qismi mavjud. Bular: Bosh suyagining sharsimon shakli va taqasimon jag' suyagi shaklidir.



8-rasm. Bosh suyagining ikki xolardan ko'rinishi

Ko'pchilik rasm chizuvchilar sog'olli erkak kishining boshini tasvirlashda bu xususiyatni chetda tushirib qoldiradilar (masalan, Gomer, Zevs, Gerakl va boshqalarni chizishda). Bu o'rinda dahan, ya'ni jag'ning pastki qismi orqa kala suyagidan uzog'lashib qolgandek, xudi havoda muallaq turgandek, kala suyagi qobig'idan chiqib qolgandek tuyuladi. Rassom kala suyagining umumiy tuzilishini hisobga olib jag'ning ostki qismini kala suyagining asosiy so'ngaklari bilan to'g'ri tutashirishi lozim. Bosh shaklini va uning tarkibiy qismlarini tahlil etishda davom etib, katta shaklni bo'r tirib chiqarish bilan bog'liq yana bir qator qonuniyalarni ta'kidlab o'tish zarur. Masalan, burun shakli asosida prizma yotadi. Burun shakli tuzilishining bu qonuniyatini bilgan rassom uchun uni qog'oz yuzasida tasvirlash endi unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi. Rasmda burun shaklining perspektiv ko'rinishini qurish hatto endigina boshlovchi rassomga ham unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi.



9 rasm. Burun shaklini kesib ishlash usuli

Bundan tashqari, shakl va uni yuzada ifodalashning bunday tahlil qilish usulidan foydalanish rassomga shaklni tus jihatdan ham hal etishga yordam beradi. Qog'oz sirtidan to'rt yuza bilan chegaralangan burun prizmasini belgilab olgan rassom darhol tus alomatlari – nur, soya, yarim soyalarni ajratib oladi va shundan so'ng burunni o'ziga qarab xarakterini aniqlaydi va shaklni mayda, bo'laklarini modellashga kirishadi. Ko'z shakli shar shakli bilan bir xildir va

maxsus adaibiyotlarda «koʻz olmasi» deb yuritilishi bejiz emas. Lekin bosh rasmini chizishda shuni hisobga olish kerakki, koʻz olmasi (oʻzbek shevalarida «koʻz kosasi» ham deb yuritiladi) koʻz kossasining uchdan bir qismigina tashqarida koʻrinadi. Bundan tashqari, koʻz olmasi va koʻz kosasiga oʻtishdan qovoqlar moʻʼtadilasha boshlaydi va shakliga ishlov berish bosiqrogʻ boʻlishi kerak. Koʻpincha talabalar koʻzning sharsimon shaklini ifodalay turib «pingpon koptokclasini» chizib qoʻyadilar va bu inson boshining real koʻrinish shakliga putur yetkazadi.

10 a – rasm. Bosh shaklini kesib ishlash usuli.

ishlashda shakl tuzishning yo'rib ishlash bosqichi unchalik ahamiyatli o'rinni egallamaydi, faqat rassomga yordam beradi xolos.

«**Kesib ishlash**» usuli rassomga tasvir qurishning ustlubiy bosqichlarini o'rgatibgina qolmay, balki realistik san'at tilini egallashga ham yordam beradi. Talaba yuzaning kenglikdagi yo'nalishini aniqlaganda va uni rassmda to'g'ri bera olishga intilganda u ob'ekt obrazini grafik va vositalari bilan berishga o'rganadi, binobarin rassm tiliga ega bo'ladi.

Б.М. Ломов. Методические и теоретические проблемы психологии. М.: Просвещение. 2010. 165 бет

ketadi. Shundan u shakl asosini yuzaga chiqarmay turib, detallarni burun, ko'z, lablar shakli tuzilishlarini ko'chirib chiza boshlaydi.



10 b rasm. Bosh shaklini tus-shtrix usulida ishlash usuli.

Shuning uchun ham yuqorida aytib o'tganimizdek «kesib ishlash» usuli bilan katta shakl ifodasini berishning uslubini o'zlashtirib olish uchun maxsus mashqlar qilish zarur bo'ladi. Dastlab bunday mashqlarni gipsdan ishlangan boshni oldingizga qo'yib chizishdan boshlash mumkin. Buning uchun boshning umumlashgan shaklini yaxlit holda tasvirlab, keyin esa asosiy detallarining katta shakllarini, go'yo burunni emas, balki prizmani, binobarin hammasini umumlashgan ko'rinishda chizish vazifasini qo'ying. Bunda burun prizmasini ko'zning sharsimon shakllarini belgilab olib qismlar va yaxitlik o'tasidagi proporsional munosabatlikni diqqat bilan kuzatish zarur 10 a, b – rasmda bunday portret ishlash namunasi misol

tariqasida berilgan. Talaba bunday mashqlarni bajara borib kesik bosh shaklini ifodalashga jalb etilgan maqsad emas, balki tasvir qurish jarayoni bilan ijodiy bog'liq bo'lgan boshlang'ich, xizmat bosqichi ekanligini tushunib yetsin.

Shuning uchun gips modellardan bajariladigan «kesik» ning oddashtirilgan ifodasi bilan birga tirik bosh rasmlarni ham chizishi kerak. Rassom oynaqa qarabo'z rasmini chiza, bu usul yaxshiroq o'zlashtiriladi. Bu o'rinda u diqqatini tortadigan mayda detallarni ko'chirib qo'ya qolishdan bosh tortib, faqat hajmining asosiy massasini chizishga diqqat-e'tiborini qaratish, bu borada undan katta iroda va qo'yilgan vazifani bajarishga bo'lgan ishonch hissi talab etiladi. Bunda biz talabning ikkinchi darajali alomatlar (soch turmagi, teri ajinlari va hokazolar) ga ahamiyat bermay boshining asosiy «katta» shaklini va uning tarkibiy qismlari – burunning prizmatik shakli, ko'zlarining sharsimon shaklini va lablar hamda dahaning umumlashgan shakllarini bajarishini ko'ramiz. Yo'nib ishlash usuli odatga aylanib qolmasligi, balki tasvir tuzishning qisqa bosqichi sifatida qaralishi uchun bir yo'la yanada real ifodali rasm ishlash ham zarur. Tasvir tuzishning umumiy jarayonini o'zlashtirish uchun gips boshdan davomli rasm chizish kerak. Bu topshiriqlar masq kabi qaratilganligi uchun bunday rasmini chizishga ko'pi bilan 3-5 soat vaqt sarflanadi.


Katta shaklni ko'ra bilish va uni tasvirlash ishda muvaffaqiyat qozonishga ko'mak bo'ladi. Rasm chizishning buyuk ustalari katta shaklni ajib tarzda egallaganlar. Masalan, V.Savitskiyda bu narsani yaxshi kuzatish mumkin. Bu yerda biz ko'z olmasi sharsimon shaklini, burunning prizmatik shaklini, boshning tuxumsimon shaklini aniq ko'ramiz.

Go'yo bu narsalarni bunchalik maydalab tushuntirish talab qilinishi zarur emassek bo'lsa ham talabalar ta'limining dastlabki bosqichlaridayoq umumiylikka degan prinsipni yaxshi o'zlashtirib oladilar. Lekin amalda bu prinsipni har turli yo'llar bilan amalga oshirish mumkin. P.Chistyakov o'z shogirdlarini «sinov rasm chizish» tizimi yo'li bilan, A.Solovov tus munosabatlari yo'li bilan ta'lim bergan, A.Deyneka chiziqi – konstruktiv rasmdan qochgan. Shu bilan birga rasimga turlicha ijodiy yondoshish bo'lishiga qaramay, na tura tahlilining prinsiplari va bosh tuzulish shaklini realistik ifodalash bilan qurish qonuniylari hamma uchun yagonaligicha qoladi. Chizuvchi

bularning hammasini yaxshi tushunib olishi uchun unga doimiy va batafsil tushuntirishlar zarur.



11 rasm. Diadumenning bosqichli qalamtasviri yuz niqobining uch bosqichda bajarilgan tasviri.



12-a rasm. A.Dyurer ishlab chiqqan odam boshi sxemasining chiziqli-konstruktiv tasviri


Talaba tasvirda boshning asosiy shaklini ifoda etishni o'rganib olib, shakl tarkibini yanada chuqurroq o'rganishga o'ta boshlaydi. Odam boshining shakli juda murakkab va u konstruktiv asos bilan belgilanadi. «Konstruksiya» deyilganda biz «tuzilish» qismlarining o'zaro joylashuvi, shakl tarkibini nazarda tutamiz. Biz «konstruktiv jihatdan uyg'un» deganimizda yaxshi qurilgan tasvirni nazarda tutamiz. Odam boshini tasvirlashda muvaffaqiyat qozonish uchun shaklning konstruktiv jihatdan ko'rinishini ko'rish va uni rasmda ifoda eta bilish qonuniyatlarini tushuna bilish kerak.

## 1.2. Chiziqli-konstruktiv tasvirlash usuli

Oddiy geometrik jismlar, vazalar, ustun qoshlarini (kapielllar va hokazolarni) tasvirlashda rasm chizuvchidan eng avvalo shaklning konstruktiv asosini yaxshi tushuntirish va uni chiziqli rasmda to'g'ri aks ettira bilish talab etilganidek odam boshini tasvirlashda ham uning konstruktiv asosini tahlil qilish va uni chiziqli konstruktiv asosda ifoda eta bilish zarur.

12-a,b rasmlarda A.Dyurer ishlab chiqqan odam boshi sxemasining chiziqli-konstruktiv tasviri bunga misol bo'la oladi. Biz bosh shaklning konstruktiv asosini tahlil qilar ekannimiz qator qonuniyatlarini ta'kidlab ularni rasm chizishda hisobga olishimiz zarur. Bu qonuniyalarni A.Dyurer rasmi bo'yicha qarab tahlil qilib chiqaylik.

Bosh shakli go'yo asosiy 4 ta parallel-gorizontal yuzalar bilan kesishganidek: soch bilan qoplana boshlanish joyi, qosh usti yoylaridagi chiziqlar, burun va dahan asoslari. Ana shu yuzalarga perpendikulyar ravishda boshning tuxumsimon shaklida vertikal yuzada kesishadiki, u yuza ustida ko'ngdalang chiziq hosil qiladi. Bu vertikal yuza uni ikki teng qismga ajratadi, u hosil qilgan profil chiziq esa bosh tashqi ko'rinishini ikki simmetrik yarimga ajratadi.




12- b rasn. A.Dyurer. Bosh shaklini konstruktiv asosini ifodalashda sxemalardan foydalanish

Horizontal yuzalar esa boshni qismlarga ajratadi va soch qoplamini, qosh ushi yoylari, burun va dahan asoslarini hosil qiladi. Shunday qilib, ushbu sxema bosh shakli proporsional qismlarga ajratish qonuniyatini tasdiqlaydi.

O'zining ko'rgazmaliligi va ishonchililigi jihatdan bu sxemadan ko'pchilik rassom-pedagoglar bosh suratini chizishga o'rgatishda hozirgi kun o'quv jarayonida ham foydalanadilar.

A.Dyurer izidan borib rassom-pedagoglar bosh rasmini chizishga o'rgatishda bosh shaklining konstruktiv asosini ifodalashda o'z sxemalarini ishlab chiqar boshladilar va ular yordamida o'quvchilarga o'quv materiallarini tezroq va yaxshiroq o'zlashtirib olishga ko'maklashdilar. Masalan, rassom va pedagog A.Losenko bir qator metodik javvallarni ishlab chiqdiki, ularda boshning kenglikdagi burlishi va holatiga qarab bosh sxemasi perspektiv ko'rinishning o'zgarish qonuniyatlarini ko'rgazmali ravishda ko'rsatib beradi. Asosiy konstruktiv chiziqlarning (soch qoplamasi, qosh ushi, burun va dahan asosi, shuningdek profil chizig'i) yo'nalishlari jadvalda punktir chiziqlar bilan berilgan. Bu bilan Losenko aslida bunday chiziqlar

yo'q, ular shartli bo'lib, boshni tasvirlashda rassom bularni xayolan tasavvur etishni ta'kidlamogchi bo'ladi.



13-rasn. A.Sapojnikov. Boshning sim-to'r modeli.


O'tgan asrning buyuk rassom-pedagogi A.Sapojnikov boshning simli modelini yaratdi. 14-rasn. U rasm chizuvchiga shaklning konstruktiv asosi va perspektivasi hosil bo'lishni tushuntirib etishiga yordam beradi. Bu modelning maqsad - vazifasi haqida A.Sapojnikov shunday yozadi: «Badiiy Akademiya imperatorligi kengashiga men tuzgan «boshlang'ich rasm kursi» ning bir nusxasini, unga tegishli metodlar solingan qutini va simdan yasalgan bosh modelini yuborishga jazm ayladim. Ularni o'z mahallangiz doirasida qabul qilishingizni o'tinib so'rayman. Agar ushbu model Akademiyaning rasm chizish sinflarida foyda keltirsa men juda baxti bo'lardim. Agar bu modelni xuddi shu burlishda namuna xizmatini o'taydigan gips boshni oldiga qo'yib ishlansa, u o'zini tarkib topirgan qismlarining perspektiv o'zgarishini anglab olishga yordam beradi». Keyinchalik odam boshi rasmini chizish uslubiyatini ishlab chiqarib har bir qo'llanma muallifi konstruktiv sxemadan foydalanish usullarini o'z

bi'ganlaricha ta'riflay boshlaydilar. Kimdir A.Dyurer sxemasini asos qilib olar va darhol hamma konstruktiv chiziqlarni belgilab olishni tavsiya qilardi. Boshqalar G. Golbeyn sxemasini afzal ko'radi, uchinchi birlari esa unisidan ham, bunisidan ham foydalanishga intildilar. Rasmda hamma konstruktiv chiziqlar sharti ravishda shakl yuzasi bo'ylab o'tadi. Konstruktiv chiziqlarning aniq joylashishi (ularni g'aysi joylaridan o'tkazish) qo'llanmalarda ko'rsatilmagan. Bu esa ta'lim olayotgan rassom chizuvchining ishini ancha murakkablashtiradi. Masalan, talaba profil chizig'ini tasvirlamoqchi, lekin bu chiziq qayerdan o'tishi kerakligi unga noma'lum. Ko'pgina qo'llanmalarda profil chizig'i peshona yuzasi va burun uchiga tekkan xolda mavhum o'tkaziladi. Rasmda bunday chiziq bosh shaklini qurishda mo'ljal bo'la olmaydi. Bu haqda biz rassom ustida ishlash uslubiy bosqichi haqidagi bobda yana to'xtalamiz. Shuningdek dahan, burun, qosh usti, ko'z kesimi asoslarning chiziqlari joylashganligi ham noma'lum. O'quvchi ularni ko'r-kona bosh shaklini tasvirlash uchun bu chiziqlarni zarurligini tushunmay turib chizaveradi.

Bu masalaga to'la oydinlik kiritish uchun biz har bir chiziq Bosh suyagi bo'laklari bilan asoslanadigan anatomic qurilish qonuniyatlariga bog'liq ravishda odam bosh shaklining chiziqli-konstruktiv sxemasini ko'rib chiqishni tavsiya etamiz.

Chiziqli-konstruktiv sxema bo'yicha bosh shaklini tahlil qilar ekanmiz, profil chizig'i soch qoplamini o'trasidan, qanshar o'trasi, burun asosi, lablar tutashmasi (bantiki) va jag' suyagi o'trasidan o'tishini ko'ramiz (14-rasm). Masalan, burun prizmasida profil chizig'i prizmaning old yuzasida emas, balki orqa yuzasida joylashadi. Burun uchun profil chizig'iga nisbatan boshning kenglikdagi holatiga qarab o'zgartirish mumkin. Dahan asosida profil chizig'i dahan yuzasida emas, (garchi dahandagi chuquri yaxshigina mo'ljal bo'lsa xam), balki jag' suyagida joylashadi.

Rassom profil chizig'ining joylashishini bilsa u boshning kenglikdagi xolatini ham osongina aniqlab oladi. Buning uchun hayolan to'g'ri chiziq bilan profil chizig'i tutashgan nuqtani qosh usti (qanshar) va dahan asosi profil chizig'i tutashgan nuqta bilan birlashtirish kerak va bu chiziqlar o'trasida qanday burchak hosil bo'lishini aniqlab olish zarur va bosh ham vertikal, xuddi shu og'ishlikda bo'ladi.



14-rasm. Bosh shaklini bo'laklarga proporsional bo'linishi

Profil chizig'i shuningdek rassomga bosh shakli tasvirini qurishda ham yordam beradi. Profil chizig'i boshni ikki simmetrik qismga ajratganligi uchun ham rassom juft shakllarning (jag' suyaklari chizig'i, ko'z kosalari, lab burchaklari, burun teshiklari) joylashuvini ham osonlik bilan kuzata oladi, ular rasmda bir yo'la belgilanadi: jag' suyagining o'ng chizig'ini belgilash bilan darhol uning chap chizig'i ham belgilanadi, chakka suyak chetlari o'ngda va chapda bir yo'la belgilanadi va hokazo.

Gorizontal konstruktiv chiziqlar o'zaro parallel bo'lib, boshni proporsional qismlarga ajratadi. Soch qoplamini, qosh usti yoylari (14-rasm B tekisligi) burun asoslari (14-rasm G tekisligi) va dahan (14-rasm Ye tekisligi) chiziqlari boshni teng uch qismga ajratadi.


Boshning proporsional qismlarga ajratish qonuniyatlarini qadimgi rassomlar aniqlab berganlar. Biz bosh shaklining uch qismga ajratish qonunlarini Qadimiy Yunon va Rim rassomlarida ham ko'rishimiz mumkin.

Uyg'onish davri rassomlari matematik o'lchamlar asosida boshning old qismi uchta teng qismlarga ajratish haqida xulosaga kelganlar.

Keyingi asr rassomlari nisbatlar qonunini ishlab chiqar ekanlar, taqqiqlotning har xil usullarida ham xuddi shu xulosaga kelganlar. Masalan, A.Losenko o'zining «*odamning qisqa proporsiyasi*» yoki

*akademik shaklini chizish*» asarida boshni ucha teng qismga ajratishni ko'rsatgan. 15-rasm. V. Shebuev esa, o'zining «*Antropometriyalari*» asarida buni ta'kidlab o'tgan. 16-rasm.


Lekin, keyinchalik Badiiy akademiya maktabining dushmanlari qoida va qonunlarni o'rgatishga qarshi chiqadilar, ular san'atda klassik me'yorlarini tan olmadilar va binobarin bosh shakli tuzilishi sxemalari, shuningdek, uch teng qismga proporsional bo'linishi ham ular har bir inson individual va hamma kishilar uchun ham bosh shaklining tuzilishi borasida aniq va bir xildagi qonun bo'yishi mumkin emas, degan asosda bularni rad etadilar.



15-rasm. Portret tasvirlashda nisbatlar qonunidan foydalanish

Biz bosh tuzilishini ancha yengillashtiradigan va bosh shakli qurilishining an'anaviy qonun, qoidalarini hamda sxemalarini hikoya qilgan holda ularni yuksak darajada va benugson tasavvur eta olmaymiz. Lekin shuni qat'iy tarzda ta'kidlash kerakki, rasmda shakl qurilishining bu qonun, qoida va sxemalari burchakli haqiqatga yaqinki, ulardan hozirgi zamon rassomi amaliyotida bema'lol foydalanish mumkin. Odam boshi shakli qurilishining Dyurer sxemasi absolyut haqiqat emas, ammo u so'zsiz shaklning konstruktiv asosini ochib beradi. Qadimda klassik rassomlar boshni teng uch qismga ajratish haqidagi yozgan qonuniyatlar har bir tasvirlanajak kishi uchun absolyut proporsiya emas, lekin uning bosh tuzilishi

proporsional tarzda qismlarga bo'linish qonuniyati haqiqatdir. Leonardo da Vinci o'sha paytlardayoq bu narsani isbotlar ekan, shunday rasmlar chizdiki, unda bir-biridan teng masofada turgan to'rtta gorizontal parallel chiziqlar o'tkazilgan va ana shu chiziqlar doirasida mayib-majruhlar boshini-kalta burun, keng peshona, uzun burun va kichik dahanlar Leonardo da Vinci bu rasmi bilan hatto eng quyi xarakterdagi boshlarni tasvirlashga hozirgi zamon rassomlari qadimiy qonuniyatlaridan foydalanish mumkinligini isbot etdi.




16-rasm. Bosh shakli tuzilishining qonuniyatlar.

Klassik qonuniyatlar bilan tanishish talabaga bosh qurilishining nisbatlarini va o'ziga xos xususiyatlarini tuzatish va to'g'ri aniqlashga o'rgatadi. Bu qonuniyatlarini bilish rassomga naturada kuzatiladigan qonuniyatlardan chetga chiqish alomatlarini sezishga yordam beradi. Bosh shakli qurilishi (hatto sxematik) qonuniyatlarini bilish rassomga turvur etilayotgan turli xarakterlarni kuzatish va darhol tasvirga tuzatishlar kiritish mo'ljaldagi rasmlarga aniqlik va o'zgarishlar kiritishda keng imkoniyatlardan foydalanish imkonini beradi. Naturani kuzatuvchi talaba, boshning qiyshiq chiqib qolmasligi, proporsiyalar

o'rtaida qo'pol buzilish bo'lmashligi uchun ishini osonlashtiruvchi yo'llardan foydalanishi kerak. U o'zidan oldingi va uning ishida yordam bergan rassomlar foydalangan me'yor, qoida va qonuniyatlarni bilishi kerak.

Shakl tuzilishining qoidalari, qonun va sxemalari rassom ishida tayanch nuqta hisoblanadi, ular real borligini idrok qilishga kalit, shuningdek tirik boshning murakkabliklarini tushunib yetishga va naturadan, birinchi navbatda, eng asosiy joyini ilg'ab olishga ko'maklashadi. Akademik rasm chizish qoidalari va qonuniyatlarini bilish talaba uchun o'z san'atini egallab olishi uchun zarur. Buyuk Gyote yozgan edi: «Tabiatdan rassom bo'lgan kishi tabiat o'zi bergan qonuniyatlarga qoidalarga muvofiq ravishda harakat qilishi kerakki, bu qonuniyatlarga unga zid bo'lmashligi, uning butun boyliklaridan iborat bo'lishi kerak. Chunki ularning yordamida u o'z-o'zini bo'ysindirish va o'z qobiliyat-ishti'rodini tabiatning buyuk boyliklari kabi qabul qilishni o'rganadi»<sup>2</sup>.




17 rasm. Boshning tekisliklarga bo'linishi

Bosh shakli qurilishining sxemasi va uning proporsional qonuniyatlari avval aytib o'tganimizdek, Bosh suyagiga asoslangan. Shuning uchun natura bo'yicha konstruktiv chiziqlarning joylashishini belgilash kerak. Shuni nazarda tutish kerakki, ular Bosh suyagi asosida yotadilar. Agar biz dahan asosi konstruktiv chizig'ini naturadan qidiradigan bo'lsak, u holda uni dahan yuzasida emas, balki

<sup>2</sup> Тере оё нехъсуре. 91-бет.

jag' suyagi bo'rtnasida tasavvur qilish kerak bo'ladi. Burun asosining chizig'i burun uchidan emas, balki burun teshiklari asosida o'tadi: burun uchi rasmda yo pastda yoki burun asosi chizig'idan yuqorida joylashgan bo'lishi mumkin. Odam boshi qurilishining konstruktiv sxemasini bilish rasm chizuvchiga tasvirlashga perspektiva qonuniyatlariga rioya qilishga yordam beradi, naturadan ko'r-ko'rona nusxa ko'chirishdan qaytaradi.

Agar rassom konstruktiv chiziqlarni yaxlit o'zlashtirib olsa, bosh shakli tasvirini to'g'ri qurish eng murakkab perspektiv vaziyatlarda ham unga




18 rasm. Gerakl qalamtasviri

umchalik qiyin bo'lmaydi. Buni tushunib olish uchun o'z sxemamiz tahliliga qaytaylik (17-rasm). Soch qoplamni asoslarning chizig'i shu qoplam chizig'i asosidan o'tadi. (17-rasm, A tekisligi).

O'atto sochi to'kilib taqir bosh bo'lib qolgan kishida ham soch qoplamasi izlari har doim ko'rinish turadi. Qosh usi yoylarning chizig'i qosh usi suyaklari chizig'idan o'tadi.

(17-rasm, B tekisligi). Burun asosining chizig'i burun ustidan, jag' suyaklarining pastki chetidan o'tadi (17-rasm, G tekisligi). Burun asosi va qosh usi yoylari chiziqlari orasida quloqlar joylashadi. Talaba bu qonuniyatni bila turib boshining kenglikdagi holatini tez va to'g'ri aniqlay oladi. Masalan, juda murakkab og'ma va burilishga ega bo'lgan Gerakl va Antinoy gips boshlarini chizishda u odatda boshning nechog'lik egikligini aniqlab olishga qiyinaladi. (u pastga qaraganni? Yoki orqaga tashlabroq turibdimi) (18, 19 rasmlar).




19 rasm. Antinoyning qalamtasviri

Rasm chizuvchi bosh shakli qurilishning konstruktiv xususiyatlarini bilib boshning kenglikdagi holatini hech mashqatsiz aniqlay oladi. Faqat burun asosiga nisbatan quloqlarning joylashishini aniqlab olsa bas: agar quloqlar burun asosidan pastda bo'lsa — bosh orqaga tashlangan, agar quloqlar burun va qosh asoslaridan yuqorida

bo'lsa — bosh pastga egilgan bo'ladi. Dahan asosi chizig'i jag' suygining old bo'rtmasi o'rtasidan o'tadi. Qosh usi yoylaridan burun asosigacha bo'lgan kesma, o'z navbatida uchta teng qismlarga ajraydi: birinchi qosh usi yoylaridan va ikkinchi qismlar o'rtasidan ko'zlar kesma chizig'i o'tadi, ko'zlar qanshar va ko'z yoshi qopchig'i burchaklarini kesib o'tadi, aniqroq aytadigan bo'lsa, chakka va jag' suyaklarini birlashtiruvchi choklar orqalidir.

Ko'z kesmalari chizig'ini ham uchta qismlarga ajratish mumkin. Ko'z burchaklari chetlari o'rtasi, boshqacha aytganda ko'zlar o'rtasidagi masofa ko'zlar kattaligiga teng. Rasm chizuvchi bu qonuniyatni bilar ekan, u optik aldanishdan qochoq biladi. Masalan, talaba Yuliy Sezar boshini chizari ekan, u ko'zlarni bir-biriga yaqinlashtirib ko'pincha xatolikka yo'l qo'yadi (19 rasm).



20 rasm. Yuliy Sezar boshining tasviri.

Buni shu bilan izohlash mumkin, uzun-ingichka, qanshar xususiyatidagi, burun go'yo ko'zlar bir-biriga yaqindek taassurot tug'diradi. Chizuvchi ko'zlar o'rtasidagi masofani o'lchab ko'rganda

u ko'z kattaligiga tenglik haqida ishonch hosil qiladi. Burun asosi bilan dahan chiziqlari o'rtasidagi masofani ham uch teng qismga ajratish mumkin, burun asosi va ikkinchi qism o'rtasida lablar kesma chizig'i yotadi. U lablar burchagiga tekkan holda oski va ustki lablar chegarasi bo'ylab o'tadi.

Rassom boshning proporsional qismlarga ajratish qonuniyatlarini esda saqlagan holda u bu narsani abolyutlashitirishi va chizg'ich hamda sirkul yordamida rasmdagi proporsional nisbatlarni muntazam ravishda teshkiraverishi kerak emas. Vaholanki, ko'pchilik talabalar shunday qilaveradilar. Uyg'onish davrining buyuk rassomlari so'zlarini takrorlagan holda shuni aytish kerakki, chizg'ich va sirkul rassomning qo'lida emas, balki ko'zida bo'lishi kerak: qo'l qog'ozga tasvir tushiradi, rassomning ko'zi esa uning xatti-harakatlarini tekshirib boradi.

Xulosa shuki, odam boshini o'rganishda rassomga asosiy konstruktiv qurilish qonuniyatlari va rasmda shu chiziqli-konstruktiv asosini ifodalay bilish bilimi katta yordam beradi.

Binobarin, odam boshi shaklining chiziqli-konstruktiv tasviri quyidagilardan iborat: dastlab tussiz va yorug' soyasiz chiziqlar bilan boshning umumiy shakli tasvirlanadi. Shundan so'ng boshning old qismi ustidan profil chizig'i o'tkaziladi, bu chiziq uchta teng qismlarga ajraydi va bu chiziqlar ustidan sochlar qoplamasi qosh usi yoylari, burun va dahan asosi konstruktiv chiziqlari o'tkaziladi. Zarur mo'ljallarni belgilangandan so'ng bosh detallari: - burun prizmasi, ko'zlarning sharsimon shakllari, lablar va dahanlarning umumlashgan shakllarini belgilab olamiz. Bularning hammasiga zarur tuzatishlar kiritilishi mumkin bo'lgan faqat bitta chiziqlar bilan tasvirlanadi. Shaklning konstruktiv asosini tasvirlashda qo'l keladigan chiziqlar rassomga shakl qurilishi qonuniyatlarini to'g'ri qo'llashga yordam beradi.

Chiziqli - konstruktiv tasvirni belgilab olib, diqqat bilan ham butun bosh va uning har bir qismi shakllari harakteriga aniqlik kiritishni boshlaymiz.

Agar biz chiziqli konstruktiv rasmini bajarish paytida yorug'lik manbai o'rinni almashirsakda, shaklning konstruktiv asosi o'zgarmaydi (garchi naturaning tashqi ko'rinishi juda kuchli o'zgarasa ham). Bu eksperiment shu narsani tasdiqlaydiki, naturani tahlil qila

borib, chiziqli-konstruktiv asos ustida ishlayotgan chizuvchi har doim shakl ustida fikr yuritadi.

Pedagogik - amaliyot tajribalar shuni ko'rsatadiki, bosh shakli konstruktiv qurilishi sxemasini yaxshi bilib olgan talabalar keyinchalik tirish boshning akademik rasmi va ijodiy portret chizishda hech qiyalmaganlar. Bosh shakli konstruktiv qurilishi qonuniyatlarini qat'iy ravishda egallab olish uchun yoshlarga faqat chiziqli konstruktiv qurilishi bo'yicha maxsus topshiriqlar bajarish katta ahamiyatga ega. 20 rasmda Apollon boshining chiziqli-konstruktiv qurilish tasviri o'quv vazifasi sifatida berilgan.

II kursda talabalar asosan shunday vazifalarni ko'plab bajaradilar, bu esa ularning keyinchalik tirik bosh rasmini muvaffaqiyat bilan tasvirlashlariga katta imkoniyatlar yaratadi.



20 rasmi Apollon boshining yordamchi chiziqlardan foydalanib ishlangan qalamtasviri

Bosh shakli tuzilishining chiziqli-konstruktiv tasvirini bajarish borasida beriladigan maxsus topshiriqlar talabalarga o'quv materialini yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi, ularni rasm chizish paytida doimiy ravishda fikrlash va mulohaza yuritishga o'rgatadi, yorug' soya nuqsonlarini ko'r-ko'rona tarzda, passiv ko'chirishdan qaytaradi. Chunki bunday mashqlar yordamida rasm chizuvchi shakl tuzilishi doimiylikka qolishini tushuna boradi.

Bosh shakli tuzilishi qonuniyatlarini to'liq va har tomonlama o'rganish uchun talaba bunday topshiriqlarni nafaqat naturadan, balki xotiradan, tasavvurdan bajarishi zarur. U amaliyotda bunday mashqlar zarurligiga ishonch hosil qilishi, shaxsiy tajribasida realistik rasm san'atini egallashda ular qay darajada yordam berayotganligini his qilishi kerak. Bunday mashqlar talabning nafaqat anatomik bilimlari borasidagi qobiliyatlarini rivojlantiradi, balki his-hayajon bilan yondashishdek ijodiy qobiliyatini shakllantirishga ham qaratilgandir.

Bosh shaklining chiziqli konstruktiv tasvirini bajarishda olib boradigan mashqlarning asosiy vazifasi quyidagilardan iborat:


1. Talabalarda naturaga bo'lgan qiziqishni yuksak darajada rivojlantirish.
2. Tasvir qurishda uslubiy bosqichlikda ishlashga o'rgatish.
3. Tasvir qurishning to'g'ri va ifodaliligi riyoga qilishga o'rgatish.
4. Realistik rasm chizishda ijodiy jarayonning mohiyatini tushuntirish.
5. Naturani yuksak his-hayajon bilan tasvirlash.
6. Mashqlar bajarishda samaradorlikni oshirish orqali kuzatuvchaklikni o'qitilish.

Chiziqli – konstruktiv rasm ishonchli va yaxshi qurilgan tarzda chiqishi uchun boshning har xil kenglik holatidagi konstruktiv sxemasi tasvirining qator xususiyatlarini ham rassom yaxshi egallab olishi kerak. Bosh shakli konstruktiv tuzilishining tasvirlash jarayoni ma'lum qonuniyatlarga rioya qilishni talab etadi. O'tgan asrlar rassomlari bu narsaga katta e'tibor berganlar. Masalan, Goltbeyn o'z qalamchizgilarida boshning fazodagi holatiga qarab, uni tasvirlashda hisobga olishni va perspektiva qoidalariga, sxematik qonunlarga e'tiborni qaratadi.

1. Agar bosh bizning ko'zimiz bilan bir xil tekislikda to'rsa konstruktiv chiziqlar to'g'ri bo'ladi:

2. Agar bosh bizning ko'zimizdan pastroqda bo'lsa, konstruktiv-gorizontal chiziqlar egilgan bo'ladi va pastga qaratilgan bo'ladi:
  3. Agar bosh bizning ko'zimizdan pastroqda bo'lsa, bu konstruktiv chiziqlar tepaga qaragan bo'ladi.
- Goltbeynning ushbu rasmini tahlil qilish ekannimiz, shuni hisobga olish kerakki Goltbeyn Dyurerdan farqli o'laroq, boshning chiziqli-konstruktiv tuzilishini yaratish uchun «salb» (krestovina) dan foydalangan. Ular boshni ikki qismga ajratadigan ikki chiziqdan (profil chizig'i va ko'z qismi chizig'i) iboratdir.

### 1.3. Bosh bo'laklari – burun, ko'z, quloq va lablar rasmini tasvirlash




21 rasm. Ko'z va burun shaklining tuzilishi. Qadimgi usta rassomlar ishic namuna

Bosh shaklining bo'laklarini ishlash yuzning bosh qismlari – burun, ko'z, quloq, lablarni tasvirlashning asosiy qoidalarini haqidagi bilimlarni puxta bilishni talab etadi. Talabalar odatda boshning alohida bo'laklari rasmini chizish muhimligini yaxshi baholay olmaydilar. Ular buni go'yo bekoraga vaqt sarflash, deb o'ylaydilar, ularning fikricha gips boshning davomli rasmini chizish vaqtida bosh

bo'laklarini chizish ham yetarli. Lekin talaba bosh rasmini chizish paytida ko'z, quloq, burun va lablarni tasvirlashning butun nozik tomonlarini chuqur va maxsus o'rganib chiqa olmaydi. Leonardo da Vinchi boshlovchi rassomlarga maslahat tariqasida shunday yozgan edi: ... «agar sen narsalar shakli haqidagi bilimlarga ega bo'lmoqchi bo'lsang, uholda qismlardan boshla, agar sen uning birinchisini xotirang va amalda yetarli darajada yaxshi o'zlashtirib olmagan bo'lsang — keyingisiga o'lma. Agar sen o'zga yo'l tutadigan bo'lsang bekorga vaqtini sarflaysan yoki ochig'ini aytganda, ta'lim olish jarayonini juda cho'zib yuborasan. Men senga eslatib qo'ymoqchiman — eng avvalo qunt qilishni, keyin esa tezlashtirishni o'rganib ol».

Qadimgi badiiy maktablarda bosh shaklini o'rganish burun, ko'z, quloq va lab kabi detallar rasmini chizishdan boshlangan. o'sha dastlabki badiiy akademiyadayoq aka-uka Karachchilardan biri o'z akademiyasi tarbiyalanuvchilari rasmdan qo'llanma tuzgan edi. Bu qo'llanma «Butun inson tanasini chizishga o'rgatuvchi ajoyib maktab» deb nomlangan bo'lib, ularda ham bosh shaklini o'rganish bo'lgan bo'laklar rasmini chizishdan boshlangan.



22 rasm. I.Preysler. Ko'z tuzilishining sxematik rasmlari



23 rasm. Sh.Lomberning quloq rasmini tasvirlash bo'yicha qo'llanmasidan namuna

Keyinchalik ham bosh bo'laklarini bo'yicha qo'llanmalarining hammasida ularga jiddiy e'tibor berilgan. Masalan, I.Preysler o'zining «Rasm chizish bo'yicha qoida va qisqa amaliyot» deb nomlangan qo'llanmasida (1734) nafaqat quloq shaklining qurilish qonuniyatlarini ochib beradi, balki tasvir qurish metodikasini ham ko'rsatadi. Tasvir rasm chizuvchiga quloq holatini aniqlab olishda yordam beradigan o'q chiziqlarni aniqlashdan boshlanadi. Shundan so'ng quloq suprasining umumiy aylanasi va qismlarining proporsional nisbatlari belgilab olingan. Shundan so'ng quloq jingalari, qarshi jingalari, qayiqsimon chuqurtliklarni qanday tasvirlash ko'rsatilgan 20-rasmda quloqning turli holatlarda tasvirlashini misol qilib keltiramiz (Julen va A.T.Skino qo'llanmasidagi jadval).

Sh.Lomberning 1754 yilgi qo'llanmasida ham bosh shakli detallarini qurish qonuniyatlariga asosiy e'tibor qaratilgan. Rasmda ko'z qurilishining proporsional qonuniyatlarini, ko'z qorachig'ining, yuqori va pastki qovoqlarning joylanishi ko'rsatilgan. Bosh shakli bo'laklari rasmlarini biz Keniger, Jyulen, Skino, Pukirev va Savrasov, shuningdek, Kardovskiy, Bartu, Xitrov, Solovov va boshqalarning qo'llanmalaridan ham topamiz. Ularda ham rasm chizuvchining diqqat-e'tibori tasvir qurish uslubiyotiga qaratilgan. o'rta va Oliy maxsus o'quv yurtlari uchun tuzilgan rasm bo'yicha hozirgi zamon

o'quv dasturlarida Mikelandjelo Buanortti haykatoroshlik ishidan Dovud bosh bo'laklarining gips namunalarini chizish uchun maxsus topshiriqlar ko'zda tutilgan.

Bosh qismlarini o'rganish rasm bo'yicha o'quv dasturlarida ko'zda tutilgan klassik gips namunalar (Dovud boshi) tahlili va tasvirdan boshlaymiz.


Bosh shakli bo'laklarini ishlashni burun tasvirdan boshlanadi, biz ham Ushbu vazifani burun shakli tahlilidan boshlaymiz.

Bosh shakli bo'laklari tasvirini qurish uslubini ochib borib, Yana go'yo ma'lum haqiqatga qaygandek bo'lamiz. Lekin turi oliy badiiy o'quvch yurtlaridagi ko'p yillik pedagogik amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik talabalar ular haqida unutilib qo'yadilar va lozim darajadagi muvaffaqiyatga erishmay turib rasmini juda mantiqsiz va betartib tarzda olib boradilar.

Yuqorida ta'kidlaganidek, burunning kata shakli to'rtga yuzadan iborat bo'ladi – oldingi, ikki yon va pastki yuzalar.



24 rasm. David bosh shaklining qalamtasviri.



25 rasm. Burunning to'rtga yuzadan iborat katta shaklining tuzilish sxemasi.


Erkak va ayollarning burni har xil bo'lishiga qaramay burun shakli strukturasi bir xil. Biz uni o'z sxemamizda ko'rib chiqamiz (25-rasm). Burun prizmasining old yuzasi qosh usti yoylari chizig'idan burun bugrigacha qansharning trapetsiyasimon shaklini tashkil qiladi. (1); shundan keyin qanshardan burun bugrisining o'rtasiga qadar Y ana bita uzaytirilgan trapetsiyani tashkil etadi (2); undan bugri oxirigacha – uchinchi (3), lekin ag'darilgan ko'rinishda; va nihoyat oxirgi trapetsiya – bodom (4). Individual xususiyatlarga ko'ra burun shakllari qurilish sxemasi ko'rinishi o'zgaradi – puchug, qing'iy burun, to'g'ri burun. Lekin ularning qurilish qonuniyati o'zgarmay qolaveradi. Masalan, biz qing'iy burun kishini chizayapmiz. Burun shakli strukturasi tahlil qilib, biz ko'rsatib o'tgan sxema ancha cho'zilganligini qayd etamiz; bunday kishilarning qansharlari ancha tor bo'lib, prizma-burunning yon yuzasi qanshardan ko'z yoshi qornachig'igacha chuqur kirib ketadi; burun bugri eng do'ng qismi odadagidek bo'lib shakliga ko'ra cho'ziq, uchi pastga eilgan, bodom chiziqlari ko'rinnas bo'ladi, ular yagona shakliga qo'shilib ketgandek bo'ladi (25-rasm o'rtasi).

Puchug burunli kishining qanshari keng, burni bukri botiqroq va kichik bo'ladi, bodomlari keng va burun uchi yaxshi ko'rinish turadi, butun sxema esa ancha siqiq (25-rasm, o'ngdan oxiri). Lekin shuni aloxida ta'kidlash kerakki shakl xarakteri xar xil bo'lishiga qaramay burun sxemasi, tarkibi o'zgarmas, ya'ni to'rt qismdan iborat bo'lib qolaveradi.

Burun shakli qurilishi qonuniyatlarini o'rganib Leonardo da Vinchi shunday yozgan edi: «o'rtasida burun bugri bo'lgan burun qismlari sakkiz usulda o'zgaradi, binobarin: ular yo bir xilda to'g'ri yoki bir xilda bukilgan, yoki bir xilda bo'rtib chiqqan bo'ladi —bu birinchidan; yoki ular bir xilda bo'lgan to'g'ri, bo'rtib chiqqan yoki bukilgan bo'ladi bu ikkinchidan; yoki ularning yuqori qismlari to'g'ri, pastki qismlari esa bukilgan bo'ladi bu uchinchidan; yoki yuqorisi to'g'ri, pastkisi bo'rtib chiqqan bo'ladi —bu to'rtinchidan; yoki yuqorisi bukilgan, pastkisi to'g'ri bo'ladi —bu beshinchidan; yoki yuqorisi bukilgan, pastkisi bo'rtib chiqqan bo'ladi —bu oltinchidan; yoki yuqoridagisi bo'rtib chiqqan, pastkisi esa to'g'ri bo'ladi —ettinchidan; yoki yuqorisi bo'rtib chiqqan, pastkisi esa bukilgan bo'ladi —bu sakkizinchidan».

Burun shaklining tashqi ko'rinishi va qonuniyati asosan burun suyaqi va qoshlar o'rtasi peshona qismi suyaqining qurilish xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. (26-rasm, M.Gerasimov bo'yicha). Puchug burun peshona qismi oldinga ancha bo'rtib chiqqan, burun suyaqi esa ichiga kirib ketgan bo'ladi (26-rasm, a).

To'g'ri burunli kishilarda peshona suyaqidan burun bugrigacha o'tishi bir tekisda bo'ladi. (26-rasm, b). Qirg'ay burun kishilarda peshona suyaqi biroz oldinga turtib chiqqan, burun suyaklari esa ancha oldinga chiqib, keskin pastga qaragan bo'ladi (26-rasm, v). Burun kemirchagi va muskullarning joylanish qonuniyati ham shunday. Buni tirik bosh rasmini chiziyotganda hisobga olish kerak. Mazkur holatda biz burun shakli va uning plastik xarakteristikasi shaklini qurishning umumiy qonuniyatlarini o'zlashtirib olishimiz kerak.




26 rasm. Burun shaklining tashqi ko'rinishiga burun suyaqining ta'siri (M.Gerasimov taxlili bo'yicha).

Burun shakli qurilishining asosiy qonuniyati Dovud boshi haykal nusxasida yaxshi ifoda etilgan. Shuning uchun barcha badiiy o'quv yurtlarida bosh bo'laklarini o'rganishda Dovud boshining gips nusxasi gips nusxasi tavsiya etiladi.

Burun rasmini chizishga kirishar ekamiz, tasvir qurishning uslubiy ichiligi-oddijlikdan murakkablikka, umumiylikdan xususiylikka rioya qiling. Eng avvalo burun gips nusxasining prizmatik shaklini belgilab olish zarur, uning holatini va proporsional nisbatlarini kenglikda belgilab olamiz (perspektiva qonuniyatlariga muvofiq). Keyin burun prizmasining joylashishi va yuzalarining (oldingi, pastki va ko'rinish turgan bo'lsa-ikki yon yuzalarini) yo'nalishini belgilab olamiz (27-rasm). Agar burun prizmasi biz tomon frontal turgan bo'lsa, u holda oldingi yuza yaxshi ko'rinadi, qolganlari esa perspektiv qisqarishda bo'ladi; agar biz burun prizmasiga pastdan qaraydigan bo'lsak, burunning pastki yuzasi yoyilgan va yaxshi ko'rinadigan, old va yon yuzalari esa perspektiv qisqarishda bo'ladi.


Prizma shakli — burun qurilishi to'rtan-uch burulishda yoki profilida bo'ladigan bo'lsa, burun prizmasining bizga qaratilgan yon yuzasi yaxshi ko'rinadi, uning qolgan yuzalari esa perspektiv qisqarishda turganligini ko'ramiz. Shuning uchun eng avvalo, tasvirda prizma-burunning umumiy shaklini to'g'ri belgilab olish, uning holati kenglikda chiziqli perspektiva qonuniyatlariga ko'ra to'g'ri turganligini aniqlab olishimiz va proporsional nisbatlarini tekshirib olishimiz lozim. Shundan so'ng bizning sxemamizga muvofiq shakl strukturasini ochishni boshlaymiz. Eng avvalo burun old yuzasining asosiy qismlari-qanshar, bugri va bodomlarining joylashishini belgilaymiz. Shundan so'ng qanshardan ko'z yoshi qorachizig'igacha va bodomlardan burun teshiklari uchigacha bo'lgan yon yuzalar chuqurligini, shuningdek burunning pastki maydon xarakterini aniqlaymiz.



27 ras. Burun prizmasining joylashishi va yuzalarining (oldindan, pastdan, ikki yon tomoni) ko'rinishi

Burunning old yuzasi aniqlik kirita borib tasvirini bir vaqtning o'zida o'ng va chap tomonlarda yuritib. Masalan, o'ng tomondan qansharni belgilab olib, darhol chap tomonini ham belgilang; burun bugrisini o'ng tomondan belgilab, shu yerning o'zida chap tomonining ham xarakterini aniqlab turib, o'ng va chap qismini bir vaqtning o'zida tasvirlay boshlaymiz.

Agar talabada ko'z bilan chamalash malakasi rivojlanmagan bo'lsa, u holda dastlab qurishning yordamchi chiziqlaridan foydalaniishi kerak. Masalan, burun prizmasini belgilab olib ko'z osti qopchig'i va burun qanoatlari uchini to'g'ri chiziqlar bilan tutashirish; burunning yuqori chetini belgilab darhol uni boshqa tomondan ham to'g'ri chiziqli bilan belgilashi va bu to'g'ri chiziqli burun asosi chizig'igacha davom ettirish lozim. 28-rasm 1-2 bosqichlar. Burun teshiklarini tasvirlashda teshiklar qalinligini (ayniqsa soyada qolgan pastki yuzani bo'rtirayotganingizda) belgilashni yodingizdan chiqarmang.



28 ras. Burun shaklining 6 ta metodik izchilikda tasvirlanishi

Tus berishda bitta shakldan ikkinchi shaklga o'tishda ehtiyot bo'ling, ularning chegaralarini juda qattiq bo'yab yubormang (ayniqsa qanshar shakldan burun bugrisiga, bugridan bodomlarga o'tish joylarni). Burunning pastki yuzasini ocha borib burun uchi, burun teshiklarining yon chegaralari va burun teshiklarining qalinligi ko'rsatilishi kerak bo'lgan pastki yuzalarga salgina tus berib, yuza chegaralarini ochish zarur. Pastki, yon va oldingi yuzalarga bitta umumiy tus berish noto'g'ri. o'zingizni tekshirib ko'rishingiz uchun

quyidagi usuldan foydalanish mumkin: sizning nazaringizda rasmdagi hamma shakllar yaxshi ifodalangan bo'lsa, rasmini kaftlaringiz yoki bir bo'lak qog'oz bilan bekiting bunda faqat rasmining kichkina bir fragment joyi ochiq qolsin.

Endi shaklning uch o'lchamliligi lozim darajada yorqin ifodalanganmi yoki hammasi bo'yalib ketib, Ushbu shakl rasmi faqat kontur chizig'ida o'z ifodasini topganmi-shuni tekshiring; agar shunday bo'lgan bo'lsa, shaklni modellashni va har bir yuzaning kenglikdagi yo'nalishini aniqlashni davom ettirish kerak.


Tasvir qurish uslubiy bosqichida tushlash qonunlarini to'g'ri hal etishga alohida e'tibor qaratilgan. Rasmi prizma shaklidagi burunni yengilgina tus berib tasvirlashdan boshlaymiz. Burunning oldingi (yoritilgan) va pastki (soyadagi yuzasini yon yuzalardan) (yarim soyadagi) ajratayotganda tus nisbatlari rasm chizilishi tugagunga qadar saqlanib qolishiga e'tibor bering. Ko'pchilik rasm chizuvchilarda burun va yarim soyada joylashgan burun teshiklarining yon yuzalarida xuddi burunning oldingi (yoritilgan) burun uchidagi yorug'lik kuchi qanday bo'lsa shunday kuchga ega bo'lib qoladi. Burun uchida ba'zan shu'la (refleks) paydo bo'ladi va burunning eng kuchli yorug'likdan sustroq bo'ladi.

Shundan keyin yorug'likda ham, soyada ham shaklning plastik xarakteristikasini ochishga kirishish kerak. Reflekslarni yon tomon yuzada joylashgan tusni kuchaytirish yordamida tustang 28-rasm.

Ushbu rasmini bajaryotib nafaqat o'quv materialini o'zlashtirib olishga, balki ifodali rasm chiqarishga, gips materialini qog'ozda aniq aks ettirishga xarakat qiling.

Tasvirning prinsip va uslublarini yaxshi o'zlashtirib olish uchun boshqa hayBoshrdan turli holatlarda bir qator rasmlarni bajarish kerak, bunda albatta burun shakli qurilishining alohida xarakterli xususiyatlarini ochishga harakat qiling.

**KO'Z.** Ko'z shakli qurilishining qonuniyatlari 29-rasmda ko'rsatilgan. Endi ko'z shakli qurilishining asosiy qonuniyatlarini tahlili qilishni davom ettiramiz.




29 rasm. Ko'z shakli qurilishining qonuniyatlari. Qadimgi tasvirdan namuna.

Biz avval aytib o'tganimizdek, ko'z sharsimon shaklga ega bo'ladi va ko'z chuqurligidan to'rtidan bir qismi chiqib turadi. Biz uchun og'il parda bilan qoplangan ko'z olmasining tashqi qismi va rangdor parda bilan qoplangan ko'z qorachig'ining bo'rtib chiqqan qismi, hamda yuqori qovoq shakli xarakteriga ta'sir qiladigan ko'z gavhari muhimdir.

Ko'z olmasini qoplab turgan yuqori qovoqning bukiilishi ko'z qorachig'ining turtib chiqqanligiga bog'liq, ya'ni yuqori qovoqning eng bukiilgan joyi qorachig' joylashgan joy bo'ladi: rasmda u nigoh yo'nalishini ko'rsatadi.

Lekin ko'z shakli plastik xarakteristikasini (tavsifini) ochib berish talaba uchun ancha qiyin. Ma'lum bo'lishicha, ko'zning kata o'lchamlari, qovoq qalinligining keng yuzalari ko'z olmasining kata hajmini ko'rish va uni ifodalashga xalaqit beradi. Yuqorigi va pastki qovoqlarga tus berishda rasm chizuvchilar, kengligi va pastki qovoq yuzasining qalinligiga tus berish farqini ilg'ab ololmaydilar. Natijada rasm uzun-yulduz, ko'z shakli esa ifodasizroq chiqib qoladi.



30 rasmi. David ko'z bo'lagining bosqichi qalamtasviri.


Rasmi namunaning umumiy shaklini (qoshlar va ko'z chuqurchasining turtib chiqqan qismlarini) tasvirlashdan boshlang. Shundan so'ng ko'z olmasining turtib chiqqan qismini belgilab, keyingina uni qovoqlar bilan yoping.

Dastlab sizning namunangiz qutidan iborat bo'lib, u shu quti devorlariga tegib turadi, deb tasavvur qiling. Ustki yuzasi quti qopqog'ining butun yuzasini, pastki yuza esa yarim yuzasini egallaydi.

Binobarin, qosh usti yo'larining pastki chetidan asosigacha biroz og'ma holda qo'yilgan. Kuzatilgan tasavvurni perspektiva bo'yicha aniq olish kerak 30-rasm, birinchi bosqich.

Shundan so'ng qosh ustki yo'ylari va qansharning turtib chiquvchi qismlarining o'lehamlarini shuningdek ko'z olmasining ichkarida joylashgan qismini Ani. Shu yerning o'zida qosh ustki yo'ylari va ko'z kesmalarining chizig'ini belgilab olish kerak. Bu ko'z yoshi qopchig'i va ko'z burchagini to'g'ri belgilashga yordam beradi. Yordamchi chiziqlarga e'tibor bermaydiganlar garcha qovoqlar shaklini to'g'ri ko'chirib chizib olsalarda qovoqlar o'z joyida bo'lmay qoladi, ular perspektivada qo'pol xatolikka yo'l qo'ygan bo'ladi. Yordamchi chiziqlar yordamida tasviri ko'rayotganingizda ko'z olmalarini va qorachig'ini joylashtirishingiz oson bo'ladi, keyin ularni qovoqlar bilan qoplash qiyin emas 30-rasm, 2-bosqich.


Ko'z qorachig'i o'qining yo'nalishini diqqat bilan kuzating. Talabalar odada to'g'ri doira belgilab oladilar va uning ichiga ko'z qorachig'ining «yurakchasini» chizadilar. Qorachig' va qovoqlar og'ma o'q bo'yicha joylashadi. Qorachig'ining yuqori qovog'i va yuqori cheti esa oldinga turtib chiqadi, pastki qovog' va pastki cheti ichiga kirib ketadi. Buni doimo nazarda tutish kerak (ayniqsa tirik naturadan chizayotganda). 30-rasmda ishning so'nggi bosqichi ko'rsatilgan.




31 rasmi. Ko'z shaklining ikki tarafdin ko'rinishi

Ko'z qurilishi xususiyatlarini yaxshi eslab qolish uchun uni turli tomonlardan chizib ko'rish lozim.

Aksariyat rasm chizuvchilar ko'z shaklining plastik xarakteristikasini tushumagan holda ko'z olmasida qovoqlarning perspektiv joylashishini ilg'ab ololmaydilar. Shu o'rinda mo'ljall sifatlarda qovoqlarning perspektivada joylashishi sxemasini taklif etish mumkin. Agar ko'z frontal holatda bo'lsa, u holda qovoqlar romb shaklida joylashadi 31-rasm; agar ko'z to'rtidan uch burilish holatida yoki profilida bo'lsa, u holda qovoqlar uchburchak shaklida joylashadi 31-rasm. Ko'pchilik boshni to'rtidan uch burilishi holatida, ko'zlarni esa o'zlariga qarab chizadilar. Qovoqlarning ko'z olmasida joylashishi perspektiv holatini ko'rsatayotganda yuqori qovoq shaklining ko'z qorachig'ining joylashish holatiga qarab o'zgarishini hisobga olish zarur: odarda soyaga qarab e'tibor beriladigan yuqori qovoqning pastki chetini chizayotganda ehtiyot bo'ling.



32 rasm. Ko'z va qovoqlarning perspektivada joylashish sxemasi




33 rasm. Jonli naturadan ko'zni alhida fragment sifatida tasvirlanishi

Pastki qovoqlarni yengilgina chizing, qalamni qog'ozga qattiq bosmang – pastki qovoq doim yoritilgan bo'ladi. Rasm chizuvchi yuqori va pastki qovoqlarni bir xil tus kuchida chizayotganida hajm va shakl ishonchiligini yo'qotadi (32 rasm).

O'quv materialini mustahkamlash uchun birinchidan, eski qo'llanmalardan olingan yaxshi namunalardan nusxa ko'chirish yaxshi. Masalan, 1844 yili A.Skino o'zining «20 vara qog'ozdagi rasm maktabi» qo'llamasida ko'zning juda yaxshi rasmlarini bergan. Shuningdek, talabalarga qo'z tasvirini mukammal o'zlashtirishlari uchun ko'zning alohida tasvirlash muhim hisoblanadi (33 rasm).

Pukirev va Savrasovlar qo'llamasida berilgan Skining rasmlari ham juda ifodali. Shuningdek, Ulardan rasm chizuvchi o'zi uchun ko'pgina foydali va ibratli tomonlarni topadi. Ikkinchidan, ko'z qurilishi xususiyatlarini o'rganish va eslab qolish uchun ko'z yordamida o'z ko'zingiz misolida qator rasmlar chizish foydalidir, binobarin bunda uni iloji boricha har xil holat va har xil nuqtalardan tasvirlash lozim. Nuqtai nazarni o'zgartirganingizda, ya'ni tomonlarga, yuqoriga, pastga nigoh tashlaganingizda yuqorgi qovoq shaklining holati va o'zgarishini diqqat bilan kuzating.




34 rasm. Labning konstruktiv qurilishi va bosqichlarda tasvirlanishi.

Rasmda ko'zning emosional ifodasini ham berishga harakat qiling (kulib turiganda, vajohat bilan qaralganda va hokazolar) va bunda ko'z qorachig'i o'zgarishini diqqat bilan kuzatib.

**LAB.** Lablar ham odam boshini tasvirlashda kuzatish va o'rganishning doimiy ob'ekti hisoblanadi. Shuning uchun bo'lajak rassom ular shaklining qurilish qonuniyatlarini ham, ularni yuzada tasvirlash qoidalarini ham yaxshilashi kerak (34 rasml).

O'q chizig'i (profil)ga nisbatan yuqori va pastki lablarning hamma qismlari simmetrik joylashgan bo'ladi. Shuning uchun ular bir yo'la tasvirlanishi kerak: yuqori lab ustidagi maydoncha yuqori lab bantig'i, chuqurchalar lab burchaklari, pastki labning ikkita yarmining va dahanga tushib turgan pastki lab massasi.




35 rasml. Labning turli holatlardan tasvirlanishi.

Tasvir qurishning bu sxemasidan foydalanib, ko'pchilik berilib ketgan hamda bu sxemani qalamni qog'ozga bosgan holda qalin chiziq bilan chizadilar. Lablar bantigini yengilgina.

qalamni qog'ozga bozgina tekshirib belgilash kerak. Chunki naturada Ushbu chiziqlar o'rinda yorug'lik joylashgan, binobarin, lablar cheiti uning eng shishib turgan qismi hisoblanadi. 35-rasmda lablarning turli holatlardan tasvirlanishi keltirilgan. Boshlovchi rassom buni amaliyotida tushunib, ilg'ab olishni faqat Dovud

lablarning gips nusxasini chizishda bilinadi, bunda shakl plastikasi yaqqol «o'qiladi».


Lablarning shakli va ularning joylashishi tishlarning shakli, katakichlikligiga ko'p jihatdan bog'liq. Agar tishlar bir-biriga bir tekis tegib tursa, lablar ham shunday joylashadi, yuqori va pastki lablar kengligi esa deyarli to'g'ri bo'ladi. Agar pastki jag' tishlar oldinga turtib chiqqan bo'lsa. Pastki lab ham oldinga chiqibroq turadi, lablar kengligi esa quyidagicha o'zgaradi: yuqori lab pastroq (ingichkarroq), pastki lab esa shishgan va qalin bo'ladi. Agar pastki jag' tishlari yuqorigi jag' tishlari tagiga kirib ketse, u holda yuqorigi lab oldinga turtib chiqadi, pastki lab esa orgaga tortiladi. 36-rasmda (M. Gerasimov bo'yicha) tishlarning asosiy turlari va lablarning bir-biriga tegish shakli ko'rsatilgan.



36 rasml. Inson yoshining o'tishi bilan tishlarning o'zgarib ko'rinishi va lablarning bir-biriga tegish holati

Tishlarning bir tekis tishlamasi va lablarning tegishli shakli ko'pchilik kishilarga xosdir. Shuning uchun David lablarining gyps namunasida diqqat bilan tahlili qilish mumkin.

Lab shakllariga tus berishda yorug'likdan yarim soyalikka va yarim soyadan soyaga sekin-asta o'tishga xarakat qiling. Shakllar yuzalarini buzib yuboradigan qo'pol chizgilar qilmang. Chiziq shakl bo'ylab tushishi kerak. Shakl yuzasi o'nga burilsa chizgi (shtrix) ham o'nga buriladi, yuza chapga ketsa chizgi ham chapga buriladi. Chunki tomoshabin rasmdagi chizgilar yo'nalishini kuzatadi, ular unga shakl plastikasini o'qishga, uqib olishga yordam beradi.




37 ras. Labning ikki bosqichda tasvirlanishi.

Lablarni chizayotganingizda lab burchaklari oldidagi burun-lab shakli plastikasini diqqat bilan kuzatib boring. Lablarning yuqorigi va pastki yuzalari burchaklarga yaqinlashishiga qarab ichkariga tortiladi, yonoqlarning turtib chiqqan qismi esa (burun-lab tahlamasi) xudi ularga yopib turgandek bo'ladi. Ko'pchilik talabalarda, aksincha, lab strekalari oldinga chiqib ketadi, ular naqshga yo'ylanib qoladi, shuning uchun yuzning butun pastki qism plastikasi buziladi. Reflekslarni ehtiyotkorlik bilan bajaring. Talabalar odatda reflekslarni juda yorqinlashtirib yuboradilar. Buning oaki parchalana boshlaydi va uning yaxitligi yo'qoladi. Refleks kuchini tekshirib ko'rish uchun quyidagi usuldan foydalaning: naturaga qarab, refleksni ko'rib turib ko'zlaringizni biroz yuning – agar refleks yo'qola borsa, u rasmda ham yo'qolishi kerak. Agar refleks juda yorqin bo'lsa, uni biroz

tuslash (pasaytirish) kerak. Rasmda shakl yaxitligini ko'rish uchun ko'proq uni o'zingizdan uzoqlashtiring.

O'quv materialini o'zlashtira borib, bir yo'la chizayotgan rasmingiz ifodali chizayotganligini ham kuzating. Ana shu maqsadda klassik qo'llanma namunalaridan nusxa ko'chirib, u yerda nafaqat shakl, balki materiallik ham yaxshi berilgan. Nusxa ko'chirish qalamni boshqarish, grafika vositalari ifodaliligini ko'rishga yordam beradi. Shuningdek, tirik naturadan ham labni alohida fragment tarzda bosqichli tasvirlashda talabning keyingi bosh shaklini o'ziga qarab tus va shakl ifodasini ochishga ko'maklashadi (38 ras. ras. ras.).



38 ras. Jonli naturadan labni alohida fragment tarzda bosqichli tasvirlash

Lablar shakli qurilishi qonuniyatlarini yaxshiroq o'zlashtirib olish uchun tirik naturadan bir qator rasmlar chizish zarur (bunda natura sifatida ko'zgu oldidagi o'z qiyofangiz ham ish beradi). O'zingizni ko'zgu yordamida chizayotganingizda rasmda nafaqat lablarning plastik xarakteristikasini, balki o'zingizning hayajonli (emotsional) holatingizni ham ifodalashga harakat qiling. Lablar juda ifodali bo'ladi, inson o'z lablari bilan ruhiy holatini ham namoyon eta oladi. Kishi yaxshi, sho'x kayfiyatda lab burchaklarini ko'taradi (ya'ni kuladi); ma'yus yoki yig'layotgan paytida u aksincha, lab burchaklarini tushirib yuboradi. Siz o'z lablaringizni turli emotsional holatlarda yoritib, yuqori va pastki lablarning chetki shakllarining xarakteri qanday o'zgarayotganligini, lablarning tutashishi chizig'i rasmi qanday bo'lishligini kuzating. Insonning turli ruhiy holatlarida lablar tasviri turlicha bo'ladi (lablar ko'rinishiga alohida e'tibor bering).

Lablar shaklining ifodaliligi va xarakteri shuningdek lablarning qalinligiga ham bog'liq. Portret xarakteristikasini ochishda bunga diqqat bilan e'tibor berish kerak. Bir kishining lablari ingichka (yupqa), qattiq, cho'zilgan (cho'chaygan) bo'ladi. Bunday lablar qat'iy xarakterga (te'lga) ega kishilarga xosdir; boshqa kishining lablari qalin va yumshoq xarakterga ega bo'ladi.

**QULOQ.** Odamning qulog'i, garchi har turli kishilarda uning shakli turlicha bo'lsa-da, doimo bitta strukturaga egadir. Quloq tasvirini qurishda quloq suprasining bu hamma qismlari rassom nazarida bo'lishi kerak. Klassik qo'llanmalarda quloq rasmini chizish qoidalariga jiddiy ahamiyat berilgan. Jadvallarda mualliflar quloq shaklining qonuniyatlari va tasvir qurish uslubiyotini ko'rgazmali tarzda ko'rsatishga harakat qilganlar 39-rasm.




39-rasm. Quloq suprasining tuzilishi. Qadimgi jadvallardan namuna.

Dovud qulog'ining gips namunasi rasm chizuvchi uchun yaxshi qo'llanma hisoblanadi, unda shakl strukturasi va plastik xarakteristikasi yorqin ifoda etilgan. Shuning uchun ham ana shu namunani o'rganish va undan rasm chizishni boshlash kerak.


Rasm chizishni har galdagidek umumiy shaklni ochishdan boshlaymiz, shundan so'ng quloqning tarkibiy qismlarini joylashtirish va shakl xarakteriga aniqlik kiritishga o'tamiz. Agar shakl to'g'ri belgilangan bo'lsa, endi unga tus berishga o'tish mumkin.

Quloq rasmini chizayotganda, yoritilish, shaklning alohida joylarining tus berilish nisbatlariga o'tishga alohida e'tibor berish lozim. Ko'pchilik odatda, quloq supراسi ichidagi shakl harakatlarini namoyon etmaydi, gajama va qarshi gajama konfiguratsiyasining chiziqli rasminiga ko'proq ahamiyat beradi, tus berish vazifasi esa hal qilinmay qoladi. Natijada rasm parchalanib, uzog-yulug bo'yib qoladi.



40 rasn. Dovud qulog'i gips namunasining qalamtasviri

Quloq suprasining qurilish xususiyatlarini yaxshi o'rganib olish uchun, quloq rasmini har xil tomon va vaziyatlarda chizib ko'rish lozim 20-rasn. Quloq suprasining chudan to'rt burtilishidagi ko'pincha uchraydigan holatiga alohida e'tibor berish kerak. Bu o'rinda eng avvalo quloq suprase tasvirlirning asosini tashkil etadigan kenglikda ellips ko'rinishidagi yo'nalishini to'g'ri belgilab olish zarur. Shundan so'ng gajama qalinligi va uning suprase ichiga kirib borishidagi o'zgarishini aniqlash lozim. Quloqning bukri va yumshoq joyini tasvirlash ham xuddi shunday. Ko'pchilik ularni frontal holatda chizadilar, shuning uchun ham quloq suprase buzilgan holda chiqadi.



41 rasn. Jonli naturadan qulog'ini tasvirlash

Har xil odamlarda quloqlar shakli qurilishining xarakterli xususiyatlarini ilg'ab olishni o'rganish kerak, buning uchun quyidagilarga e'tibor berish kerak: birinchidan muntazam ravishda chizgilar va xomaki lavhalar chizish; ikkinchidan, har xil odamlarda (metro, avtobuslarda) quloqlar shakli xarakterini diqqat bilan kuzatish va yumshoq joyi, gajama buklarining shakli qandayligiga e'tibor qaratish, umuman quloq qanday joylashganligiga qiziqish (shalpang quloq, yopishganquloq va hokazolar) (41 rasn).

Bosh detallarining (burun, ko'zlar, quloq va lablar) tasvirlarining xususiyat va qonuniyatlarini o'rganishda gips namunalari chizish bilan bir qatorda tirik namunadan bosh detallari bo'laklarini rasmini chizish juda foydalidir. Binobarin, tirik naturadan va gips namunadan bosh detallarini chizayotganda rasmda asosiy qonuniyatlardan qanday uyq'unlashayotganligini kuzatish. Masalan, ko'z rasmini chizar ekanniz, yuqori qovoqlar ko'z olmasini qanday qoplaganligi, qovoq qalinligi ko'zning perspektivadagi holatiga qarab qanday o'zgarayotganligiga e'tibor berish. Lablar rasmini chizayotganingizda labning tashqi cheti haqiqatdan ham biz gips namunasida ko'rganimizdek, oldinga turtib chiqqanligini tekshirish.

Ta'limning ushbu bosqichida yaxshi namunalardan nusxa ko'chirish foydalidir, chunki bunda shakl qurilishi qonuniyatlarini yana bir bor ko'rish, shuningdek uning materiallik xususiyatlarini ham ochib berishni o'rganish mumkin. Masalan, A.Skino o'z

rasmalarda yuz terisa va sochlar fakturasini yaxshi ochib bergan 36-rasm. Bosh detallarini o'rganishda naturani va qisqa xomaki rasmlar va chizgilarni davomli tahlil qilishni qo'shib olib borish zarur. Chizgilar shakl qurilishi bilan bog'liq o'quv-tahliliy xarakterda va insonning emosional holatini ochish xarakterida ham bo'lishi mumkin. Chizgilarning oxirgi ko'rinishini ko'zgu yordamida o'zingizni chizib ham bajarish mumkin. Bu o'rinda butun bir fragmentlarni ham (burun, lablar, dahan, peshona, ko'zlar, lablar) tasvirlash mumkin. Klassik qo'llanmalarda boshning alohida detallarini chizib bo'lgandan so'ng ularning o'zaro bog'liqligini (burun, lablar, dahan; quloqni boshning unga tutashgan qismlari bilan) chizish taklif etilgan. Bunday chizib, detallarning o'zaro bog'lanishi kuzatish, ularning umumiyligini anglashga yordam beradi. Keyingi bob yorqin portret xarakteristikasiga ega bo'lgan bosh rasmini chizish xususiyatlariga bag'ishlangan.

#### 1.4. Gips bosh rasmini chizish

Inson boshi chizish uchun murakkab va qiziqarli jarayon bo'lib, u bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisiga turli shakllarni o'rganishga imkon beradi. Jonli modeldan chizishni boshlashdan avval, aniq shaklga ega bo'lgan gipsli antik boshlardan tasvirlar bajarish kerak (Apollon, Ekorsh, Antinoy, Sokrat, Laokon, Afrodita, Gattamelata, David va boshqalar).

Bunday o'quv mashg'ulotlarining maqsadi - gipsdan ishlangan antik davr boshlarining tuzilish nisbatlarini o'rganish, tasvirlash malakalarni takomillashtirish, inson boshining nisbatlarini o'rganish, turi burilish va egilish holatlari hamda rakturslardagi portret xarakterini aniqlash va perspektiv qisqarishlarini izlab topishdan iborat.

Mashg'ulotni quyidagi tarzda olib borish maqsadga muvofiq:

1. Ishni gips planshetga joylashtirishdan boshlash kerak.
2. Chiziqli tasvirlash usullar bilan bosh shaklining xarakterli xususiyatlarini aniqlash, ufq chizig'ini va bosh shaklidagi yuzalarni perspektiv qisqartirishlarini hisobga olgan holda konstruktiv qurish.
3. Bosh yuzasiga tushuvchi yorug'likni hisobga olgan holda tasvirni tus munosabatlarini ishlab chiqish va shaklning fazoviy

holatini aniqlash, perspektiva qoidalariga rioya qilish, bo'laklarni bir butun yaxlitlikka bo'yisundirish, umumlashtirish va yakunlash.

Gips bosh tasvirini qurishning asosiy tamoyillari, qoidalari va qonunlarini o'zlashtirish tasvir ustida ishlashning ustiboy ketma-ketligini kuzatishda konstruktiv shaklni tahlil qilishdan boshlanadi. Antik davr gips boshini tasvirlash talaba uchun qimmatli mahorat maktabi bo'lib, u endigina tasvirlashni boshlovchi rassomga tirik boshning murakkab ob'ekti qurilishini tushunishga yordam beradi.

Gips boshning harakatsiz tarzda turishi va uning yuz muskullari va to'qimalari bir hil bo'lib, talabning tasvirlash jarayonida shakl tuzilishi, hajm xususiyatlarini anglab yetishda yordam beradi. Shuningdek, bunday mashg'ulotlar inson bosh shakli anatomik tuzilishini o'rganish, shakllarni yorug' va soyalarning tushishiga qarab modellashirish, inson boshining murakkab shaklini bosqichma-bosqich tasvirlashni o'rganishga yordam beradi va estetik didni tarbiyalaydi.

Gips bosh namunasini buyum tekisligiga o'rnatish va uni yuqoridan yengil burchak yoritish muhim jarayon bo'lib, yorug'lik tushgan bosh yuzasida soyalar harakatsiz bo'ladi, yarim tushlar aniq ajralib turadi, tushuvchi va shaxsiy soyalar, reflekslar ko'rinish turadi. Bosh aniq ko'rinishi uchun uni ufq balandligidan biroz yuqoriroqqa qo'yish kerak.

Shunda talabalar shakli go'zalligini, badiiy qiymatini his qiladilar, tasvirni mukammal tarzda tasvirlashga erishadilar. Mashqni bajarishda tasviriy san'atning oltin qoidasi bo'lgan oddiydan murakkabga prinsipiga muvofiq ish yuritish maqsadga muvofiqdir. Dastlab, gips bosh modelni chizishdan avval uni batatsil sinchiklab tahlil qilish kerak. Inson bosh shaklining tuzilishi murakkab bo'lishiga qaramay, bu oddiy geometrik jismlar to'plamlardan boshqa narsa emas. Shuning uchun uning tuzilishi barcha ob'ektlar uchun bir xil bo'lgan anatomik, konstruktivlik tuzilishiga asoslangan bo'lib, uning bo'laklari murakkab plastik tuzilishdan iborat.

Tasvirlashda ishini ketma-ketligiga qat'iy rioya qilish kerak, chunki uning buzilishi o'quv materialini o'zlashtirishni sekinlashtiradi. Tasvir ustidagi ishlarning alohida bosqichlarini o'tkazib bo'lmaydi; masalan, hajmning asosiy katta shakllarini topmaslik, bo'laklarni chizishga o'tishda qiyinchilikka olib keladi, shaklning

bo'laklarini tushumaslik, yorug'-soya munosabatlarini ishlab chiqishga halqiti beradi.


Tasvir ustida ishlash bir necha bosqichlardan iborat bo'lib, ular bir-biridan ajratilmasligi kerak va bir-birini to'ldirishi lozim. Bosh shaklini qurishning asosiy qoidalar va qonunlarini o'zlashtirish eskizlar bajarishdan, shaklning konstruktiv asosini tahlil qilishdan boshlanadi.

Birinchi mashg'ulotda talaba uchta yoki to'rtta burilishda bir varaqda gips boshning eskizlarini tasvirlashgiz kerak. Tegishli nuqtai nazarni va ufq balandligini to'g'ri topib, 25-30 daqiqada bir nuqtai nazardan boshqasiga o'tib, navbatma-navbat bosh shaklini chizishi kerak. Shakllarning qisqarishi va boshning konstruktiv asoslari topish, uning egilish holatini qunt bilan va mohirlik darajada ifodalash kerak.

**Birinchi bosqichda** bosh shaklini qog'ozga joylashtirishdan boshlanadi. Buning uchun umumiy xususiyatini va o'lchamini, varaqda nisbatlarini (balandligi, kengligi) topish kerak. Bosh to'rtidan uch holatda joylashtirilganda, old tomondan varaqda ko'proq bo'sh joy goldirilishi kerak. Old tomondan tasvirlanganda, bosh qog'oz yuzasining o'rtasiga kompozitsion joylashtiriladi.

Tasvirni boshlashdan avval, joyni to'g'ri tanlash juda muhim hisoblanadi. Bunda ufq chizig'ining o'tgan joyi, tasvirovchi va naturagacha bo'lgan masofaning shakldan juda uzoqda yoki, juda yaqin bo'lmasiligi kerak. Boshni shunday joylashtirish kerakki, uning ufq chizig'i chizuvchining ko'z balandlik darajasiga to'g'ri kelsin.

Naturaga har tomondan e'tibor berib qarash kerak, buning uchun burun ko'prigini va iyakning o'rtasini to'g'ri chiziq bilan hayoliy ravishda bog'lash va bu chiziq qanday burchak hosil bo'lishini tasavvur qilish kerak. Burchakni to'g'ri aniqlab, boshning egilishi osongina aniqlanadi. Davomli shaklda ishini boshlashdan oldin, boshning anatomik xususiyatlariga e'tibor berib, boshning ko'rinishi, shakli va uning nisbatlarini aniqlab, katta asosiy ish bajariladigan qog'oz sathining chekkalarida bosh shakldan qisqa muddatli qalamchizlar shaklida bir nechta mashqlarni bajarish kerak. Qisqa muddatli chizma boshning umumiy massasini ko'rish imkonini beradi. Shuningdek, naturaning mayda bo'laklariga e'tibor bermasdan bosh shaklini chizishni boshlashda kerakli material bo'lib hisoblanadi.



41 rasm. Birinchi bosqich.

Tasvir qog'oz sirtida "muallaq osilib qolmasligi" kerak, agar siz profilida bosh rasmini tasvirlasangiz, varaqning chekkalari boshning orqa tomoniga qaraganda yuz qismini tarafdin joy kengroq bo'lishi kerak. Ish jarayonida biz shakl perspektivasini unutmasligimiz kerak, buning uchun ufq chizig'ini aniqlashni bilish kerak. Endi bo'yin shaklini belgilaymiz, uning kengligi va uzunligini boshning kattaligi bilan bog'laymiz. Burun chizig'i yuqori labning o'rtasiga o'tadigan joyda yuzning uzunligi bo'ylab, ko'zlar orasida joylashgan burun ko'prigi orqali va burun tagidan to'g'ri chiziq torting.

Quloqning tagidan boshqa ikkinchi quloqqa to'g'ri burchak ostida yana bir chiziq torting. Shundan so'ng, ko'zlar, og'iz va iyakning holatini o'lichash kerak, bu chiziqlar quloqdan quloqqa chizilgan chiziqqa parallel ravishda bo'ladi, u yuzning markazidan o'tuvchi vertikal chiziqni to'g'ri burchak ostida kesib o'tadi.

**Ikkinchi bosqichda**, bosh shaklining ko'rinishini, uning nisbatlarini va joylashishini aniqlash kerak bo'ladi. Buning uchun yuzning asosiy qismlarining o'lchamlarini belgilash lozim. Qosh o'rtasidan burun tagiga, burun tagidan iyakning pastki qismiga chiziq tortiladi. Boshni old tomondan to'rtidan uch holatda joylashtirganda, varaqda ko'proq joy qoladi. Bosh shaklining suyaklariga alohida e'tibor berilishi kerak, uning tuzilishini oldindan o'rganib chiqib, old yuzasini boshning orqa qismiga boradigan sirtlardan ajratib turadi. To'g'ri tasvir uchun siz boshning shakli, ayniqsa bosh suyagi bo'yicha mos yozuvlar nuqtalarini bilishingiz va ulardan foydalana olishingiz kerak.

Uzoq chizishga o'tishdan oldin, taklif qilingan bosh rasmini tasavvur qilish uchun tabiatdan qisqa muddatli chizmalar shaklida, katta varaqning chekkalarida bir nechta mashqlarni bajarish kerak. Buning uchun siz quyidagilarga e'tibor berishingiz kerak: shakl tuzilishining anatomik xususiyatlari, nisbatlar, perspektivani belgilash kerak. Chizma boshning umumiy shakli va massasini aniqlashdan boshlanishi kerak. Qisqa muddatli chizilgan rasmini tugatgandan so'ng va o'qituvchi tomonidan oldindan ko'rilgandan so'ng, agar xatolar bo'lsa, ularni darhol tuzatish kerak va shundan keyingina boshni berilgan formatda chizishni boshlash kerak. Vaqti-vaqti bilan siz rasmining borishini tekshirishingiz kerak, o'rindiqdan turib, masofaga uzoqlashishingiz kerak. Agar xatolar aniqlansa, darhol to'g'rilash kerak. Tasvirda qalam qog'ozga yengil va asagina tegib, juda yengil tasvirlangan bo'lishi kerak, bu elastik tasmani kamroq ishlatishga va tuzatishlar va tushuntirishlar qilishga imkon beradi.




42 rasn. Ikkinchi bosqich

**Uchinchi bosqichda**: bosh shaklining hajmi va konstruktiv qurilishi.

Inson bosh shaklini qurishning chiziqli-konstruktiv sxemasi nemis Uyg'onish davri rassomi A. Dyurening rasminida juda aniq ko'rsatib o'tilgan. Bu yerda siz nafaqat tarkibiy tuzilishning umumiy qonuniyatlarini, balki boshning qismlarga, anatomik tuzilishga mutanosib bo'linish qonuniyatlarini ham ko'rishingiz mumkin.

Asosiy strukturaviy chiziqlar boshning shaklini teng mutanosib qismlarga ajratadi. Soch chizig'idan, qosh kamar chizig'igacha, qosh kamar chizig'idan, burun tagiga, burun tagidan iyakning pastki chetiga

qadar. Peshona chizig'i peshonaning eng yuqori nuqtasidan o'tadi. Buning uchun siz boshning shakllari kosmosda yuzalar bilan cheklanganligiga e'tibor berishingiz kerak.



43 rasm. Uchinchi bosqich

### Bosh nisbatlari

Agar yuzning iyagidan burun tagigacha bo'lgan pastki qismi uchta teng qismga bo'linsa, u holda yuqori qismi burun tagidan og'izning kesma chizig'igacha bo'lgan masofaga teng bo'ladi. Ko'zlar orasidagi masofa ko'zning kengligiga teng. Quloqning balandligi burun uzunligiga teng, ular qosh kamarlari chiziqlari orasida joylashgan.

Harba konstruktiv chiziqlar - qosh kamarlari chizig'i, burun asosi, iyak, ko'z bo'limi, og'iz - bir-biriga parallel holatda bo'ladi.

Ko'z chiziqlaridan keyin burunning asosi, og'iz bo'shlig'idan o'tuvchi chizig'i, iyak uchining asosi tasvirlanadi. Keyin boshning umumiy shaklini va uning tafsilotlarini mutanosib istiqbolli kesmalarga muvofiq tekshiring. Keyin bo'yining umumiy shaklini aniqlashga o'ting, u 40 daraja burchak ostida joylashgan ikkita parallel asosi silindrsimon shaklga ega.

Ko'zlarning joylashishini aniqlagandan so'ng, ko'z yoshlari, tashqi va ichki burchaklar orasidagi masofani, so'ngira ko'z qovoqlari orasidagi masofani to'g'ri aniqlash kerak. Burunni joylashtirish va uning nisbatlarini aniqlash uchun og'iz bo'shlig'ining joylashgan bo'lsa, unda old tekislik aniq ko'rinadi va yon tomonlar perspektiv qisqartirishda bo'ladi.

Uchdan bir qism burilish bilan burun prizmasining ko'rinadigan tekisligi aniq ko'rinadi va qolgan tekisliklar istiqbolli qisqartirishda bo'ladi. Og'iz shaklini joylashtirish uchun og'iz bo'shlig'ining ko'ndalang uzunligini, yuqori va pastki lablarning qalinligini aniqlash kerak, og'iz chizig'ining shaklini belgilash kerak va uning nosimmetrik joylashishini kuzatish kerak.

Boshning to'rtidan uch qismi bilan perspektiv qisqartirishni hisobga olish kerak. U orqali profilning birlashtiruvchi shakli chiziadi, u jag'ning pastki chetidan, bo'yin bilan chegarani tashkil etuvchi pastki jag' ostidagi o'rta maydon bo'ylab o'tadi. Pastki jag' ostida uchta tekislik bor: biri iyak uchining (chetidan) halqumgacha o'tadigan o'rta to'g'ri chiziq va uning yon tomonlarida ikkita uchburchak joylashgan.

Jag'ning shakli oltita asosiy tekislik bilan hosil bo'ladi.

Plastik nuqtai nazardan o'simtlar boshning shakllanishida muhim rol o'ynaydi va qurilish paytida mos yozuvlar nuqtasi bo'lib xizmat qiladi.

Quloqlar suyak sohasida boshning yon tomonida joylashgan.

**To'rtinchi bosqichda:** shaklini modellashirish. Ushbu bosqichda talaba anatomiya va perspektiva bo'yicha o'z bilimlarini mustahkamlab, boshning plastik shaklini tushunishni o'rganadilar. Buning uchun anatomidan bosh shaklining rasm-jadvallarga tez-tez murojaat qilish kerak. Inson boshining shakllarini chuqurroq o'rganish, tekshirish suyaklar va mushaklarning joylashishi davomida talabalar anatomik jadval bo'yicha suyaklar va muskullarning holatini

tekshirishlari kerak. Shuningdek, umumiydan xususiyga o'tish va tafsilotlarni tekshirishlari lozim.

Ishning ushbu bosqichida siz shaklni modeldashirishga o'tishingiz va asta-sekin boshning "katta shakl" ini bo'laklari bilan uyg'unlashtirish kerak. Shaklni batafsil o'rganishni boshlashda siz rasmning bir qismidan ikkinchisiga o'tishingiz shart emas, siz bir shaklni boshqasi bilan qanday bog'lashni o'rganishingiz kerak. Ularning bir-biriga qanday mos kelishini doimo tekshiring. Misol uchun, burunni chizishda uning qanoatlari, suyaklari, quloqlar, lablar burchaklariga nisbatan qanday joylashishini kuzating.



44 rasm. To'rinchi bosqich.

Bosh shakli tuzilishining chiziqli-konstruktiv tasvirini bajarish borasida beriladigan maxsus topshiriqlar talabalarga o'quv materialini yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi, ularni rasm chizish paytida doimiy ravishda fikrlash va mulohaza yuritishga o'rgatadi, yorug'-soya nuqtasonlarini ko'r-ko'rona tarzda, passiv ko'chirishdan qaytaradi. Chunki bunday mashqlar yordamida rasm chizuvchi shakl tuzilishi doimiylicha qolishini tushuna boradi.

Bosh shakli tuzilishi qonuniyatlarini to'liq va har tomonlama o'rganish uchun talaba bunday topshiriqlarni nafaqat naturadan, balki ko'tiradan, tasavvurdan bajarishi zarur. U amaliyotda bunday mashqlar zarurligiga ishonch hosil qilishi, shaxsiy tajribasida realistlik rasm san'atini egallashda ular qay darajada yordam berayotganligini his qilishi kerak. Bunday mashqlar talabaning nafaqat anatomik bilimlari borasidagi qobiliyatlarini rivojlantiradi, balki his-hayajon bilan yondashishdek ijodiy qobiliyatini shakllantirishga ham qaratilgandir.

Bosh shaklining chiziqli konstruktiv tasvirini bajarishda olib boradigan mashqlarning asosiy vazifasi quyidagilardan iborat:

1. Talabalarda naturaga bo'lgan qiziqishni yuksak darajada rivojlantirish.
2. Tasvir qurishda uslubiy bosqichlikda ishlashga o'rgatish.
3. Tasvir qurishning to'g'ri va ifodaliligi riyoga qilishga o'rgatish.
4. Realistik rasm chizishda ijodiy jarayonning mohiyatini tushuntirish.
5. Naturani yuksak his-hayojon bilan tasvirlash.
6. Mashqlar bajarishda samaradorlikni oshirish orqali muvaffaqiyatlikni o'qitish.

Chiziqli – konstruktiv rasm ishonchli va yaxshi qurilgan tarzda chiqishi uchun boshning har xil kenglik holatidagi konstruktiv sxemasi tasvirining qator xususiyatlarini ham rassom yaxshi egallab olishi kerak. Bosh shakli konstruktiv tuzilishining tasvirlash jarayoni ma'lum qonuniyatlarga rioya qilishni talab etadi. O'rgan asrlar rassomlari bu narsaga katta e'tibor berganlar. Masalan, Goltbeyn o'z qalamchizgiilarida boshning fazodagi holatiga qarab, uni tasvirlashda hisobga olishni va perspektiva qoidalariga, sxematik qonunlarga e'tiborni qaratadi.

1. Agar bosh bizning ko'zimiz bilan bir xil tekislikda to'rtsa konstruktiv chiziqlar to'g'ri bo'ladi;
2. Agar bosh bizning ko'zimizdan pastroqda bo'lsa, konstruktiv-gorizontal chiziqlar egilgan bo'ladi va pastga qaratilgan bo'ladi;
3. Agar bosh bizning ko'zimizdan pastroqda bo'lsa, bu konstruktiv chiziqlar tepaga qaragan bo'ladi.

## II BOB. ODOMNING PLASTIK ANATOMIYASI

Tasviriy san'atni plastik anatomiyasiz tasavvur qilish qiyin. Malakali rassomlar qalamtasvir, rangtasvir, grafika va haykaltaroshlik san'atida inson qomatini va hayvonlar tasvirlarini haqqoniy bajarishda, uni jonli tarzda shakllantirishda plastik anatomiyaga oid ma'lumotlarini mukammal bilishlari lozim. Rassom odam yoki hayvon qiyofasini tasvirlar ekan, uning tuzilishini, anatomiyasini bilimg'i kerakligini uqtiradi. Qadimgi usta assomlar odam sur'atini chizishda, undagi suyaklar, paylar, muskullar va terisiga e'tibor berilishini ta'kidlaydilar. Darsliklarda odam va hayvonlarning anatomik tuzilishi: suyaklar, bo'g'imlar, boylamlar, muskullar va ichki a'zolar to'g'risidagi ma'lumotlar to'la yoritilgan, lekin inson tanasining xilma-xil harakatlari jarayonida (o'tirganida, turganida, yurguriganida) skelet-muscul qismlarining fazoda o'zaro qanday munosabatda bo'lishi, umumlashtirilgan muskul massivlarining hosil bo'lishi natijasida shaklni o'zgarishi plastik anatomiyani o'rganishiga undaydi.

Plastik anatomiya fani odam tanasining umumiy anatomik tayanish-harakat tizimidagi suyak va muskullarning tuzilishi, shakli, ularning birikishi, bo'g'im turlari va ularidagi harakatlarning ma'lumotlaridan tashqari, odamning dinamik va statik holati, tashqi fazo, bo'shliqda tana og'irligi muvozanat saqlash, hamda tana turli qismlarining nisbatlarini o'rgatadi. Gavdaning holati o'zgarganida suyak va muskullar holatining odam qiyofasiga ta'sirini "Plastik anatomiya" ma'lumotlari asosida tasvirlar shaklini chizma namoyon qiladi. Katta suyakni tuzilishi, shakli va undagi muskullar, ayniqsa, minika muskullari guruh, hamda yuz qismidagi bo'laklar (burun, ko'z, quloq, og'iz) tuzilishining o'ziga xosligi inson qiyofasini shakllantirishda Plastik anatomiyasining tahlili alohida o'rin tutishi bayon etiladi.

Qalamtasvir, rangtasvir fanlarida anatomiyadan olingan bilimlarga tayangan holda, rassom inson qomatining rasmini chizishda modeldan nusxa ko'chirmasdan tasvirni jonli, jozibali qilib yaratishi lozim. Bunda tananing tashqi va ichki tuzilishini va harakatlanish mexanizmlarini tasavvur qilishi kerak. Shunda rassom naturani undan ko'rkona nusxa ko'chirmay tasvirlash imkoniga ega bo'ladi va kompozitsiya yaratish imkoniga ega bo'ladi.

Hozirgi anatomiya fani faqat a'zolarining tuzilishini o'rganish bilan chegaralanib qolmay, ularning shakllarini (ko'rinishlarini) ichki va tashqi muhiga bog'langan holda o'rganadi, butun organizmga yagona bir tizim deb qaraydi.

Anatomiya hamma a'zolarining shaklini, tashqi ko'rinishini, tuzilishini, ularning bajaradigan vazifalariga bog'langan holda o'rganadi (funktsional anatomiya), chunki ularning tuzilishi vazifalari bilan bevosita bog'lidir. Murakkab tuzilgan odam organizmini o'rganishni osonlashtirish masadida undagi a'zolari alohida-alohida tizimlarga ajratiladi.

A'zolari izchillik bilan o'rganishdan tashqari ularning joylashish tartibi, proyeksiyalari va o'zaro munosabatiga, ular o'rtasidagi bo'shliklar, fassiyalarga ham katta ahamiyat beriladi, chunki busiz xirurgiyani tasavvur qilib bo'lmaydi. Anatomiyaning ana shunday bo'limi xirurgik anatomiya yoki topografik anatomiya deb ataladi. Rassomlar va haykaltaroshlar ham organizmning ayrim qismlarining o'zaro munosabatlarini, ularning tashqi tuzilishlarini (rassomlar anatomiyasi yoki plastik anatomiya) o'rganadilar.

Anatomiya fani organlarning faqat normal tuzilishini o'rganish bilan cheklanib kolmasdan, balki ularning kasallik vaqtidagi o'zgarishlarini ham (patologik anatomiya) o'rganadi.

Plastik anatomiya gavdaning tashqi kiyofasini koplav turgan organlarning (suyak, bo'g'im, pay, muskullarni), hamda boshning ayrim qismlari (yuz, burun, ko'z, quloqlarni) tuzilishini va shaklining o'ziga hosligini, tanani tashqi fazo bo'shlik maydonida og'irlik muvozanatini saqlash va markazga tortilish kuchi qonuniyatlari asosida, surat, rasn, grafik tasvirlash usullaridan foydalaniladi. Bunda anatomik ma'lumotlarga tayaniadi va hajm shakllar yaratish san'ati uslubini qo'llaniladi.

## II.1. Bosh skeleti va uning plastikasi.

**Bosh skeleti** miya va yuz bo'limidan iborat. Miya bo'limiga (8 ta suyak) peshona, ensa, tepa, g'alvirsimon, ponasimon chakka suyaklari kiradi. Kallani yuz bo'limiga (15 ta suyak) yuqori va pastki jag', tanglay, yonoq, burun, ko'z yoshi, dimok va til osti suyaklari kiradi. Kalla qopqog'i zich moddadan tuzilgan tashqi plastinkasi va ichki

shishasimon plastinkasi bo'lib, ular orasida yupka g'ovak modda joylashgan.

**Kallaning miya bo'limidagi suyaklari:** Peshona suyagi toq suyak bo'lib, kalla qopqog'ining oldingi qismini tashkil etadi. Bolalarda 6 yoshgacha peshona suyagi ikki palladan so'ngra tishsimon choklar yordamida bitib toq suyakni hosil qiladi. Peshona suyagi vertikal joylashgan palla qismi va gorizontal bo'laki bor. Gorizontal bo'lakda 1 juft ko'z kosasi va uni usidagi teshigi, 1 juft qosh usi ravog'i va burun bo'laki qismidan iborat. Peshona suyagi tashqi tomonga bo'rtib chiqqan plastinkadan iborat, unda qabariq va botiq yuzalari mavjud. Suyakda 1-juft peshona do'mbog'i uning o'rtasida chuqurcha bor. Lateral tomonida peshona o'sig'i yonoq suyagi bilan birlashadi. Pallani ichki yuzasida egatcha va toq peshona qirrasi bo'lib, bu qirra oldingi tomonda bosh miyaning qattiq pardasiga yopishib turadigan ko'r teshik bilan tugaydi. Peshona suyagining ko'z kosasi qismi juft yupqa plastinkadan iborat. Peshona suyagi ko'z kosasining o'rtasida g'alvir suyagi joylashadigan o'yma bor. Lateral burchagida ko'z yoshi bezining chuqurchasi bo'ladi.

Peshona suyagining oldingi yuzasi va chap tomonida chakka hamda ponasimon suyaklar bilan birkadigan yon yuzalariga o'tadi. Ana shu o'tish joyi chegarasida suyak qirrasi bo'ladi. Chakka chizig'i deb ataladigan shu qirra ko'pincha teri ostida sezilib turadi. Chakka chizig'i yanok ravog'idan yuqoridayotgan chakka chuqurchasini chegaralab turadi va davom etib borib tepa suyak yuzasiga aylanadi. Peshona suyagining yuzasi qosh usi ravoklaridan o'tib kalla suyagi ichkarisiga tomon bukilib boradi va o'ng hamda chap tomonda peshona bilan ko'z kosalari chegarasini-ko'z kosasi uski chetini hosil qilib orqaga tomon yana chuqurroq davom etib turadi va ko'zlar turadigan ko'z kosalarining (ko'z chuqurchalarining) uski devorlariga aylanadi. Peshona suyagi va tashqi, pastki, o'ng va chap tomonda yonoq suyagi bilan birkadi.

**Tepa suyagi** — 1 juft kalla qopqog'ini o'rt qismini tashkil etadi. Tepa suyak to'rt qirrali va to'rt burchakli, sirtidan gumbazsimon bo'rtib chiqqan plastinka shaklida. Uning oldingi chekkasi peshona suyagining pallasiga, yuqori chekkasi ikkinchi tomondagi tepa suyagining xuddi shunday chekkasi bilan o'rt chiziqda birlashadi. Orqa chekkasi ensa suyagining pallasiga birkadi. Palla chekkasining oldingi qismi ponasimon suyagining katta qanotidir. O'rt va orqa

bo'lagi esa chakka suyagi pallasi bilan o'rtasida tepa suyak do'mbog'idir. Bolalarda u juda do'ppayib ketadi. Tepa suyagining pastki va yuqori ikkita parallel chizig'i bo'lib, ularga chakka fassiyasi va chakka muskuli yopishadigan chizig'idir. Tepa suyagining ichi botiq, u yerda arteriya egachalari mavjud. Tepa qirra bo'ylab davom etgan va so'rg'ichsimon o'siq bilan birlashadigan egachalari bor.

**Ensa suyagi** kalla qopqog'ining orqa pastki tomoni va asosini tashkil qiladi. U oldingi tomondan ponasimon suyakka, tepa va chakka suyaklariga birlashgan. Ensa suyagining katta ensa teshigi orqali umurtqa kanaliga qo'shildi. Ensa suyagining palla, yon qismi, asosi yoki tanasi mavjud. Suyakning pallasi tashqi tomonga qabariq, ichki yuzasi botiq bo'lib egilgan serbar plastinka-palladan iborat. Ensa suyagining tashqi yuzasini markazida ensa do'mbog'i, uning ikkala tomonida ko'ngdalang yo'nalgan g'adir-budir chiziqlar bor. Pallani ichki yuzasida 4 ta chuqurcha, o'rtasida esa ichki ensa do'mbog'i va tepaga yo'nalgan egachalar bor. Katta ensa teshigining pastki yuzasidagi ellips shakldagi bo'g'im do'mboqchalari 1 bo'yin umurtqasining yuqori yuzasi bilan qo'shildi.

**Chakka suyagi** bir juft bo'lib aralash suyakdir. Chakka suyak to'rt qismdan iborat (palla, nog'ora, piramida va so'rg'ichsimon). Pallaning tashqi yuzasi silliq bo'lib, chakka chuqurchasini hosil qiladi undan yonq o'sig'i yonq suyagi bilan birlashadi. Pastroq qismida pastki jag' bilan bo'g'im tuzadigan chuqurchasi bor, uning oldingi do'mbog'i pastki jag'ning bo'g'im o'sig'i chuqurchasidan chiqib ketishidan saqlaydi.

**Nog'ora qismi** — plastinkadan iborat, chakka suyagi tashqi eshituv yo'lining oldi va orqa tomoni chegaralab turadi. Piramida qismida eshituv muvozanatini saqlovchi a'zolaridir. Ichki quloqni himoyalovchi tepa, oldingi yuzasi esa nog'ora bo'shlig'ining tomi holatida joylashgan. Piramidaning pastki yuzasi kallani tubiga qaragan bigizsimon-so'rg'ichsimon teshik orqali yuz asabi va bo'yinturug teshik mavjud.

**So'rg'ichsimon o'siq** yo'g'on tortgan bo'lib, ozg'in odamlarda paypaslab topiladi. So'rg'ichsimon o'siq bag'rida so'rg'ichsimon g'or bor. Bu kavak boshqa maydaroq bo'shliqlar bilan tutashib ketadi. So'rg'ichsimon g'or va kataklar nog'ora bo'shlig'iga tutashgan ichiga havo to'lgan.

**Ponasimon yoki asosiy suyak.** Bu suyak toq bo'lib deyarli hamma bosh skeletining ichida yotadi; uning yon qismlari o'ng va chap tomonida tashqariga chiqadi va orqa tomonda ensa suyagiga, yuqori tomonda esa tepa suyagi bilan peshona suyagiga taqalib turadi. Bular o'ng va chap tomonda yassi chuqurchani — bosh skeleti yon yuzasida yonq ravog'idan yuqoriroqda yotuvchi chekka chuqurchasi tubini hosil qiladi.

Suyakni tanasi katta va kichik qanotlari va qanotsimon o'siqlari mavjud. Ponasimon suyak tanasining kalla bo'shlig'iga qaragan yuqori yuzasida egar chuqurchasi bo'lib, unda gipofiz joylashgan. Egarchaning oldingi tomonida ko'ndalangiga joylashgan do'mboqchalig'ar qoshi va ko'rish asablarining kanalchalari teshigiga tutashadi. Burun bo'shlig'i kovak teshikchasi bor. Katta qanotining 4 ta yuzasi: u kalla bo'shlig'i, ko'z kosasiga, chakka yuza, yuqori jag'ga qaragan yuzalardir.

**G'alvir suyak** — yuz suyaklari orasida burun bo'shlig'ining peshona suyagining o'ymasida joylashgan. Plastinka shakldagi suyak kalla suyagining tubini hosil qilishda qatnashadi. Galvisimon suyakning perpendikulyar plastinkasi burun suyaklari, dimog' va ponasimon suyak qirralari bilan birlashadi burun to'sig'ining bir qismini hosil qiladi.

## II.2. Bosh suyagining yuz qismi

Kalla suyagining yuz qismi yuqorida peshona suyagining pastki (ko'z kosasi ustidagi) chetidan boshlanib, ikki yon tomonida yonq suyaklari bilan cheklanadi va pastda pastki jag' bilan tutashadi. Bundan tashqari uning tarkibiga juft xoldagi ikkala yuqori jag' suyaklari va juft holdagi ikkita burun suyakchalari kiradi. Kalla suyagi yuz qismining yuzasida ikkita juft chuqurcha — ko'z kosalari bitia toq teshik burun teshigi yoki noksimon teshik va toq bo'ladigan og'iz teshigi joylashgandir.

**Yonq suyagi** juft bo'lib, yonq do'ppaymasini hosil qiladi. Yuqori tomonda u peshona suyagi bilan tutashib, orbita (ko'z kosasi) ning tashqi devorini hosil qilsa, orqa tomonda ponasimon va chakka suyak bilan birlashib, suyak ko'prikchasi-yonq ravog'ini tashkil qiladi. Yuzning oldingi sirtida yonq suyagi yuqori jag' suyagi bilan qo'shilib ketgan. Qotma odamlarning yuzida yonq suyagi bilan yonq ravog'i

teri ostidan ro'yirost bilinib turadi. Yonoq suyaklari ko'proq do'imiyib chiqqan bo'lsa, yuzni keng qilib ko'rsatadi (yonoqlari turib chiqqan degan ibora shundan olingan). Yonoq suyaklari yassi bo'lsa, yuz ingichka bo'lib ko'rinadi.

**Yuqori jag' suyagi** yuz sirtining qattiq asosi sifatida xizmat qiladigan juft suyak bo'lib, ko'zlar bilan og'iz orasida joylashgandir. Yuqori tomonda suyak yuzasi ko'z kosasi ichiga kayritib, uning pastki devorini hosil qiladi; ichki tomondan yuqoriga ko'tarilib chiqadigan peshona o'simlari peshona suyagi bilan qo'shilib ketadi. o'ng va chap peshona o'simlari juft holdagi ikkita burun suyakchalari uchun tayanch bo'lib xizmat qiladi. Bu suyakchalalar o'rta chiziq bo'ylab bir-biri bilan qo'shilib, yuqorida burunning ko'zg'almas suyak qismini hosil qiladi. o'ng va chap yuqori jag'suyagining ichki chetlari pastda noksimon burun teshigining chegaralarini hosil qiladi, so'ngira pastroqda o'rta chiziq bo'ylab bir-biri bilan qo'shilib ketadi va qo'shilib joyida do'mboq-oldingi burun qirrasini hosil qiladi. Yuzda burun to'sig'ining asosida uni paypaslab topish mumkin. Yuqori jag'suyagining oldingi yuzasida, ko'z kosasi tagida qotma odamlarning yuzida seziladigan bitta chuqurcha joylashgan, it chuqurchasi deb shunga aytiladi.

**Burun suyakchalari** juft bo'lib, o'rta chiziq bo'ylab bir-biri bilan qo'shilib va yuqorida aytilganidek, burun qirrasining suyakli qismini hosil qiladi. Ular tashqi chetlari bilan yuqori jag'suyaklarining chetlariga qo'shilib ketgan, orqa tomonda esa burunni ikki qismga bo'ladigan, suyak hamda tog'aydan tuzilgan burun to'sig'iga taqalib turadi. Burun qattiq asosining qolgan harakatchan qismi tog'aylardan tashkil topgan.

**Pastki jag'** Toq suyak. Asosiy qismi-pastki jag'tanasi takasimon shaklda. Pastki jag'tanasi oldingi yuzasining o'rtasida engak ko'tarmasi bor, pastda undan o'ng va chap tomonda ikkita engak do'mbog'i joylashgan.

Pastki jag'suyagi tanasidan orgaga, o'ng va chapga burchak ostida pastki jag'suyagining shoxlari chiqadi, ularning har biri ikkita o'simla bilan oldinda tojli va orgada bo'g'im o'simlari bilan tugallanadi. Bo'g'im o'simlari pastki jag'ning bo'g'im chuqurchalari bilan harakatchan, pastki jag' bo'g'imlarini hosil qilib, o'ng va chap tomonda chakka suyaklari bilan birkadi. Tojli o'simlarga chakka muskullari kelib birkadi.

Pastki jag'tanasi va shoxlari buktilgan joylarda pastki jag' burchaklarini hosil qiladi. Bu burchaklarning kengligi yoshga qarab o'zgarib boradi: chaqaloqlarda ular keng va kam reliefl, katta yoshi odamlarda juda reliefl bo'lib to'g'ri burchakka yaqinlashib qoladi, lekin hech qachon to'g'ri burchakdan kichik bo'lmaydi. Turli odamlarda pastki jag'burchaklari har xil kenglikda bo'ladi: uning burchaklari nechog'lik keng bo'lsa, pastki jag'tanasi pastga shu qadar ko'proq osilib tushadi, natijada odamning yuzi cho'ziqroq bo'lib ko'rinadi. Burchaklar nechog'lik kichik to'g'ri burchakka yaqin bo'lsa pastga jag'tanasi pastga shuncha kamroq buktilgan bo'ladi va odamning yuzi kaltarok, jag'i esa yo'g'onroq bo'lib ko'rinadi.

Pastki jag'tanasining yuqorisida tomonida katakchali o'simla mavjud. Katta yoshi odamda u 16 ta uyadan iborat bo'lib, bu uyalarda tish lildzlari joylashadi; shunday qilib katta yoshi odamning ikkala jag'ida 32 ta tish bo'ladi. Odamning pastki jag'ida shunday bir xususiyat borki, u faqat inson kalla suyagiga hosdir. Jag'ning oldingi pastki qismi tishlarga nisbatan oldinga chiqib turadi, ya'ni engak ko'tarmasi mavjud. Suyakni tashqi yuzasida g'adi-budirikliklarga chaynov muskullari yopishadi. Shu muskullarni vazifasiga va yoshiga qarab pastki jag'burchagi o'zgaradi. Bolalarning pastki jag'burchaklari 150 gradus bo'lsa, o'rta yoshi odamlarda 130-110 gradus atrofidan. Kessa insonlarda tishlar tushib ketishi chaynov muskullarini bo'shashtiradi, oqibatda jag'burchagi yassilana boradi.

**Ko'z kosalari** juft chuqurchalar bo'lib, ular ko'z olmalari va ko'zning harakat apparatini joylashgan, devorlarining ichkarisida teshiklar bor. Bulardan ko'z asablari va qon tomirlar o'tadi. Bu yo'lning ichida yosh burun kanali o'tadi, shu kanaldan ko'z yuzini tinmay yuvib turadigan yosh tomchilari burun bo'shlig'iga tushib ketadi. Noksimon yoki burun teshigi og'iz bo'shlig'idan yuqoriroqdagi katta tanglay ustidan o'tadigan burun bo'shlig'iga olib boradi. Burun bo'shlig'i suyak va tog'ay plastinkalaridan iborat bo'lib, tikka tushgan burun to'sig'i bilan ikki bo'limga olingan va orgada juft teshiklar xoanalar bilan tugallanadi. Burun suyagi plastinka shaklida bo'lib, ko'z yoshi suyagi uning oldingi qismida, ko'z yoshi egai bor va ko'z yoshi xaltasining chuqurchasi mavjud. Ko'z yoshi suyagi bir juft eng mo'rt va yuppadir. Suyak yuqori jag'suyagi peshona o'sig'ining orga tomonida joylashib, kosaning medial devorini hosil qiladi, lateral yuzasi ko'z yoshi xaltasini

chuqurchasini hosil qiladi. Past va oldingi tomondan ko'z yoshi suyagi, yuqori jag'suyagi va peshona o'sig'i orqadan g'alvirsimon suyagining ko'z kossiga qaragan plastinkasi yuqoridan peshona suyagi bilan birlashadi. Dimoq suyagi noto'g'ri to'rtburchak shaklidagi yupka plastinka shaklidagi toq suyak burun to'sig'ini hosil qilishda qatnashadi. Suyakning oldingi chekkasi g'alvir suyagining perpendikulyar plastinkasi bilan tutashadi. Orqa chekkasi bo'sh burun bo'shlig'ining orqa qismini ikkiga ajratadi, bu suyak chap tomonga sal qayrilgan.


qaytirilgan.

**Tanglay suyagi** bir juftidir, ko'z kosasi, burun bo'shlig'i, og'iz bo'shlig'i va qanot tanglay chuqurini hosil qiladi. Suyakning gorizontal plastinkasi orqa tomondan yuqori jag'suyagini tanglay o'sig'iga birlashtirib, qattiq tanglayni hosil qiladi. Suyakning gorizontal plastinkasi orqa tomondan yuqori jag'suyagini tanglay o'sig'iga birlashtirib, qattiq tanglayni hosil qiladi. Gorizontal plastinkani qarama-qarshi tomondagi plastinka bilan birlashtirib burun qirrasini hosil qiladi. Uning pastki yuzasida katta tanglay teshigi bor. Vertikal plastinkasi burun bo'shlig'ining yon devorini hosil qilishda qatnashadi. Tanglay suyagini uchta o'siqlari (piramidasimon va ponasimon) mavjud. Bolalarda 6 ta liqidod bo'ladi. Oldingi liqidod peshona liqidog'i yoki rombsimon shaklda peshona va tepa suyaklar pallasi o'rtasida joylashgan. Eng katta liqidoddir (uzunligi 3,5 sm, ko'ndalang o'lchami 2,5 sm). Bola 2 yoshga to'lganida suyaklanib yopishadi. Boshqa liqidodlar 4 ta bo'lib kallani har bir yonida 1-juftidan (oldingi yon ponasimon) va orqa (so'rg'ichsimon) liqidodlar kiradi. Liqidodlar bolaning 1-3 yoshida bitib choklari shakllanadi. Keksalik davrida yuz suyaklari kichrayadi, jag'lardagi tishlar to'kiliadi, alveola o'siqlar ham atrofiyalanadi yoki yemirilib tekislanadi. Kalla suyaklari yupka va mo'rt bo'lib qoladi. Keksalarda jag' suyaklarini engak qismi keskin oldinga suriladi va burun suyagiga qarab ko'tariladi. Pastki jag'suyagini shox qismi osilib oqibatda yuz qismiga karilik holatini keltiradi va yuzini dumaloq shaklga keltiradi.


Kalla skeleti 3 xil shaklda uchraydi. Uzunchoq, o'rtacha va kalta (dum-dumaloq), bu xildagi kalla skeleti zinhor aqliy rivojlanishga ta'sir ko'rsatmaydi. rasm kerak Qaysi holatidagi kalla skeleti – kalani indeksini yaratishda rassom va haykaltaroshlar uchun muhim hisoblanadi. Bosh skeletining sathini aniqlashda ko'ndalang uzunligi skeletdan chiqib turuvchi tashqi qismi tepa yoki chekkalari o'ichanib

100 ga ko paytirish, chiqqan sonni oldingi, orga o'ldamiga (ensa suvagini do'ng nuqtasi uzunasiga) bo'lindi. Shunda taxminiy sathi chiqadi, unga kallani indeksi deyiladi. Kallani indeksi 75 dan ortmasa, unda kalla skeletini shakli uzunchoq, 80 bo'lsa kalla, 75 dan 80 oralig'ida bo'lsa, o'ra boshli skelet indeksi deyiladi. Barcha indeksli bosh skeletlari insonlarda uchraydi

Kalla miya qismi balandligining katta ensa teshigini oldingi chekidan to'ikkala tepa suyagi orasidagi sagial chok, tepa suyaging oldingi chegarisigacha o'ltchanadi. Bosh skeletini kengligini (enini) aniqlashda esa, tepa suyagini ikkala yon tepa yuzasi o'ltchanadi. Kalla skeletini oldindan qaraganda 3 xil shaklga ega (uzunchok yuzli, keng yuzli va o'racha). Antropologlar fikricha 4 xildagi bosh skeletlari mavjud. Bundan tashqari kalla skeletini o'rganishda uning shaklini turlari bo'larida yuzning burchak o'ltiriligi ahamiyatga sazovor. Kalla skeletini yuz qismidagi burchak o'ltiriligi bo'yicha, o'ltir qirrali va o'timas burchak ajratiladi.



45 rasm. Bosh suyaging tuzilishi



46 rasm. Turli irq vakillarining bosh suyagi tuzilishidagi farqlar  
(A.P. Bistrov bo'yicha): 1 - yevropalik bosh suyagi; 2 - eskimos bosh  
suyagi; 3 - Negr bosh suyagi.

Yuzning burchak o'tkiritigi tushunchasi kalla skeletidagi tashqi eshituv suyagini tepa qismidan burunning pastki qirralari noksimon burun teshigi orqali gorizontol chiziqni kesishib tepadan pastga boruvchi peshona nuqtasi, yuqori jag'ning o'tra qismi tish ildizlaridan paydo bo'lgan do'ngigachan tushgan chiziqdir.

Yuzning plastinkasiga suyakdan tashqari tishlar va ularni qoplangan yumshoq to'qimalar ham muhim o'rin tutadi. Agarda og'iz bo'shlig'ida 2-3 ta tish bo'lmasa milkar, lunj va og'iz bo'shlig'i shaklini o'zgarishi yuz kiyofasiga ta'sir ko'rsatadi. Yuz qismini o'rganishda eng avvalo kallaning yuqori qismi kengligi, pastki qismiga nisbatan ko'rinadi. Bunda tepa suyagini to'g'riligi bilan yonoq suyagining yoyi yuz qismidan ajralib turadi. Yuz qismida peshona ko'z kosachasi burining noksimon teshigi va yuqori jag'ni oldingi yuzasi pastki jag'ni tish kataklari alveolalari ko'rinadi. Peshona suyagining kalla bo'lagini yon qismida ikkita peshona do'mbog'i, bosh plastikasida muhim o'rin tutadi. Tor peshona suyakli odamlarga nisbatan keng peshonalilarda esa bu do'mboqlar bir-biridan ancha uzoqda turadi. Peshona suyagining kalla bo'lagi ba'zan botiq, yassi yoki baland va past, hattoiki oldingi bo'rtib chiqqan bo'lishi mumkin.

Yuzning yuqori qismida ikkita ko'z kosasining yuqori qismi joylashgan. Unda ko'z soqqasi o'rmashgan. Ko'z kosasi burun bo'shlig'ini ikki tarafida simmetrik ravishda shakli bo'yicha noto'g'ri to'rtburchak piramidani eslatadi. Ko'z kosasining shaklini yaratishda uning burchak o'tkiritigiga qaraladi: gorizontol sath bo'yicha tik vertikal shaklda joylashgan hamda qiya burchak hosil qilib joylashgan. Ko'z kosasi yuz qismi plastikasiga burun suyagi va noksimon burun teshigi va burun bo'shlig'ini 2 ga ajratib turuvchi

yupqa suyak katta rol o'ynaydi. Kalla skeletini chizishda burunni shu suyakka, ayniqsa u suyak o'ngga yoki chagga bukilganligi va burun chig'anoq'iga qaraladi. Kalla skeleti yuz qismidagi elementlariga yana kulgu chuqurchasi va pastki jag'suyagidan iyak va engak do'mboqchalari engak teshiklari kiradi. Pastki jag'ning bo'g'im o'sig'i chakka suyagini bo'g'im chuqurchasiga kirib, pastki jag'burchagini hosil qiladi. Voyaga yetgan odamlarda uning burchagi 90 gradusga, suyak orqa qismi burchagi 120 gradus, bolalarda 140 gradus chamasida bo'ladi.

Kallani barcha suyaklari bir-biri bilan birikishi harakatsizdir. Shuning uchun kallani harakati ikki xil, ya'ni kalla suyagini bo'g'im va umurtqa suyaklari orqali bo'ladi. Pastki jag'bo'g'im juda harakatchan, ulardagi bo'g'im xaltachalari cho'ziluvchandir. Pastki jag'ning harakatida og'iz bo'shlig'ini ochib yopishdan tashqari jag'suyagidagi lab-lunjlarni orqaga, oldinga va yon tomonlari harakatlantirish mumkin. Bu holatdagi bo'g'im xaltachasi bo'g'im chuqurchasidan chiqib chakka suyagini do'ngligiga taqaladi, bo'g'imdagi disklarni chetlari bo'g'im xaltachalariga mustahkam yopishib ketmaganligidan bo'lakchalar o'zaro tushmaydi. o'ng va chap tomondagi bo'g'imlar ayni vaqtda birgalikda bir xil harakatni bajaradi, kallani bukish, engashirish, burishda bir vaqtda bo'yin qismi bilan harakatlanadi.

Boshning harakatlanligi esa ensa suyagining do'nglari bilan birinchi bo'yin umurtqasi orasidagi bo'g'imlarda bo'ladigan harakatlarga hamda birinchi umurtqa bilan ikkinchi umurtqa o'rtasidagi harakatlarga ham bog'liq. Bunda birinchi umurtqa kalla suyagi bilan go'y bitta yaxit tuzilmanni tashkil etadi va kalla suyagi bilan birgalikda ikkinchi umurtqaga nisbatan tik o'q atrofiga aylanadi. Oqibada harakat har xil halqalarda bir yo'la yuzaga chiqadigan bo'lsa, bosh xilma-xil harakatlarni sodir etadi, chunonchi yon tomonlarga burish yoki engashish, hamda orqaga va pastga engashish mumkin. Boshning harakatlari va vaziyati nihoyatda xilma-xil bo'lishi taavirlash uchun qiyinchilik tug'dirmaydi. Bunda kalla suyagining anatomik elementlariga, ya'ni suyaklarni do'ngliklariga, chuqurchalariga e'tiborini qaratib rasm chiziladi. Odamning yuzi juda to'la bo'lmasa kalla suyagining ko'pgina do'mboqlari boshda xususan yuzda sezilib turadi. Shu maksad uchun olganda ko'z kosalarining yuqori chetlarini hosil qiladigan peshona suyagining cheti, chakka

chiziqlari, peshona do'mboqlari, yonoq suyaklari, yonoq ravoqlari, pastki jag'va uning burchaklari hamda engak ko'tarmasi do'mboqlari, so'rg'ichsimon o'simalar mulhimdir. Bu ko'rsakichlardan foydalanib boshning o'rta tekisligi, ya'ni simmetriya chizig'ini o'tkaziladi. Buning uchun boshning burun va lab o'rtasidan iyak do'ngligi, peshona suyagi o'rtasidan tik holatda chiziq o'tkaziladi. Ikkinchi asosiy koordinata chizig'i peshona chetiga parallel holda ikkala orbita o'rtasi (ko'z qorachiklariga mos holda) yonoq ravog'i, quloq teshigi va tashqi ensa ko'tarmasi orqali o'tadigan egri chiziqlar o'tkaziladi. Bu chiziq orqa va oldindan ikki joyda o'rta chiziqni tikkasiga kesib o'tadi va boshning ko'targanligini hamda pastki tushirganligini belgilab beradi. Agar o'sha chiziq qabariq tomoni bilan yuqoriga qarab yotgan bo'lsa, bosh ko'tarilgan, bordiyu qabariq tomoni bilan pastga qarab yotgan bo'lsa, bosh pastga engashgan bo'ladi. Bir-biri bilan kesishadigan shu ikkita chiziq boshning holatini ko'rsatadi.

Rasm chizishda shu chiziqlarni belgilab olib bosh skeletining nuqtalarini: yonoq suyaklari va uning ravoqlarini, chakka chiziqlari, pastki jag'ning o'ng va chap tomonlarini, peshona suyagining qosh usli ravoklari va ko'z kosasi cheti quloqning o'rni va boshqalarni o'sha yordamchi chiziqlarga qarab o'ng va chap, yuqori va past tomonga ko'rinishiga mos qilib tasvirlab berish kerak. Bosh engashirilgan va ko'tarilib turgan hollarda quloq va burunning joyi juda sinchiklab belgilab chiqiladi.

Boshni ensa tomonidan tasvirlashda «Krestovina» ning ikkita chizig'i, quloq o'rni, yonoq ravog'i, pastki jag'ni, orbita cheti, peshona cheti, tepa do'mboqlarini aniq belgilab chiqish zarur. Rasm chizilar ekan, kalla suyagining tasvirlanayotgan qismlariga simmetrik bo'lgan lekin rasmining ushbu pozitsiyasidan qaraganda ko'rinnay turadigan qismlari o'rta tekislikning narigi tomonidagi fazoda hajman qanday bo'lishini tasavvur qila bilish kerak. Boshni orqa tarafdin chizishda o'rta va chiziqlarini sinchiklab o'rganilib, so'ngra quloq, yonoq yoyi, peshona cheti, pastki jag'tanasi va burchagiga e'tibor beriladi.

Inson gavdasini yoki uni ayrim qismlarining modelini yoki rasmini yaratishda eng avvalo har taraflama o'rganib ayniqsa yuz qismlaridagi ayrim suyak, muskullarining ayrim anatomik elementlariga alohida e'tibor beriladi. Ayollarni boshini yuqori qismi bir muncha katta, kalla suyaklari kichikroq, peshona do'ngi yaxshini

rivojlangan, qosh usli yoyi sezilarisiz holatda bo'lishi bilan erkaklardan farq qiladi. Erkak kishining peshonasi bir muncha nishob ayollarda esa tikdir.


### II. 3. Bo'yin muskullari, fassiyasi va plastikasi.

Bo'yin muskullarini o'rganishda oldingi orqa yon tomondagi muskullarga to'xtalib o'tamiz. Bo'yinning oldingi muskullari ikki guruhga bo'linadi: (til osti suyagidan yuqori pastdagisi, umurtqa suyagi oldingi va umurtqa suyagi asosida yotuvchilarga).


Plastik ahamiyatga ega bo'lganlardan bo'yin terisi ostidagi, to'sh o'mrov so'rg'ichsimon, ikki qorini va kurak til osti muskullaridir. To'sh-o'mrov so'rg'ichsimon muskul eng mustahkam to'sh va o'mrov suyaklaridan ikkita boshcha holida boshlanib, chakka suyagining so'rg'ichsimon o'sig'iga yopishadi. Ikkita boshchasi orasida o'mrov suyagi ustida uchburchak shaklda chuqurcha mavjud. U chuqurcha muskul qisqargan paytida yaqqol ko'rinadi. uar ikkala muskul bir vaqtda qisqarganida boshni tik ushlab turadi yoki orqa tomonga engashtiradi. Bir tomondagi muskul qisqarsa bosh o'sha tomonga engashadi va qarama-qarshi tomonga bo'riliadi. Bu muskulni qimirlamaydigan nuqtasi boshda turganida to'sh suyagini ko'taradi, ko'krak qafasini kengaytiradi va nafas olish aktida qatnashadi. Muskul qisqarganida yoki boshni burganda teri ostida yaqqol ko'rinadi. Bu muskullar qisqarganida bo'yin umurtqalari oldinga buktiladi. Yotgan odam boshini oldinga ko'targanida ham ikkala tomondagi shu muskullari qisqarib, ular relefi bo'lib qoladi. Zo'r berib nafas olinganida to'sh-o'mrov-so'rg'ichsimon muskul ko'krak qafasini yuqoriga tortadi va nafas aktida ishtirok etadi (47 rasm).

Bo'yinning yon tomondagi muskullarga oldingi o'rta va orqadagi narvonisimon muskullar kiradi. Ular bo'yin umurtqalarining ko'ndalang o'siqlaridan oldingisi 3-6 umurtqada, o'rtadagisi (m. Scalenus medea) barcha bo'yin umurtqasidan va orqadagi narvonisimon muskul 5-6 umurtqalardan boshlanib 1,2-qovurg'a suyaklariga yopishadi. Bu muskullar qisqarganida 1, 2-qovurg'alarni yuqoriga ko'taradi va nafas olish aktida qatnashadi. Narvonisimon muskullar ikki tomondan qisqarsa, bo'yin umurtqalari buktiladi, bir tomonlama qisqarsa, bo'yinni yonga buradi. Bo'yinning uzun muskuli 2-6 umurtqalarini qoplaydi. Boshning uzun muskuli 3-6


bo'yin umurtqalaridan boshlanib, ensa suyagiga yopishadi. Ikkala tomondagi muskul baravar qisqarsa bosh oldinga bukiladi.



47. rasm. Bo'yin muskullarining yon tomondan ko'rinish.



48 rasm. Bosh muskullari. Yon tomondan ko'rinish.



49 rasm. Bosh muskullari. Old tomondan ko'rinish.

Pastki jag' bilan til osti suyagi orasidagi kamchakda bir qancha muskulalar joylashgan. Shunga ko'ra til osti suyagining ustidagi va ostidagi muskulalar guruhga bo'lib o'rganiladi. Til osti suyagidan yuqorida joylashgan muskullardan biri bigizsimon o'siq - til osti muskuli chakka suyagining bigizsimon o'sigidan boshlanib, til osti suyagi tanasiga yopishsa boshqalari esa, jag'-til osti muskuli keng plastinka xolatida muskul tolalari yuqoridan pastga qarab parallel yo'naladi, ikkala tomondagi muskul bo'yining o'ra chizig'ida uchrashib og'iz bo'shlig'i tubini hosil qiladi. Bu muskul pastki jag'ni ichki yuzasidan boshlanib, til osti suyagiga yopishadi. Iyak-til osti muskuli pastki jag'ni qiltanoq do'mboqchasiga yopishadi. Ikki qorinli muskulning oldingi qorinchasi pastki jag'suyagining ichki yuzasidan, orqa qorinchasi chakkani so'rg'ichsimon o'sig'i o'ymasidan boshlanib o'zaro pay orqali birlashib til osti suyagiga yopishadi. Bu muskul og'iz bo'shlig'ini ostki qismini yopib turadi, ba'zi hollarda teri ostidan tomoqda osilib shish holatida ko'rinadi. Til osti suyagidan yuqoridagi muskulalar pastki jag'qimirlaganida qisqarsa, til osti suyagini va kekindakni yuqoriga ko'taradi, yoki pastki jag'suyagini pastga tortadi. Ikki qorinli muskulning oldingi qorinchasi og'zin odamlarda va keksalarda bo'yin ostida ikkita burma hosil qiladi. Til-osti suyagidan pastdagi muskulardan faqat ikkitasi: to'sh-qalqonsimon va kurak-til osti muskullari plastik ahamiyatga ega. Qolgan to'sh-o'mrov va

qalqonsimon – til osti muskullari chuqurroqda joylashgan. Bu muskullar qisqarganda til osti suyagi va hiqildoqni pastga tortadi, kurak til osti muskuli qisqarganda bo'yin fassiyasini taranglashtiradi, bo'yinturug vena tomirlari orqali yurakka qonni borishini yaxshilaydi. O'zgi odamlarda har bir chuqur nafas olganda yoki kuchli kulganida teri ostidan bu muskul bo'rib ko'rinadi.

Bo'yinning uzunligi (balandligi) odamning jinsi, yoshi, shaxsiy xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Bo'yinning uzunligi birgina bo'yin umurtqalarining balandligiga bog'liq bo'libgina qolmay, balki bo'yinning oldingi tomondagi pastki chegaralari nechog'liq quyi joylashganiga ham bog'liq. Yelka kamari past joylashgan va muskulaturasi kuchsiz rivojlangan, yelkalari qiya odamda bo'yin uzunroq bo'ladi. Yelkalar yuqori joylashgan bo'lsa, bo'yin kaltarok bo'ladi.

Bo'yin juda xilma-xil harakatlarini bajaradi, uning bu harakatlari ko'pincha aralash bo'ladi, ya'ni bo'yin harakatlari bosh harakatlari bilan birgalikda bajariladi.

Boshning yuqoriga ko'tarilishini oldingi bo'yin muskullarining taranglashuvi cheklab turadi; bo'yinturug chuqurchasi hiqildoq va engak o'rtasidagi soha tarang tortib, bo'yinturug chuqurchasi birmuncha yassi bo'lib qoladi, to'sh-o'mrov so'rg'ichsimon muskullar sal yassilanadi va bo'yin birmuncha yo'g'on tortadi. Ensa yetinchi bo'yin umurtqasiga yaqinlashadi va ensa bilan shu umurtqa orasida gorizontaal teri burmalari hosil bo'ladi. Boshning yana ham orqaga buktilishi bo'yin hisobiga emas, balki umurtqa pog'onasi bel qismini hisobiga yuzaga chiqadi.

Boshni oldinga bukish harakati erkin bo'ladi va bo'yinning oldingi qismiga ensa taqalib qolishi bilan chegaralanadi; ayni vaqtda to'sh-o'mrov-so'rg'ichsimon muskullar taranglashib, relefli bo'lib qoladi.

Boshning yonga buktilishi qarama-qarshi tomondagi trapetsiya-simon muskulning taranglashuvi bilan cheklangan. Bosh yon qismining o'mrov yaqinlashuvi qisman bo'yinning engashuvi hisobiga, qisman tegishli tomondagi yelka kamarining, ya'ni o'mrov bilan kurakning ko'tarilishi hisobiga yuzaga chiqishi mumkin. Ayni vaqtda tegishli tomondagi to'sh-o'mrov-so'rg'ichsimon muskullar taranglashib, relefli bo'lib qoladi.

Chuqur nafas olinganida ko'krak qafasi va o'mrov suyaklarining ichki uchlari yuqori tomon ko'rariadi, natijada o'mrov usti chuqurchalari kattalashadi va ayni vaqtda ishlab turgan narvonsimon muskullar relefli seziladigan bo'lib qoladi. To'sh-o'mrov-so'rg'ichsimon muskullar ham ishlab, zo'r berib taranglashadi va juda relefli bo'ladi; natijada bo'yinturug chuqurchasi sezilarli darajada chuqurlashadi.

Kuraklar bilan yelkalar zo'r berib orqaga uzatilganida o'mrov usti chuqurchalari bilimmay ketadi, ularning ichki burchaklarida narvonsimon muskullar do'mpayib chiqib qoladi, ayni vaqtda chuqur nafas olinadigan bo'lsa, bu muskullarning xarakati seziladi.

Yelkalar qisiladigan bo'lsa, o'mrov usti chuqurchalari teranroq bo'lib qoladi, bunda kuraklar va yelkalarining uchlari oldinga uzatiladigan bo'lsa, yanada chuqurlashadi.

Bo'yin bilan boshni oldingi tomondan tuzishda bo'yinturug chuqurchasining o'rasi, hiqildoq bilan til osti suyagining o'rasi, engakning o'rtasiga chiziq tortilib, belgilanib olinadi. Boshni burish harakatlarida bo'yinning voronkaga o'xshab ketadigan oldingi sohasi o'z shaklini o'zgartirib, birmuncha buraladi; bu holda o'rta chiziq muvaqqat shu o'zgarishlarga muvofiq qilib belgilab olinadi va shaklining o'zi shu chiziqqa nisbatan o'ng va chap tomondan tuzib boriladi. Tabiiyki, to'sh-o'mrov-so'rg'ichsimon muskullarning shakli ham o'zgaradi, buni ham belgilab olish kerak bo'ladi.

Boshning qay tariga burilgan va enganshganligini darhol aniqlab olinmoq uchun o'rta va kundalang kesishish chiziqlari belgilab olinadi. Pastki jag', quloq, trapetsiyasimon muskullar va o'mrov belgilab chiqiladi. Shu bilan bosh va bo'yinning ko'krak qafasi va yelka kamari bilan bog'lanishi bir yo'la aniqlab olinadi. Keyin boshni tuzish ichki suyak nuqtalariga qarab pastdan yuqoriga tomon boradi.

Oldingi tomondan bo'yinning chegara nuqtalariga pastdagi ikkala o'mrov bilan bo'yinturug chuqurchasi, yuqoridan pastki jag', orqa tomondan bo'yinning pastki chegarasi yetinchi bo'yin umurtqasi, hamda ikkala akromiondan o'tkazilgan shartli gorizontaal chiziqdir. Tasbiq ensa ko'tarmasi hamda ikkala so'rg'ichsimon o'simtasidan o'tkazilgan chiziq yuqorida bo'yinning orqa chegarasi bo'lib xizmat qiladi. Natirachi boshni to'g'ri tutib sal ko'tarsa bo'yni silindr shakliga keladi, uning gavda bilan tutashgan qismini kengayib yelkalarga o'lib boradi. To'sh-o'mrov-so'rg'ichsimon muskullar hamda past

tomonda o'mrovlar bilan chegaralangan yelka chiziqlarini hosil qiluvchi trapetsiyasimon muskullar orasida o'mrov ush chiqurchalari yotadi. Yelkalar qisib ko'riladigan bo'lsa, o'mrovlarning tashqi uchlari ko'tariladi va bu chiqurchalar yanada taranglashadi: qo'llar orgaga uzatiladigan bo'lsa, chiqurchalar bilimay ketadi.

Bo'yining orqa yuzasida o'rta chiziq bo'yliab yuqori tomida kalla suvaging tashqi ensa ko'tarmasini paypaslab topa bo'ladi, undan pastroqda orqa egatchasi ko'rinish turadi, bu egatchada, xususan bo'yin engashiriladigan bo'lsa, pastki bo'yin umurtqalarining 2-3 ta qirrali o'simalari ko'zga tashlanadi. shulardan yettinchi bo'yin umurtqasi plastik jihatdan alohida ahamiyatga egadir. Bu umurtqa ko'krak qafasining uchiga to'g'ri keladi. Tasvirda bo'yin bilan bosh va yelka kamari bilan qo'llar shu umurtqadan tuzib boriladi.

Bo'yin orqa yuzasining kattagina qismini trapetsiyasimon muskul tashkil etadi. Bu muskulning ostida boshni orgaga bukvuchi, bo'yinni rostlovchi chuqur bo'yin muskullari yotadi. Qotma odamning bo'yinidagi bu muskullar kuch bilan taranglashganida trapetsiyasimon muskul bilan to'sh-o'mrov-so'rg'ichsimon muskullar orasida joylashgan egatchaning yuqori qismida relief hosil qilinadi. Bu muskullar juda rivojlangan bo'lsa, bo'yinni orqa tomondan ancha yo'g'on qilib ko'rsatadi: ayvni vaqtda uning yuzasi tekis, buklmasdan tik tushgan bo'lib qoladi. Odan haddan tashqari semiz bo'lsa ham bo'yin orqa sohasining shakli o'zgarib qoladi, bunda kishining ensasida yog' to'qimasi to'planadi va ko'ndalang yog' burmalari paydo bo'lib, tashqi ensa ko'tarmasidan pastroqda xarakterli toq chuqurcha vujudga keladi.

Rasmi yon tomondan tuzishda ham bo'yin qismining o'rta chizig'ini to'g'ri topish, bosh bilan bo'yin silueti profilga yaqin o'tgan taqdirda ham, bu chiziqni bo'yinturq chuqurchasidan boshlab engakka o'tkazish mumkin. Bular kesishish chizig'ining ikkala - o'rta va ko'ndalang chizig'iga ham taalluqli; bularni to'g'ri belgilab olish boshning ko'z ilg'amas darajada engashib va burilib turganini ham topishga yordam beradi va tasvirlashni ancha jonli va tabiiy chiqishiga imkon beradi. O'mrov rakursini - uning akromiondan bo'yinturq chuqurchasiga tomon ichkari kirib turganini, shuningdek trapetsiya-simon muskulning ancha murakkab rakursini to'g'ri belgilab olish juda muhim (30-rasm). Bu muskulning kalla suvagingdan xuddi chodir bag'riga o'xshab pastga tomon tushib borishini, kurak qirrasiga

birlikkan sayin asta-sekin qay tariga akromiongacha yetib borishini, keyin esa o'mrovga birikkan sayin orgaga bukvilib, ichkariga o'tishi va qavariq shakli hosil qilishini belgilab olish kerak. Ayni vaqtda o'mrov ush chiqurchasi va uning yuqoriga tomon davom etib borishini belgilab olinadi.

O'mrov suvagi bilan trapetsiyasimon muskulning mana shu rakursini bekamu ko'st qilib tuzib chiqish kerak, aks holda tasvir xunuk bo'lib chiqadi. Bosh yelka kamari bilan bog'lanmay qoladi va rasmning hajmi ochilmaydi.

Bosh bilan bo'yinni orqa tomondan tuzishda organing umurtqa pog'onasiga mos keluvchi uzunasiga ketgan egati o'rta chiziq bo'lib xizmat qiladi. Bu egat yettinchi bo'yin umurtqasidan ensaning tashqi ko'tarmasiga tomon yuqori boradi va boshning burilish harakatlarida ko'rinadi. Bunda uni yettinchi bo'yin umurtqasidan ensaning tashqi ko'tarmasiga tomon yanada sinchiklab belgilab chiqish kerak bo'ladi. Shu ko'tarmadan yuqoriga qarab boshning o'rta chizig'i krestovinning ikkinchi chizig'i belgilab olinadi, krestovinning bu chizig'i ensa ko'tarmasi, quloq teshigi orqali va so'ngra yonoq ravog'i bo'yliab oldingga qarab o'tadi.

#### II. 4. Bosh muskullari, uning bo'laklari va plastikasi.

Bosh muskullari chaynov va mimika muskullariga bo'linadi: 1) pastki jag'ni harakatlantiradigan, ya'ni asosan chaynovsh aktida ishtirok etadigan muskullar, - bularni chaynov muskullari deb ataladi va 2) rahiy kechinmalar yoki boshga biror xil taassurotlar natijasida yuz ifodasini o'zgartiradigan muskullar - bularni mimika muskullari deyiladi.

Chaynov muskullariga 4 ta muskul kiradi, ulardan ikkitasi plastikaga aloqador. Ularga chaynov va chakka muskuli kiradi. **Chaynov muskuli** (m masseter) pastki jag' suvaging tashqi yon yuzasida yotadi, yonoq ravog'ining pastki chekkasidan boshlanadi va pastki burchagining tashqi yuzasiga yopishadi. U to'rtburchak shaklida. Muskul qisqarganida pastki jag'ni ko'taradi. Muskul qisqargan holatda teri ostidan uning tolalarining shakli osongina ko'rinadi va uni ushlab ko'rish mumkin. Muskulning oldingi chei orqa tutamlariga nisbatan qalindroq. Chaynov muskuli luni shaklini hosil qiladi, turli odamlarda luni shakli har xil, chunki quloq oldi bezi

u muskulni ma'lum miqdorda ustidan qoplab turadi. Kuchli his-tuyg'u yoki juda og'ir buyumni ko'targanida bu muskul qisqaradi. Odam tinch turganida chaynov muskullarining tonusi tufayli og'zi odatda yumiq bo'ladi – bunda muskullar taranglashmay turadi va ularning reliefi kam seziladi. Odam chaynayotgan paytida hamda "jag'ni qisib", og'zini yumib turganida, chaynov muskullari taranglashadi va reliefi seziladi. Bu muskul kuchli jismoniy ish-harakat vaqtida, shuningdek, sabr-toqat ko'rsatish kerak bo'lgan chog'larda: jismoniy og'riqqa, katta ko'ngilsizlik yoki baxtsizlikka bardosh berish kerak bo'lgan paytlarda, hamda odam g'azablanganida, zarba berish yoki janjallashishga tayyorlanayotgan vaqtda ham tarang tortadi. Bu kishining yuzida tahdid solish, nafratlanish yoki jirkanish muskullarining taranglashuvi bilan birgalikda namoyon bo'ladi. U odamning yuziga qat'iyat, tahdid solish ifodasini beradi.

**Chakka muskuli** (m. temporalis) serbar va yassi bo'lib, chakka yuzasining jami yuzasidan boshlanadi. Muskul tutamlari yelpig'ich shaklida yig'ilib, yonoq ravog'idan ichkariga o'tadi va pastki jag'ning toj o'sig'iga yopishadi. Muskul qisqarganida pastki jag'ni ko'taradi va orgaga tortadi. Chakka muskulini teri ostida osongina ushlab ko'rish mumkin, ayniqsa ovqat chaynalganida chakkaning terisi ritmik asosida qisqaradi.

Odam ozganda muskul birmuncha yassi bo'lib qoladi va chakka chizig'i bilan yonoq ravog'i u bilan birga kontrast jihatidan reliefliroq bo'ladi, natijada chakka chuqurchasi sezilari bo'lib chiqadi ("chakkalari ich-ichiga kirib ketgan" iborasiga yarasha). Bunda chakka muskul mimik ahamiyat kasb etadi. Yuqorida zikr etilgan ikkala guruh muskulining ustidan fassiya pardasi o'trab turadi.

Qolgan ikkita **lateral** va **medial** qanotsimon muskullar ponasimon suyak qanotining o'sig'i va jag' burchagining medial yuzasiga yopishadi. Lateral, qanotsimon muskul qisqarganida pastki jag'ni o'ngga yoki chapga suradi, hamda oldinga chiqaradi, mediali esa pastki jag'ni ko'taradi.

Qanotsimon muskullar goho ruhiy kechimmalar ta'siri ostida ham qisqaradi; bunday hollarda ular yo jag'ni oldinga suradi, yoki jag' pastga tushadi, yo bo'lmasa yon tomonga suriladi va bu harakat hayratlanish yoxud og'riq ifodasi bilan birga qo'shiladi – bunday hollarda qanotsimon muskullar mimika muskullari rolini o'ynaydi.

Mimika muskullari boshqa tanadagi muskullarga nisbatan yuz mayaklariga birkadi. Ikkinchi qismi esa teriga qo'shilib ketadi. Muskulning harakatchan nuqtasi suyakka emas, balki yumshoq to'qimalarga birkadi. Shu tufayli muskul qisqarganida terida burma yoki ajin hosil bo'ladi, u holat kishini his-tuyg'usi bilan yoki boshqa vaziyatlarda tez o'zgaradi. Ularda qalin fassiyasi yo'q. Mimika muskullari yuzni bir xilda qoplamagan, ular og'iz, ko'z, burun, quloqda joylashgan. Bu muskullarni qisqarishi yuzda o'ziga xos burma va qiyofani vujudga keltiradi. Teri nechog'liq elastik bo'lsa, muskullarning ta'siri tugagandan keyin boyagi burmalar shunchalik tez bilimmay ketadi. Odam keksayib qolganida teri elastikligining yo'qolishiga olib keladi. Peshona, ko'zlarning atrofi va boshqa joylardagi ajinlar shu tarq paydo bo'ladi; burun, lab buralari doimiy tuzga kiradi, chuqurlashadi va hokazo. Mimika muskullari nerv impulslarining ta'siri ostida qisqarar ekan, yuzda burmalar hosil qiladi, ular yuzdagi teshiklar atrofida – og'iz, ko'z yoriqlari, burun teshiklari atrofida yotib, qisqargan vaqtda bularning ko'rinishi va shaklini o'zgartiradi.

Teri qoplamalarining surilishi va og'iz, burun, ko'z shakllarining o'zgarishi odamning yuzida mimika o'zgarishlarini keltirib chiqaradi: kishining yuziga og'riq qayg'u, xursandlik, g'azab va boshqalar alingari turi xissiyotlarga mos keladigan har xil ifodalar qiyofalarini beradi. Shunga ko'ra mimika muskullari insonning ichki hayoti va taabqi taassurotlariga ko'rsatadigan hatti-harakatini ifodalovchi tuzilmalar bo'lib hisoblanadi va shu bilan birga zarur bo'lganda, aksincha, odamga o'zining ichki holatini yashirishga va hatto kishi ko'ziga boshqacha qilib ko'rsatishga yordam beradi.

Mimika muskullari o'rganilganda uch guruhga bo'linadi, ya'ni yuz 3 qismga bo'linadi: yuqori, o'rta va pastki. Birinchi guruhga yuzni yuqori qismidagisiga peshona va ko'z, o'rta qismidagi qismiga ko'z bilan og'iz bo'shlig'igacha bo'lgan muskullar, uchinchi guruhiga esa og'iz bo'shlig'i atrofidagi va engakdagi muskullar kiradi.

Yuzning yuqori qismidagi muskullariga: peshona, ko'zni doiraviy, qoshini chimiruvchi, qovovni ko'taruvchi va burunni piramida muskuli kiradi.

**Peshona muskuli** (m. frontalis) oldingi qismi kalla ustidagi gumbari sohasidagi teri ostida joylashgan. U muskul va pay qismlardan iborat. Muskulli qismi peshona va ensa sohasida joylashgan,

shunga ko'ra bu muskulni peshona – ensa muskuli deyiladi. Muskulning peshona qismidagi qosh terisidan boshlanib, fibroz plastinkaga qo'shildi. Muskul qisqarganida qosh ko'tarilib, peshonada ajin hosil bo'ladi. Ensa bo'lagidagi muskuli ensa suyagining g'adir-budiridan boshlanib aponevrozga qo'shildi. Qisqarganida aponevrozni orgaga tortadi. Peshona muskulining tolalari tikka joylashgan. Qisqarganida kalla gumbazi sohasidagi payini terisi bilan birga pastga tortadi, shunga ko'ra peshona uncha keng ko'rinmaydi. Lekin qoshga parallel holda ajin chiziqlari tushadi. Peshona muskulini qisqarishi yuzda turi holatlarni keltiradi, chunonchi kuchli qisqarganida yuzda hayron bo'lish, bunda peshona juda keng ko'rinadi. Bolalar bilan ayollarda peshona muskuli kuchsiz rivojlanganligi tufayli peshonada ajinlar ko'rinmaydi, faqat qoshni yuqoriga ko'tarilganligi bilan ko'z keng ochilganligi yuzda hayron bo'lish yoki diqqatni o'ziga jalb etadi.

**Diqqat ifodasi.** Peshona muskullari sal qisqargan, qoshlar andak yuqori ko'tarilgan, peshonada mayda ajinlar yuzaga kelgan, ko'zlar odatdagidan ko'ra sal kattaroq ochilgan bo'ladi, qovoqlarning yuqori chetlari ko'z qorachig'larining chetlari bilan rangdor pardalarining chetlari orasida yotadi. Ko'zlar kattaroq ochilganligi sababli ular birmuncha yaltirab turgandek bo'lib ko'rinadi, bu harakat tez bo'lib o'ganda turmushda: "ko'zlar yiltillab keldi" deb aytiladi. Kishining yuzi diqqat qilina yotgan ifodaga kiradi.

**Hayrat ifodasi.** Peshonada muskuli ko'proq qisqargan, qoshlar yuqoriroq ko'tarilgan, peshonadagi ajinlar keskinroq bilini turadi, ko'zlar kattaroq ochilgan, yuqori qovoq cheti rangdor parda chetida turadi. Odanning yuzida hayratlanish ifodasi bor.

**Vahima, dahshat, qo'rquv ifodasi.** Peshona muskuli juda kuchli qisqargan, qoshlar baland ko'tarilgan, peshona esa boshdan oyog tirishib, ajin bo'lib ketgan. Ko'zlar juda katta ochilgan, buni turmushda: "chaqchayib turibdi" deb aytiladi, yuqori qovoq rangdor parda chetidan ko'tarilgan, shuning natijasida ragndor parda yuqori tomonda oq parda bilan o'rallib turadi. Eng so'nggi nihoyasiga yetkazib borilgan bu turq yuzga haddan tashqari zo'r dahshat ifodasini beradi. Keskinlik unga kuchli bo'lmasa, yuzda vahima ifodasi paydo bo'ladi.

Ba'zi kishilarda mashq tufayli yuzini harakatchanligi peshona muskulini alohida chap yoki o'ng tomonga qisqartirishi mumkin.

Peshona muskuliga nisbatan ensa yoki ko'zni doiraviy muskullari antonogist holatda qisqaradi.

**Burunning piramida** (takabburlik) muskuli kichkina muskul boylarni bo'lib, qoshlar orasida tik holatda yotadi. Burun suyagini tashqi yuzasidan boshlanib, yuqoriga kengayib terida qoshlarning o'rtasida tugaydi. Muskul qisqarganida qoshlar orasida ko'ndalang burmalar hosil qiladi, hamda qoshni ichki burchagini pastga tushiradi, shunga ko'ra qoshni o'rtasidagi burmalar qiyshiq holatda ko'rinadi. Bu esa yuzda ichi qoralik, norozilik, dushmanlik tuyg'ulari namoyon bo'ladi. Yuzga qoshlar orasida ajin (chiziq) tushsa, qattiqqo'lik yoki shavqatsizlikni bildiradi. Piramida muskuli odamda ko'proq mutakabir yoki dimog'darlikni eslatadi. Odanning yuziga g'azab, do'q qilish ifodasini beradi. Piramidasimon muskul ba'zan peshona muskulining antonogisti bo'ladi va bu muskulga qarana-qarshi o'laroq peshona terisini pastga tushiradi. Bu muskulning o'zaro ta'siri quyidagiga namoyon bo'ladi: bir tomondagi diqqat muskuli tarang tortganda, qosh yuqori ko'tarilib, peshonada ajinlar va burmalar paydo bo'ladi, ikkinchi tomonda qosh, aksincha, piramidasimon muskul ishi tufayli pastga qarab tortiladi – odanning yuzi nafrat bilan, takabburlik bilan diqqat qilish ifodasiga kiradi.

**Ko'zning aylana muskuli** ko'z kosasining atrofida joylashgan, uch qismdan iborat: ko'z kosasi atrofida joylashgan qismi, qovoqlarda joylashgan qismi va ko'z yoshi qismidan tuzilgan. Ko'z kosasi doiraviy muskul peshona suyagining burun qismidan tepa jag' suyagining peshona o'sig'i va ko'z qovoqlarining medial qismidan boshlanadi. Muskulning tepa qismi peshona va takabburlik muskullariga qo'shilib ketadi. Muskul qisqarganida ko'z yumiladi. Muskulni yuqori tolasi alohida qisqarish xususiyatiga ega, bunda peshona terisini orgaga tortadi va peshonadagi burmalarni yo'qotadi, qoshni buktilganligini tekisladi. Ko'zning doiraviy muskulini yuqori tolalari peshona muskuliga nisbatan antonogist holatida ishlaydi. Bu muskulni yuqori tolalari yuzda o'ylash, fikrlash, diqqat-e'tiborni bir yerga qo'yish alomatlarini eslatadi. Bu muskulni pastki tolalari qisqarganida yuz betini yuqoriga tortadi va pastki qovoqda egatcha hosil qilib, kulgida ishtirok etadi. Muskulning ustki va pastki tolalari qisqarganida ko'zni tashqi burchagida chaqnaib turadigan burmalar hosil bo'ladi, u ayniqsa katta yoshdagi insonlarda doimiy bo'lib qoladi. Qovoqlarda joylashgan muskul esa nozik plastinka shaklida

bo'lib, kuchsiz qisqarganida qovoqlarni pipiradi, kuchi qisqarganida ko'zni yumadi. Ko'z yoshi qismidagi muskul ko'z yoshi suyagining qirrasidan boshlanib, ko'z yoshi xaltasini aylantirib o'tib, ko'z qovoq muskullariga qo'shilib ketadi. Muskul qisqarganida ko'z yoshi oqadi. **Oshni chimiruvchi muskul** (m. coarydator supercilii) ikki qoshni o'rtasida joylashgan, katta lekin juda pishiq. Bu muskul ko'zni doiraviy va peshona muskullarining ostida chuqur joylashgan. Ichki uchi peshona muskullarining ostida juda chuqur joylashgan. Ichki uchi peshona suyagi va burun chokining oldidan boshlanib, ko'zni doraviy muskuli va qoshni terisiga birkadi. Muskul qisqarganida qoshlarni o'zaro yaqinlashtiradi va ikkita tik chiziqli ajin paydo qiladi va qoshni yuqori ko'taradi, o'rta qismini esa bukadi. Yuzdagi bunday holat – kasallik, og'ir ruhiy azob-ugubalar oqibatining natijasidir. Qovonni yuqoridagi ko'taruvchi muskul ko'z kosasini ichida joylashgan. Yuqoririgi muskuli pastki qovoq muskullaridan birmuncha katta va juda harakatchan.

Yuzning o'rta qismidagi muskullariga 5 ta muskul kiradi (yonog, burun yuqori labning kvadrat muskuli, luj va qoziq muskullari). **Yonog muskuli** (m. zygomaiicus) kuchi uzun yassidir, yonog suyagidan boshlanib, og'iz burchagi va lujigga yopishadi. Muskul qisqarganida og'iz burchagini yuqori va yon tomonga tortadi, oqibatida yuzda tabassum paydo bo'ladi. Shunga ko'ra bu muskulni kulgi muskuli deyiladi. Yuzdagi shodlikka yana ko'zni doira va yuqori labni ko'taruvchi muskullar qatnashadi. Yuqori labni ko'taruvchi muskuli uchburchak plastinka shaklda; uchta alohida-alohida boylamli bo'lib, ular yonog ko'z osti va burchak holdagi boshchalaridan iborat. Yonog boshchasi lateral hisoblanib, uncha katta bo'lmagan boylam yonog suyagidan boshlanib, medial tarafga buriladi, burun-labning terisiga qo'shilib ketadi. Bu muskul qisqarganida og'iz burchagini yuqoriga ko'taradi va burun bilan lablar orasida burmalarni chuqurlashtiradi. Ko'z osti boshchali muskulini boylarni to'rtburchak shaklda ko'zni aylana muskulini ostida joylashgan. Ko'z kosasining pastki qing'og'idan boshlanib, burun qanoatlari lab, luj terisiga yopishadi. Muskul qisqarganida yuqori labni ko'taradi, yuqori jag' suyagidagi tishlar ko'rinadi, burun bilan lab orasidagi burmalarni holati suyagidagi tishlar ko'rinadi, burun lab orasidagi burmalarni holati o'zgaradi. Yuqori labni ko'taruvchi muskulning ikkala boylarni qisqarganida inson yuzida g'amgin va norozilik alomati paydo

bo'ladi. Muskulning burchak boylarni esa medial qismida peshona suyagining o'sig'i va yuqori jag' suyagidan boshlanib burun qanoatlarga va yuqori lab terisiga yopishadi. Muskul qisqarganida burun katagini kengaytiradi, yuqori labni ko'taradi, ko'z burchagida pastga qarab nursimon burmalar paydo bo'ladi. Bu muskul qisqarganida odamda yanada kuchliroq norozilik va g'amginlik alomati sodir bo'ladi.

**Yuqori labning kvadrat muskuli – yig'i muskuli.** Ko'z kosasining pastki chekkasidan boshlanib, tolalari burun-lab burmasi orqali pastki tomon boradi va yuqori labning o'rtasida tutashib ketadi; ichki tolalarining bir qismi ham burun qanoitiga tutashib ketadi.

Bu muskul kuchsiz qisqarganida yuqori labning o'rtasini tepaga ko'tarib, burun-lab burmasini qavariq tomoni bilan tashqari va yuqoriga tomon bukadi hamda burun teshigini bir oz kengaytiradi – odamning yuzi yig'lamsiragan ifodaga kiradi. Muskul kuch bilan qisqarganida (yig'i vaqi) yuqori lab yuqoriroq ko'tariladi va burun-lab burmasi ancha yuqoriga tortilib ketadi, uning uski uchi esa pastga, burun tomoniga qarab bukiladi. Burun qanoit yuqoriga tomon tortiladi, burun teshigi ko'proq kengayadi; ko'zning ichki burchagidan tashqi tomonga boradigan ajinlar paydo bo'lib, ulardan yosh tomchilari dumalab tushadi.

**Burun muskuli** qanoatlaridan yuqorida joylashgan ikkita tutamdan (ko'ndalang va qanatsimon) iborat. Ko'ndalang boylarni yuqori labni ko'taruvchi muskulni ostida yotadi. Qoziq tishning tepachasidan boshlab pay holatida burunni orqa tomonidagi o'sha nomdagi muskul bilan birlashtiradi. Muskul qisqarganida burun tog'ayini qisadi, natijada ayrim odamlarda burunning yon tarafidagi terisida burmachiqalar hosil bo'ladi. Bundan tashqari burun kavagi holati o'zgaradi (tashqarga siljiydi). Burun muskulini ikkinchi tutami ham ko'ndalang boylarni joyidan boshlanib burun teshigining atrofidagi terisiga qo'shilib ketadi. Qanatsimon tutami qisqarganida burun teshigi torayadi.

**Burun to'sig'ini past tushiruvchi muskul.** O'z jufti bilan yonm-yon yotib, o'rtadagi kurak tish ustida yuqori jag'ning alveolyar o'sintasidan boshlanadi va yuqoriga tomon borib, burun to'sig'iga tutashib ketadi.

Qisqarganida burun to'sig'ini pastga tortadi va yuqori labning o'rtasini past tushirib, "lablarni qisishga" yordam beradi.

**Oziq muskuli** yassi uchburchak shaklda yuqori labni ko'taruvchi muskulining ostida joylashgan. Keng asosi bilan yuqori jag' suyagidan boshlanib, tor qismi bilan og'iz burchagini terisiga qo'shilib ketadi. Uning ayrim tolalari yuqori lab muskul tutamlariga qo'shiladi. Muskul qisqarganida og'iz burchagini yuqoriga va chetga tortadi.

**Luni muskuli** pastki va yuqori jag' suyaklarning qoziq tishlar sohasidagi tish tepachalaridan boshlanib, yuqori va pastki lablar sohasida, og'iz aylana muskullariga qo'shilib ketadi. Bu muskul og'iz bo'shlig'ining yonbosh devorini tashkil etadi. Muskul qisqarganida og'iz burchagini orqaga, lablarni esa tishlarga va milkka tortadi.

Yuzning pastki qismidagi muskullariga 5 ta muskul kiradi (og'izning aylana, engak, pastki labni pastga tortuvchi, bo'yinni teri ostida va uchburchak muskullari). **Og'izning aylana muskuli** og'iz teshigining atrofiga tepa va pastki lablarning terisi ostida joylashgan, lablar burchagida o'zaro qo'shilib ketadi. Muskulning yuza, chuqur va xalqa shaklidagi tolalari mavjud, ular og'izni yumishda ishtirok etadi. Muskulning oldidan orqaga qarab fibroz tolalari og'izni shilliq pardasi bilan terini mustahkamlaydi. Yuza va chuqur muskullari mustaqil qisqarish xususiyatiga ega. Yuza muskuli qisqarganida lablar bir-biriga yaqinlashadi. Labni qizarib turgan qismi ichkariga bukiladi. Chuqur tolalari qisqarganida lab bo'rtib chiqadi. Og'izning aylana muskuli chaynashda, tovush chiqarishda ishtirok etadi. **Uchburchak muskul** yoki og'iz burchagini pastga tortuvchi muskul, pastki jag' qirg'og'idan boshlanib, pastki lab terisiga va og'izni yoysimon shakliga keltiradi, lab va burun orasidagi burmalari to'g'rilanadi, yuzda umidsizlanish, norozilik holatlari namoyon bo'ladi. Uchburchak muskuli bilan bir vaqtda ko'zni doira muskulini qovoq qismi qisqarsa, odamning yuzida dimog'dorlik va manmanlik alomatlari seziladi.

**Pastki labni pastga tortuvchi muskul** pastki jag'da chuqurroq uchburchak muskulning qisman ostida joylashgan. Pastki jag'ning qirg'og'idan boshlanib pastki lab terisiga birlashadi. Muskulning tolalari og'izning aylana muskuliga ham birlashadi. Qisqarganida pastki labni pastga va chetga tortadi. Bu vaziyatda yuzda nafratlanish holati hukm suradi.

**Pastki labning kvadrat muskuli-jirkanish muskuli.** Engakning yon yuzasidan (bundan oldingi muskuldin ichkari tomonidan) boshlanadi, yuqoriga ko'tarilib boradi va pastki labga tutashib ketadi.

Pastki labni quyi tortib, tashqariga ag'daradi va kishining yuziga jirkanish ifodasini beradi. Bunda o'ng va chap tomondagi muskullar pastki labni har tomonga tortib, uni cho'zadi.

**Engak muskuli** pastki jag' suyagining oldingi kesuvchi tishlari tish tepachalaridan boshlanib iyak terisiga yopishadi. Muskul qisqarganida iyak terisini ko'tarib pastki labni yuqori labga yaqinlashtiradi. O'ng va chap tomondagi muskullar baravar qisqarganida engak terisini shu teridagi yog' bo'lagi bilan birga yuqoriga qarab tortadi. Ayri vaqtda pastki labning kvadrat muskuli ishlamay turgan bo'lsa, engak muskuli pastki labni yuqoriga ko'taradi. Pastki labning yuqoriga ko'tarilishi yuzga takabburlik, kekkayish ifodasini beradi. Agar bunda og'iz burchaklari nafratlanish muskullarining ishi tufayli past tushib turgan bo'lsa, takabburlik ifodasi zo'rayadi.

Engak muskuli ko'pincha pastki labning kvadrat muskuli - jirkanish muskuli bilan birgalikda qisqaradi. Ayri vaqtda engak terisi yuqoriga tomon ko'tariladi va pastki lab uning qarshisiga qarab ag'darilib, odamning yuziga haddan tashqari ko'p jirkanish ifodasini beradiki, buning natijasida engak-lab egatchasi juda chuqurlashib ketadi.

**Teri osti muskuli** bo'yinning terisi ostida yuqqa plastinka shaklida joylashgan. Ayrim odamlarda bu muskul ko'krak fassiyasi va 2 qovurg'a sohasidan boshlanib bo'yinni qoplab chaynov fassiyasiga yopishadi, qolgan qismlari esa og'iz muskullariga davom etadi va og'iz burchagi terisiga qo'shilib ketadi. Muskul qisqarganida bo'yin terisini tortib venada qon oqishini yaxshilaydi. Og'iz burchagini pastga tortadi. Bu muskulning yuqoridan tolalari og'iz burchagi bilan chaynov muskuli fassiyasining orqa tomonida joylashgan qismi **kulpei** deb taladi. Inson kulganda ikki yuzida chuqurcha hosil bo'ladi.

Mimika muskullari insonning ichki hayoti va tashqi taassurotlariga ko'rsatadigan alomatlarni ifodalovchi tuzilmalardir, chunki bu muskullar teriga nozik birikkan muskullarning qisqarishi natijasida yuzning turli qismlarida burmalar hosil qiladi. Shuning uchun yuzning muskullarini o'rganishda uning yo'nalishini faqat o'rganilmasdan, balki muskullari ishlayotgan vaqtda yuzda paydo bo'lgan alomatlarni puxta tahlil qilish lozim.



50 rasml. Insonning turli emosional xolatlarda yuz qismi mimik o'zgarishlari

Avvalo tasvirga mos keladigan qilib ayrim muskullar taranglashadi va o'sha keltirib chiqaradigan o'zgarishlar rasimga tushiriladi, bunda har bir muskul ishini o'rganib chiqiladi, so'ngira yuzning turli qismlaridagi muskullarini birgalikda o'rganilib chiziladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shularni ta'kidlash lozimki, inson portreti ustida ish olib borishda, ayniqsa uning psixologiyasini ko'rsatishda yuz tuzilishdagi mimik muskullarga katta e'tibor berish kerak. 50, 51 - rasmlarda insonning turli emosional xolatlarda yuz qismi mimik o'zgarishlari batafsil ko'rsatib berilgan.



51 rasml. Insonning turli emosional xolatlarda yuz qismi mimik o'zgarishlari (davomi)

50-51 - rasml.

- 1- Tabassum, muloyimlik mimikasi;
- 2- Achinish, hamdardlik mimikasi;
- 3- Takabburlik mimikasi;
- 4- Zo'rlik-zo'ravonlik, jilmayish mimikasi;
- 5- Hayratlanish mimikasi;
- 6- Diqqat mimikasi;
- 7- Chuqur hayolga to'shish mimikasi;
- 8- Jismoniy yoki qalb azobi mimikasi;
- 9- Qo'rquv, dahshat mimikasi;
- 10- Ko'ra olmaslik, badjahillik mimikasi;
- 11- Do'q po'pisa, bagirish mimikasi;
- 12- Jirkanish mimikasi;

## II.5. Yuzning ayrim qismlari va uning plastikasi.

Insonlar kalla skeletining shakli uning burchak o'tkirligi asosida yuzning qiyofasi uch xil burchaklar iborat (o'tkir qirrali, to'g'ri va to'mtoq). Shunga ko'ra yuzning qiyofasi undagi ayrim organlarining shaklini o'zgartiradi, chunki peshona suyagining tik qiya bo'lishi, pastki jag' suyagini buritib chiqqanligi va burunning shakliga bog'liq. Voyaga yetgan odamlarda yuzning burchagi o'tkir qirralidir, u 70°-80° atrofida. Yosh bolalarda esa to'g'ri burchak holatida, chunki kalla skeletining miya qismi yuz qismidan kattadir. Kalla skeletidagi suyaklarning do'ngliklari va yumshoq to'qimalarning qalin va yupqa joylashganligi yuzning shakliga ta'sir etadi. Muskul to'qimasi yaxshi rivojlangan odamlarning yuz qiyofasida suyaklarning do'nglik va qirralari ravon ko'rilmaydi. Teri bilan mushaklar orasidagi yog' to'qimasining kuchli rivojlanganligi yuzdagi muskullarni tekisladi va yuzda bilinar-bilimas qilib ko'rsatadi. Yuzning shakliga tishlar, burun tog' aylari, hamda chaynov muskullarini holati ta'sir ko'rsatadi. Tishlarni tushib ketishi og'izni doiraviy va lunj muskullarining holatiga, u esa yuzni shakliga ta'sir etadi. Bu holat ayniqsa qariyalarda uchraydi.

Chaynov muskullari esa yuzning plastikasida alohida o'rin tutadi. Chakka va yonoq muskullari chakka chuqurchasini to'ldiradi. Yonoq muskulining fassiyasi, yon burmasi do'ngligini tekisladi. Chaynov muskuli pastki jag'ni yon tomonini, hamda yonoq burmasini ustidan qoplaydi. Yuzni qiyofasiga burunning tog' aylari va uni shakli alohida ta'sir etadi. Bularidan tashqari yuzning plastikasiga teri ostidagi yog' to'plami, teridagi burmalar (ajin), qon tomirlari, hamda yuzning ayrim organlari: ko'z, burun, qovoq, quloq, iyak, lab va lunjlar ta'sir ko'rsatadi. Peshonaning shakli uning kenglik chegaralari va undagi egri chiziqlari yuzga o'ziga xos qiyofa beradi. Peshonada mimika muskullari yo'q, unda peshona do'ngliklari bilan qosh ushi ravog'i rivojlanganligi insonni jinsiga bog'liq u erkaklarda ayollarga nisbatan kuchli rivojlangan. Shuning uchun ayollarning peshonasi silliq va tekis. Chakka qismini plastikasida yonoq muskulining yoyi bilan chakka muskulini shakli, chakka chuqurchasi va u yerdagi yog' to'qimasining kuchli rivojlanganligiga bog'liq. Yog' to'qimasining kuchli rivojlanganligi tufayli o'rta yashar odamlarda chakka qismi

bo'rtib chiqqan, ozg'in va keksa odamlarda chakka chuqurchasi chuqur ko'rinadi, yonoq yoyi esa bo'rtib ajralgan holda ko'rinadi.

**Ko'rish a'zosi** — ko'z olmasi va yordamchi apparatlaridan (muskullari, ko'z qovoqlari, ko'z yoshi bezi, kipriklar va qoshlar) iborat. Ko'z soqqasi shaklan sharga o'xshaydi. Ko'z soqqasi kapsula va yadrodan tuzilgan. Kapsulasida uchta parda (tashqi, o'rta va ichki) bo'lib, tashqi pardani oldingi tiniq bo'limi mug'uz (shox parda) orqadagi tiniq bo'lmagan oqsil parda mavjud. O'rta (tomirli) pardada qon tomirlari va pigmenti bor. Tomirli pardada uch qism: asl tomirli, kipriksimon tana, rangdor parda ajratiladi. Kipriksimon tana tomirli pardaning qalin tortgan o'rta qismidir. Uning tarkibida silliq muskul-kipriksimon muskullar boylamlari yordamida gavharga qo'shilgan, qisqarganida gavharni ko'rishga moslashiradi. Rangdor parda tomirli pardaning oldingi bo'limi bo'lib disk shaklida markazida teshtik - qorachig' deyiladi. Rangdor parda (to'r parda) yorug'likni sezuvchi — ko'r dog' (unda yorug'likka sezgir nerv elementlari deyarli yo'q), ko'rish nuqtasi - sarig' dog'dir. Ko'z soqqasining yadrosi suvsimon namlik, gavhar va shishasimon tana oraliq'ida ko'z soqqasining suyuqlik saqlaydigan bo'shliqlari (kameralari) bo'ladi. Ko'z gavhari ikki tomonlama qavariq linzaga o'xshab tuzilgan.

Gavhar tiniq cho'zilgan hujayralardan iborat bo'lib, ko'zning nur singdiruvchi apparatidir. Ko'zni uzoq yoki yaqiniga qarashga qarab o'zgaradi. Gavhardan orga tomonidagi kattaroq bo'shliq suyuq modda bilan to'lgan, shu moddaga shishasimon tana deyiladi. Bu tana ham nur singdiruvchi apparatdan iborat.

Ko'z soqqasining yordamchi apparatlariga teri burmalari, unga yuqori va pastki qovoqlar kirib, pastki qovoqlarning yupqa terisi ostida yog' to'qimasi yo'q. Ko'z qovoqlarining ichki yuzasi qo'shuvchi to'qima pardasi kon'yunktiva bilan qoplangan. Bu parda qovoqni yopadi va ko'z soqqasiga ham o'tadi. Ko'z yosh apparatiga ko'z yosh bezi bilan chiqarish yo'llari kiradi. Ko'z soqqasining muskullariga: ko'zning yuqori va pastki, qiyshiq muskullari kiradi. Bundan tashqari yuqori qovoqni ko'taruvchi muskul ham mavjud. Insonda uch xil ko'zning rangi ajratiladi: yashil, to'q jigarrang va ko'kish. Bular oralig'idagi rangdagi ko'zlar ham oz miqdorda uchraydi. Ba'zan o'ng va chap ko'zning rangi ham har xil bo'lishi mumkin. Ko'z ochiq turganda xuddi bodom shaklini, yopganda esa pastki tomonga bo'rtib chiqqan yoy shakldagi chiziqni eslatadi.

Tashqi tarafi burchak shaklda, ichki tarafi esa dumaloqlashgan biroz sur'g'ichga o'xshash muskulli, tashqi tarafga qarab yarim oy shaklidagi burmali parda ko'rinadi. Ba'zi insonlarda bu burma kuchli rivojlangan bo'lib ko'zni tashqi ko'rinishini va plastikasini o'zgartiradi.

**Qovoq** - bu terining burmasi bo'lib, ko'z soqqasini himoya qiladi. Ko'z doiraviy muskullarning to'larini qisqarishi tufayli qovoq yuqoriga va pastga siljiydi va ko'z osiladi. Yuqori qovoq pastkisiiga nisbatan juda harakatchan. uar bir qovoqning asosini zich brikuvchi to'qima plastikasi yoki qovoq tog'ayi tashkil etadi. Qovoq ochilganida bu plastinka teri ostiga kirib, u yerda burma hosil qiladi. Bu burma (bo'rtna) ning hajmi turlicha. Katta insonlarga nisbatan yosh bolalarda bu holat kuchli. Qovoqning tashqi va ichki chetlarida boylamlar bo'lib, ular ko'z kosasining suyagiga yopishadi. Qoshning tashqi qismi silliq, yupqa teri bilan qoplangan. Qariyalarda unda mayda-mayda burmalar, ajinlar tushadi. Pastki qovoqni terisida ko'p miqdorda kichik tomir kapilyari bo'lib terini to'q rangga va ko'zni gumbaz bor. Qovoq konyuktivasining ko'z soqqasiga o'tgan joyi gumbaz deyiladi. Qovoqlarning bo'sh chekkalarida kipriklar joylashgan. Ko'zning plastik xususiyati shundan iboratki, uning shakli, kattaligi, soqqachasi, ko'z kosachasida joylashgan uning muskullari rivojlanganligi harakati, qovoq, kiprik va qoshlarning holatlariga bog'liq. Ko'z kosachasining (chig'anog'i) shakli bo'yicha baland, past, burchakli, yumaloq, hamda uning oldingi cheti o'tkir, to'mtoq, egilgan yoki bukilgan holatida bo'ladi.

Ko'z chig'anog'ining bunday anatomik xususiyati o'z o'rniida qosh ustidagi yoy shaklidagi burmalar qoshning holatiga va ko'zni kesmasiga ta'sir ko'rsatadi. Ko'z kosachasining skeleti uch xil bo'ladi: gorizonta chiziq bo'yab, o'rta va yuqoriga ko'tarilgan holatda. Ko'z olmasining holati yana ko'zning orqa tomonlari yog'to'qimasining miqdoriga ham bog'liq. Shunga ko'ra ko'zi chig'anog'ga juda botgan (ichiga kirgan) yoki bo'rtib chiqqan holatda bo'ladi.

Ko'z olmasining holati yuz ko'rinishi xarakterini belgilaydi. Yuqori qovoqni pastga tushirilganida charchoqlik, uyqu bosish alomatlar seziladi, pastki qovoq yuqoriga ko'tarilganida yuzda kulgi, tabassum alomatlar seziladi. Yuqori qovoq bilan peshona terisining

chegarasida qosh joylashgan bo'lib, u yoysimon, keng, ingichka, uzun, tor, qalin, siyrak, to'g'ri va qiyshiq shaklda uchraydi. Qosh o'zining harakatchanligi va shaklini o'zgartirishi bo'yicha mimikada katta rol o'ynaydi. Qoshni yuqoriga ko'tarilishi peshona va qoshni harakatga keltiruvchi muskullarning qisqarishi tufayli amalga oshadi. Bu holat ajablanish, diqqat yoki berilgan savollarga birdaniga javob berishda kuzatiladi. Qoshning pastga tushirish ko'zni doiraviy muskullarni qisqarishi tufayli amalga oshadi, bunda inson hayolga, o'ylashga chalindi, qoshlarni bir-biriga yaqinlashtirilganida esa biron narsani o'ylash yoki kasallik alomati seziladi.

Ko'zlarni tuzishda ko'zning qovoqlar bilan birgalikda ko'z kosasi chetlari orasidan chiqib turadigan sharsimon tana hosil qilishini esda tutib o'rta chiziq o'tkazib olish va ko'z yorig'i boshdan-qovoq simmetrik emasligini esda tutib, ko'z bilan qovoqlarni shar tariqasida tuzish kerak, chunki ko'zlar ko'pincha simmetrik bo'lmaydi, hamma bir xil balandlikda yotavermaydi, shunga ko'ra o'ng va chap tomonning assimetriyasini asosan ko'z va qosh assimetriyalarini rassom payqab olishi zarur. Qoshlar peshona suyagining cheti bo'yab joylashishida ko'pincha qiyshiq - yuqoriroq yoki pastroqda yotadi. Shunga ko'ra bosh rasmini chizishda avvalo peshonaning shakli, so'ngra qoshlar chiziladi.

Burun uchburchak piramida shaklda va uchi noksimon teshigidan iborat, burunning tashqi qismi va burun bo'shlig'i ichki qismi bo'lib burun suyaklari, tog'ay va muskullardan tashkil topgan. Burunning tashqi qismiga ildizi deyiladi, u asosan yuqori qismida ikkita ko'z kosachasi suyaklari orasida joylashgan. Burunning uchi esa burun katagini tashkil etadi. Burunning tashqi shakli burun va peshona suyaklarining birlashishidan va peshona suyagiga, burun suyagining shakli va qiyofasiga va noksimon teshigi, hamda yumshoq to'g'imalar bilan burun tog'ayi holatiga bog'liq. Burunni shakli va qiyofasi eng avvalo noksimon teshigiga o'z o'rniida peshona suyasining o'sig'i, hamda katta qanotsimon tog'aylari teshigiga qaratiladi. Burunda bir qancha tog'aylar mavjud. Burun to'sig'ining tog'ayi to'rtburchakli tog'ay bo'lib, unga ikkita yon tarafdagi tog'ay va tepa yon taraf devorini shakllantiradi. Uning pastrog'ida katta va kichik qanotsimon tog'aylar bo'lib, burun uchini va burun katagini tashkil etadi. Burun shakli bo'yicha: to'g'ri, burun, puchug va qaqdaygan burunga tafovut qilinadi. Burun shakliga yuzning mimika muskullari va burunning

piramida muskuli ta'sir etadi. Burunning piramida muskulining qay holda rivojlanganligi, hamda burun suyaginging uzunligi uning qiyofasini tashkil etadi. Burunning muskuli yupqa, nozik bo'lganligi tufayli burun plastikasiga ta'sir etmaydi.

Yuzni tuzishda burunning o'ra chizig'ini belgilab olinadi, shunga ko'ra burunning o'ng va chap tomonlari shakllantiradi. Burun uchining old qismi qirrasiga nisbatan oldinga ko'tarilib turishiga e'tibor berish lozim. Burunning rasmini chizishda, uning ikki yon yuzasi, qirradi va pastki yuzasining shakliga va burun teshtiklarining simmetriyasiga e'tiborni qaratiladi.

**Og'iz bo'shlig'idagi pastki va yuqori lablar va og'izning doiraviy muskullarini tashkil etadi.** Labning oldingi yuzasi teri bilan qoplangan, uning ostida teri yog' kletchakasi joylashgan, ichki tarafdin shilliq parda qoplangan. Labni yuza qismi fibroz parda bilan qoplangan. Yuqori lab – pastki labdan shakli bo'yicha farq qiladi. Yuqori lab cheti burunning asosini hosil qiladi, yon tarafi burun bilan og'iz burmasini, hamda yuqori labni lunjdan ajratadi. Yuqori lab o'rtasida pastga qarab biroz do'nglik mavjud. Do'nglik kattalashganida og'izni o'ra chizig'ini o'zgartiradi. Pastki labni ostidan to'engakkacha yoyimon egacha mavjud. Turti odamlarda labning shakli, qalinligi, kengligi turlicha, shunga ko'ra 4 xil shaklga bo'linadi: juda ingichka, o'rta, qalin, do'ppayib chiqqan. Labni shakli muskullar bilan lunj, milk, jag'larni ulardagi tishlarni holatiga va ovqatni chaynashda yuqori va pastki tishlarini bir-biriga mos tushishiga bog'liq. Og'iz plastikasi ko'proq mimika muskullarining harakati orqali amalga oshadi, kulish yoki hafa bo'lish jarayonlari bir-biridan keskin farq qiladi. Engak qismi plastikasi og'iz plastikasi bilan bog'liq. Pastki jag' suyagi va uning burchagi engakni oldinga yoki orqaga suradi. Pastki jag'ni burchagi qanchalik to'g'ri bo'lsa, shunchalik engak oldinga chiqmaydi, o'tmas burchak asosida bo'lsa, pastki jag' va engak pastga tushadi. Engak ko'rinishi bo'yicha ikki xil bo'ladi (nozik va og'ir). Og'ir tipdagi engak baland bo'yli, kuchli insonlarga taalluqli. Lunj – yuqoridan yonq suyagi va yoyi hamda burun, labning medial burmasidan va pastki jag' bilan quloqning lateral qismini egallaydi. Plastikada lunjning o'rta qismidagi suyaklardagi do'nglik va chuqurlari ifodalanaadi, ayniqsa, kulgi chuqurchasi yoki yonq yoyini burmasi ko'zga tashlanadi. Lunj

muskulining ustidagi yog' kletchakasi yuzda silliqlikni beradi. Bu holat yosh bolalarda va ayollarda yaxshi ifodalangan.

Tasvirlashda og'iz kesmasi chizig'ini aniqlab, simmetrik lablar shaklini o'ng, chap tomonga va ichkariga qilib tuzib chiqish kerak: og'iz kesmasi chizig'i yuqori va pastki lab shakllarini to'g'ri topish natijasida aniqlab olinadi. Yuqori lab odada pastki lab ustida sal ko'tarilib turadi, tishlar tushib ketganida, lablar ichkariga tortilib ketadi, ko'pincha og'iz simmetrik holatda bo'lmaydi. Shuning uchun rasm chizishda shu elementlariga alohida e'tibor berish kerak.

**Quloq.** Plastik anatomiyada faqat quloq supراسi o'rganiladi. Quloq supراسi teri bilan qoplangan elastik tog'aydan tuzilgan. Supراسining tog'ayi quloq chetida qayrilib, supra burmasini hosil qiladi. Quloq supراسining ichida supra burmasiga parallel joylashgan bo'rtna bo'lib, ular oralig'ida ariqcha joylashgan. Quloq supراسining pastki qismi tog'ay plastikasi o'rtna yumshoq yog' qatlarni mavjud. Quloq supراسining ichkarisida quloq teshtigi, old va orqa tomonida joylashgan do'mboqlar chegaralaydi. Quloq supراسining uzunligi, burunni umumiy uzunligiga, eni uzunligining yarmiga teng. Chiroyli quloq supراسida qo'yidagi elementlariga e'tibor beriladi: uzunligi o'rta, chakka suyaginging so'rg'ichsimon o'sig'i atroftida, oval shaklida, supراسining yuqori qismi qoshni yoyidan o'tmasligi lozim. Quloq supراسi erkaklarda ayollarga nisbatan katta. Quloq supراسining tashqi cheti biroz tashqariga buriladi. Shu burmaga parallel holatda boshqa burma mavjud. Turti odamlarda burmalarning holati har xil, ba'zi insonlarda quloq supراسining burmasi kuchli o'ralgan yoki burmasi yo'q, bu esa ko'zga yaqqol tashlanadi. Quloq supراسining pastki qismidagi tog'ay har xil kattalikda va shaklda bo'lib boshqa har xil yo'sinda birlikkan. Quloqni boshda joylashishi rasmini chizishda o'ng va chap quloqlarni o'zaro munosabatini aniqlaniladi, so'ngra quloqni uzun o'qi pastki jag' shohiga parallel yotishini, quloq ortig'i yonq ravog'ining boshlanish joyidan pastrog'ida joylashganligini, quloq salinchog'i esa pastki jag' burchagidan birmuncha yuqori turishiga e'tibor berish kerak.

### III BOB. TIRIK ODAM BOSHI RASMINI CHIZISH

Talaba gips bo'laklar rasmini chizishdan tirik odam boshi rasmini chizishga o'tar ekan, o'z ishida juda ko'p qiyinchilik va murakkabliklarga duch keladi. Bu qiyinchilik va murakkabliklar shundan iboratki, talaba avval chizgan gips modeli doimiy, muhim holatda turgan; boshning yorug'lik bilan yoritilishi, soya, yarim soya va tushayotgan soya vat tus berish kuchi rasm chizishning hamma seanslari davomida o'zgarib turgan. Tirik bosh esa har doim harakatda bo'ladi; Naturachi o'ziga bo'lsa ham qimirlab ketse, soya va yarim soyalar xarakteri o'zgaradi. Undan tashqari tirik bosh tasviri bilan gips boshni tasvirlashni taqqoslashdagi asosiy murakkablik shundan iboratki, bu o'rinda rasm chizuvchi ko'p narsani o'zi mustaqil ravishda hal qilishga, o'z idroki va ijodiy qobiliyatini doimo faollashtirishga majbur bo'ladi. Gips namunalarda talaba shaklini umumiy ko'rgan, ushbu haykal namunasi yaratgan buyuk usta barcha favqulodatlilarni, mohiyatsizliklarni chetga chiqarib tashlagan va e'tiborini asosiy narsaga qaratgan. Tirik bosh rasmini chizishda rasm chizuvchi endi bularni o'zi amalga oshirishi-asosiy narsani ikkinchi darajalidan ajrata bilishi kerak bo'ladi.

Tirik bosh shaklini gips shakliga nisbatan rasmini chizishdan murakkablik shuningdek, shakliga tus berishda ham tug'iladi. Gips bosh materialining tus va fakturasi ham bir xilda bo'lgan, faqat yorqin va bo'g'iq joylardagi tus kuchi o'rtasidagi farq shakling u yoki bu yuzasi qanday yoritilganligiga bog'liqdir. Tirik naturadan rasm chizishda shakliga tus berish yana shu bilan murakkablashadiki, naturada turgan kishining yuzi, sochlari, ko'zlari, yonoq va lablari har xil tusda bo'ladi. Yonoqlar, lablarning qizg'ish tuslari go'yo bir xil yoritilishda tursa ham sal bo'g'iqroq tuyuladi. Tirik bosh shakl yuzasining turli rangda bo'lishi shakling o'zini ko'ra bilishni qiyinlashtiradi, rasm chizuvchini u shaklini tasvirlash o'miga yorqin va bo'g'iq rang dog'larini ko'rish va undan nusxa ko'chirish, ba'zan esa naturada yo'q narsalarni ham o'yib topishga majbur qilib qo'yadi.

XVIII-XIX asrlarning klassik badiiy akademiya ta'lim tizimida odamning tirik boshini chizishga maxsus o'rgatish borasida lozim darajada e'tibor berilmagan. Gips boshlar rasmini chizishdan gips haybosh rasmni, ulardan so'ng esa yalang'och tirik odam qomatini chizishga o'tilgan. Unda rassomning gips boshlarni chizishda olgan

bilim va malakalari tirik bosh va portret chizish uchun yetarli, deb hisoblangan.

Badiiy ta'lim sohasidagi bizning tizim gips boshlar rasmini chizish bosh shakli qurilishining hamma qonuniyatlari va xususiyatlarini to'liq o'rganishni taqozo etadi. Chunki, tirik boshning plastik xarakteristikasi nafaqat asosiy muskul va bosh suyaklarining, balki mimik muskullari xarakati va ko'zdan yashirin bo'lgan kala suyagi qurilishining boshqa xususiyatlariga ham bog'liqdir. Talabalar gips modellar rasmini chizganlarida faqat uning dastlabki asoslarining o'zlashtiradilar va odam bosh shakli qurilishi qonuniyatlarning o'ziga qisman qismini o'zlashtiralar tirik bosh shaklini tasvirlash uchun yana bir qator qonuniyatlarni o'zlashtirishlari zarur.

Rassom bosh shakli qurilishi qonuniyatlarining ilmiy bilimlariga ega bo'lmay turib, so'zsiz naturaning passiv nusxa ko'chiruvchisi bo'lib qoladi, natura uning butun diqqat-e'tiborini jalb qiladi, uning qiyofasidan nazarini olib qochishga qo'rquadi va ushbu natura qurilishining qonuniyatlarini idrok etolmaydi, binobarin ulardan o'z ijodiy ishida foydalana olmaydi ham. O'z qiyoyi ijod erkinligiga erishish uchun rassom ilmiy bilimlar bilan qurullanishi zarur va Ushbu bilimlar yordamida boshning har bir chuqurchasi va bo'rtib chiqqan joylari nimaga asoslanganligini bilishi lozim.

O'zining ifodaliligi, tabiat qonunlariga asoslanganligi bilan hamuzgacha hammamni lol qoldirayotgan uyg'onish davri rassomlari yuksak ilmiy bilimlarga ega edila rva bu bilimlarga alohida ahamiyat berardilar. Rang tasvir haqidagi o'zining asarida A.Dyurer shunday yozgan edi: «Agar senda haqiqiy asos bo'lmasa, sening qo'ling qanday erkinlikka erishgani bilan baribir hech qanday yaxshi narsa qilishga erisholmayasan. Shuningdek, sen haqiqiy bilim tufayli ancha dadi va har bir ishda takomillashganroq bo'lasan».

Rassom tirik bosh shaklini chizish ishida oldida turgan bir qator quyidagi uchta vazifani bir yo'la hal qilishi kerak:

- 1) *Hajmli bosh shaklining ishonchli chiqishligiga erishish.*
- 2) *Rasmda kalla suyagi va muskullar mutanosibligini aniqlash.*
- 3) *Portreti tasvirlanayotgan insomning xarakteristikasining individual xususiyatlarini ochish.*

Bu vazifalarning hammasini muvaffaqiyat bilan hal qilish uchun rassom shakl qurilishining induvidual xususiyatlarini u yoki bu detalning joylashishini chuqur sezishi, oldindan esa uning qonu-

niyatlarini yaxshi bilishi kerak. Shuning uchun tirik bosh rasmini chizishga kirishishdan oldin Bosh suyagi va uning muskulli qoplanishini qurish xususiyatlarini asoslovchi anatomiya va boshqa fanlar qonuniyatlarining ilmiy qoidalariga qaytamiz.

Biz o'quv rasmining ilmiy asoslari, deganimizda eng avvalo, har bir rasm chizuvchidan talab qilinadigan ilmiy qoidalarining bajarilishini nazarda tutamiz. Masalan, biz talabani rasm chizishga o'rgatar ekanmiz, ularni perspektiva qoidalarini va qonuniyatlariga aniq rioya qilishga majbur etamiz. Odam boshining anatomik qurilishini tahlil qila borib, tasvirda inson boshining strukturasi va muskullarining joylashish qonuniyatlariga rioya qilish talab etiladi. Rasm chizish usuli induvidual tarzda bo'lishi mumkin, lekin muskullar, suyaklar, paylarning joylashish qonuniyatlarini to'g'ri, bir xilda ochish kerakki, bular endi tasviriy san'atning ilmiy qoidalaridir. Tus berish, proporsiyalar, shaklning konstruktiv asoslari haqida ham shularni aytilish mumkin.

Yuqorida o'quv akademik rasmining ilmiy asoslari haqida ko'p gapirildi. Ushbu mavzu bundan keyin ham davom ettiriladi, chunki akademik rasm mohiyati ham shundadir-ushbu tizimda ta'lim olayotgan o'quvchilar, ilmiy bilimlar bilan muntazam boyib boradilar, ta'lim uslubini esa jiddiy ilmiy yo'nalishda kechadi. Qadimda turli akademiyalarning gullab-yashnash davrida Ushbu taomilga qat'iy rioya qilingan.

Mazkur qo'llanmada biz ushbu so'zning keng ma'nosida akademik yo'nalish yo'lidan boramiz, shuning uchun ham biz «o'quv rasmi» emas, balki «akademik rasm» atamasini ko'proq qo'llaymiz. O'quv rasmini modernistlarda ham bor, ular ham endi boshlovchi rassomlarni o'z san'atiga o'qitadilar va ularni shunga tayyorlaydilar. «O'quv rasm» tushunchasiga san'atga bo'lgan har qanday tendensiya va qarashlar kirishi mumkin. «Akademik rasm» deganimizda biz realistik san'at prinsiplari va uslublarini nazarda tutamizki, unda har bir vazifa ilmiy-nazariy asosga ega bo'ladi, ta'lim esa ma'lum tizimga bo'yunadi.

Akademik ta'lim tizimiga asosan o'arbiy Yevropa, rus va o'zbek milliy realistik san'atning eng yaxshi an'alariga, hozirgi zamon pedagogika va psixologiyasining ilmiy jihatlari asoslanadi. Akademik ta'lim yosh rassom oldida borliq hodisalarning go'zallik va betakrorligini namoyon etishdagi moddiy borliqning ob'ektiv

qonunlarini ochadi. Bularning hammasi tabiatning eng go'zal mahsuli inson qiyofasi, xususan odam boshini tasvirlashga ham bevosita aloqadordir.

Tabiiyki, dastlab o'qituvchi odam boshini shakli qurilishi sxemasini tushunishi va eslab qolishi, ularni amaliyotda qo'llashni o'rganib olishi kerak. Taklif qilinadigan sxemalar va shakl tahlil qilish prinsiplari bo'yicha bosh tasvirini qurish jarayoni hatto o'quv paytida ham ijodiy jarayon hisoblangani uchun ham u keyinchalik yosh rassomga ishlashning o'z shaxsiy usullarini topish imkonini beradi, lekin bunga shoshmaslik lozim. Dastlab bosh shaklning konstruktiv-anatomik tuzilishini mukammal o'rganib chiqish, ya'ni odam boshi anatomiyasini o'rganish kerak.

Talaba plastik anatomiyani o'rganar ekan, shaklning tashqi tomonini kuzatish bilan cheklanib qolmaydi. U shuningdek, mulohaza bilan fikr yuritayotgan anatom olim kabi shakl ichiga kirib borishi, inson tanasi qurilishining qonuniyatlarini tushunib yetishga harakat qilishi lozim. U o'z kuzatishlaridan xulosa va umumlashmalar chiqarishi, ba'zi muskul shakllarining ko'rinishidagi o'zgarishlar qoidalarini va me'yorlarini belgilaydi. Insonni bunday chuqur ilmiy o'rganishda Leonardo da Vinchi, Mikelandjelo, Losenko, Shabuyev va boshqalarning rasmlarini misol tariqasida ko'rsatish mumkin. Leonardo da Vinchi rasminida biz nafaqat tashqi muskullarning ajoyib bilimini, balki chuqur yotgan paylar, kemirchak (tog'ay) larni ham ko'ramiz. 37-rasm. O'tmishning buyuk ustalari inson tanasining va bosh tuzilishining anatomik qurilishini diqqat bilan o'rganganlar va suyaklar, muskullar, paylarning, jumladan, angiologiyaning (qon tomirlarining joylashishini o'rganuvchi fan) asosiy xususiyatlarini eslab qolganlar. Bu bilimlar rassomlarni boyitgan va ularni kasb mahorati cho'qqilariga yetaklagan.

Bu yuqorida aytib o'tilgan fikrlarning hammasi naturadan rasm chizishdagi chuqur ilmiy bilimlarni talab etilishidan dalolatdir. Talaba naturani o'rgana borib, jiddiy ilmiy ma'lumotlarga tayanib, uning qurilish qonuniyatlarini idrok qilgan holda suyak va muskullar qurilishining umumiy uyg'unlashuvini tushuna boshlaydi.

### III.1. Bosh suyagi bo'laklari

Biz odam boshi shakliga bag'ishlangan qo'llanmada yana bosh suyagi so'ngaklarini tahlil qilishdan boshlaymizki, tirik boshni tasvirlashda bularni bilish juda muhimdir. Bosh suyagi so'ngaklarini tahlil qilishda chakka suyagi, jag' suyagi shakllarining xarakteriga, jag' suyagi o'simasiga, pastki jag' va ensa (gardan)larga alohida e'tibor berish kerak. Shuningdek, katta ensa, chuqurchasi va ellipsoid shaklidagi ikkita bo'rib chiqqan qismiga (ular yordamida gardan suyagi atlant, bo'yin suyagining yuqori umurtqasi bilan tutashadi) e'tibor qaratish kerak. Bu suyaklarning hammasi Bosh suyagining umumiy xarakteri kabi har xil tomondan o'rganilishi kerak. Rassom uchun eng asosiyi esa, bu o'rganishlarning

hammasi qo'lda qalam va qog'oz tutgan holda o'tishi lozim. Shuning uchun oliy o'quv yurtlarida tirik bosh rasmini chizishda birinchi topshiriq Bosh suyagini ikki burilishda (52-rasm) chizish topshiriladi.

Shunday qilib Bosh suyagini chizishda shu narsani esda saqlab qolish kerakki, Bosh suyagi ikki qisimdan-Bosh suyagi quti (ensa, gardan tomon) va old qisimlardan iborat bo'ladi, ular turli shakl va o'lchamli juda ko'p so'ngaklardan tashkil topgan.


Bosh suyagi quisi olitta suyakdan tashkil topgan bo'lib, ular o'zaro tishsimon choklar bilan birlashtirilgan (ensa, orqa), peshona (old), ikkita tomon tepa suyagi va ikkita chakka (yon) suyaklar.

Old qismi ikkita ko'z kosasi (chanog'i, noksimon shaklidagi burun kosasi, ko'z kosasining ostidan jag' suyagi (jag' suyagi o'sintasi bilan), ustidan qosh usti va chakka suyaklari qoplangan. Burun kosasi (chuqurchasi) dan yuqorigi jag' suyagi, pastidan esa bosh suyagining old qismiga ikkita simmetrik bo'laklar-o'ng va chap bo'laklardan iborat pastki jag' tutashadi.

Bu suyaklar shaklining xarakter iva ularning qurilish xususiyatlariga va umuman bosh shaklining xarakteristikasiga bog'liqdir. Shuning uchun naturadan Bosh suyagini chizar ekansiz, har bir suyakning umumiy shaklini eslab qolishga harakat qiling. Chunki ular har bir kishining tirik boshini tasvirlayotganingizda zarur bo'ladi. Jag' suyagi va jag' suyagi o'sintasi shaklining xarakterini eslab qolar ekansiz, tirik bosh rasmini chizishda yonoqlar shaklining to'g'ri modellashiga vash u joyning o'zida quloq suprasini

tasvirlashda sizga yordam berishligini nazarda tutish kerak. Jag' suyagi o'sintasining kattaligi taxminan to'rt enli keladi va jag' suyagi o'sintasining uchi doimo quloq supراسي va (bukri) o'rtasiga joylashgan bo'ladi. Buni har Kim o'zida tekshirib ko'rishi mumkin. Jag' suyagi o'sintasini ushlab ko'rib, hamma ham u quloq supراسي o'rtasiga kirib borishligini o'sintani paypaslayotgan barmoq esa (bukriga) taqalayotganligiga ishonch hosil qilishi mumkin. Bu narsani bilmay turib o'quvchi odatda quloqni yo yonoqda, yo ensada aks ettirib qo'yadi.

Ensa (gardan) suyagining so'rg'ichsimon o'sintasi har qanday kishida yaxshi ko'rinadi, u boshni yelka suyagi bilan tutuvchi ko'krak-o'mrov muskullarining birlashtiruvchisidir. So'rg'ichsimon o'sintalarining joylashishiga muskullar shaklining xarakter iva umuman bo'yin xarakteri bog'liqdir.




52 rasm. Bosh suyagining olitta bosqichda metodik izchillikda tasvirlanishi.

Asosi taqasimon shaklga ega bo'lgan pastki jag' o'z shoxchalari bilan yonoq o'simtasiga kirib boradi va yonoqlar ustida o'ziga xos xarakterdagi chuqurcha hosil qiladi.

Bosh suyagi qutisining chakka oldi yuzalari ham ichkariga, yonoq suyagi o'simtasi ichiga tortgan bo'ladi, buni tirik bosh rasmini tasvirlashda hisobga olish kerak.

Peshona suyagi uchta katta yuzalardan tashkil topgan bo'ladi: bittasi-peshona bugrilar bilan peshona o'rtasi va peshona bugrilaridan chakka suyaklarga tortilgan ikkita yon. Vertikaliga ko'ra peshona suyagi qismiga ajraydi: yuqori qismi-peshona bugrilar, pastki-qosh usta chiziqlari.



53 rasm. Yosh xususiyatiga ko'ra yosh bola bosh suyagining ko'rinishi.

Bosh suyagi qumuniy qonuniyatlarini o'rganib olib, uning yoshiga ko'ra o'zgarishlarini ham hisobga olish zarur. Bosh suyagi qurilishining umumiy qonuniyatlarini o'rganib olib, uning yoshiga ko'ra o'zgarishlarini ham hisobga olish zarur. Bosh suyagining yoshiga ko'ra o'zgarishlarini beshta davga ajratish mumkin: birinchisi — tug'ilishdan yetti yoshgacha; ikkinchisi — yetti jinsiy yetuklik yoshigacha (16 yosh); uchinchisi — o'n olti yoshdan 30 yoshgacha (to'liq o'sish va rivojlanish yoshigacha); to'rtinchisi — 30 yoshdan 60 yoshgacha va beshinchisi — 60 yoshdan katta yoshgacha.



54 rasm. Yosh bola bosh suyagining tuzilishining o'ziga xos hosiligi va qurilishi

Yosh go'daklarda kala qutisining miya qismi old qismiga qaraganda ancha katta bo'ladi.

Ikkinchi davrda suyaklarning o'sish jarayoni sekinlashadi va old gardan suyaklarining o'lehamlari o'rtasidagi farq uncha bo'lmaydi. Uchinchi davrda peshona suyagi tez rivojlanadi, bosh suyagining miya qismi kengayadi va yuqoriga qarab o'sadi. Old qismi uzunlashadi, yonoq suyagi yo'ylari keskin yozila boshlaydi. Kala suyagi uzil-kesil, ya'ni katta kishilarga xos ravishda shakllanadi. To'rtinchi davrda suyaklar o'sishdan to'xtaydi va hech qanday o'zgarish sodir bo'lmaydi. Beshinchi davrda old qismi o'zgara boshlaydi, ya'ni kichrayadi, tishlar to'kila boshlaydi. Buning natijasida pastki jag' ko'tariladi, dahan keskin old tomonga turib chiqadi, yuz qisqaradi; bosh suyagining choklari qotadi.

Tajribali rassomlar bu xususiyatlarini hisobga oladilar va ularni rasmda ishonch bilan aks ettiradilar. Masalan, bola boshining tasvirlarini beruvchi mashhur Rubens rasminida 53-rasm bola bosh suyagining o'ziga xos qurilishini ko'ramiz: bosh suyagi qutisining kala yuqori qismi kichik old qismiga nisbatan farqi seziladi. Anna shu

munosabat bilan Rubens o'z o'tmishdoshlari kabi san'atni aniq fanlarga qiyoslab ilmiy idrok etish usuliga amal qilgan va odam boshi jumladan, go'dak boshining doimiy shakllanish qonunini ilmiy nazariy jihatdan asoslashga va tasvirlashning o'ziga xos uslubini ishlab chiqishga harakat qilgan. Ushbu misol yana bir karra shuni tasdiqlamoqdaki, realistik yo'nalishda rasm chizuvchi uchun haqiqiy ilmiy bilimlar juda zarur. Uning bu harakati san'at qoida va qonunlarning keragi yo'q, ular ijodiy imkoniyatlarni tor doiraga solib cheklab qo'yadi, degan fikrdagi kishilarga javob bo'ladi. Tabiat va san'at qonuniyatlarini bilmay turib formalist rassom odam tasvirini real borliqqa muvofiq tasvirlay olmaydi.



55 rasm. O'ziga xos yuz tuzilishiga ega bo'lgan o'smirmning portreti


54-rasmdagi xomaki tasvirda o'ziga xos yuz tuzilishiga ega bo'lgan o'smir ta'svirlangan. Bu o'rinda biz Bosh suyagi qutisi (miya

qismi) old suyakka nisbatan uncha kattaligicha turganligini ko'ramiz. Peshona suyagidagi peshona bugriylari xali rivojlanib yetganicha yo'q. Yonoq suyaklari (yonoq o'simalari) hali to'la shakllanmagan, paski jag' ham shunday.

O'rta yoshda peshona suyagi kuchli rivojlanadi, old qismi uzunlashadi yonoq suyaklari yoylari keskin yozila boshlaydi. Inson keksayganda tishlari to'kilib ketishi munosabati bilan dahan keskin oldinga turtib chiqadi, old qismi kichrayadi. Odanning tirik boshini tasvirlashda Bosh suyagi qurilishi haqidagi bilimlardan tashqari rassom boshning yelka kengligi bilan tugashish qonuniyatlarini ham bilishi kerak. Bosh suyagi qutisi yelka kengligi Bilan yettita bo'yin umurtqalari yordamida tutashadi. Bu umurtqalar birining ustiga biri joylashgan bo'ladi, lekin ular orasida bukiluvchan tog'aylar bo'ladi, bir tomondan ularni birlashtirib tursa, ikkinchi tomondan ularning harakatlanishiga imkon tug'diradi. Birinchi umurtqa yuqorida bo'lib unda Bosh o'mashgan bo'ladi va atlant deb nomlanadi (osmonu falakni tutib turgan afsonaviy devomat Atlantga o'xshatish o'rtasida yunalog teshik bo'lib gandan (ensa) suyagi bo'g'inini o'simala) bilan birkadi. Bosh harakatga kelganda atlant faqat bosh orqaga va oldinga egligandagina ishtirok etadi. Ikkinchi bo'yin umurtqasi epistropey (o'q) ataladi. Uning yuqorigi o'simali Tish ko'rinishida vertikal ravishda yuqoriga ko'tariladi va atlant teshigiga kirib boradi hamda unda o'q (o'zak) rolini o'ynaydi. Uning atroflida esa bosh o'ng va chap tomonga harakat qiladi. Yettinch bo'yin umurtqasi biz uchun uning turtib chiqqan qismi yaxshi ko'rinishi va odamning belidan yuqori va qomatni chizishda mo'ljall bo'lib xizmat qilishi uchun ham muhimdir. Keyinchalik siz yalang'och odam qomatni chizish masqqlarida yettinch bo'yin umurtqasi va bo'yintiriq chuqurchasi sizga odamning tik turgan qomati muvozanatining o'qini anqlashingizda doimo mo'ljall bo'lib xizmat qiladi. Shu o'rinda quyidagilarni eslab qolish kerakki, yettinch bo'yin umurtqasi yelkaning yuqori chekidan o'tuvchi gorizontal chiziqda joylashadi. Bu qonuniyatni bilish bo'yin rasmini to'g'ri chizish va boshni yelka kengligi bilan uyg'unlashtirishga yordam beradi.

### III. 2. Bosh muskullarining anatomik tahlili


Bosh muskullari asosan kalla suyagining old qismida joylashadi, ular kalla suyagi so'ngaklarini qoplab turadi va yuz shakli, umuman butun bosh xarakterini belgilaydi. 55-rasmda yuzning asosiy muskullari va ularning xarakterli shakli ko'rsatilgan.



56 rasm. Yuz va bo'yinning asosiy muskullari va ularning xarakterli shakli

Peshona muuagi o'zining rastki uchlari bilan qosh osti terisiga yopishgan bo'lib, u qisqarishda qoshlarni ko'taradi. Peshona muskullarining tolalari qanchalik ko'p qisqarsa, qoshlar shunchalik ko'tariladi, shu bilan birga peshonada chuqurroq va rel'fi ajinlar paydo bo'ladi. Qoshlar ko'tarilganda qovoq ham ko'tariladi va ko'z kattaroq ochiladi.

Ko'z muskullari qisqarganda qovoqlarni yopib qo'yadi. Ko'z muskullariga qoshlarni surib turuvchi muskulni ham kiritish kerak, bu muskul o'z navbatida qisqarganda qoshlarning ichki uclarini pastga tushiradi.




57 rasm. Yuz muskullarining turli holat va vaziyatlarda harakatlantirishining sxematik ko'rinishi

Burunning piradimasimon mushagi qoshlar o'rtasiga joylashgan bo'lib, ular burun suyagi ustiga va qoshlar oralig'idagi teriga yopishgan bo'ladi. Qosh muskullari ko'zning aylanma mushagi ustiga, bir uchi esa peshona suyagi, ikkinchi uchi qosh terisiga yopishgan bo'ladi. Chaynash mushagi yonoq suyagi, yonoq suyagi o'simtasi va jag'ning pastki qismiga yopishadi. Chaynash muskullari odam yuzida yaxshi ko'rinadi va ularning bosh shakli xarakteriga ta'siri kattadir. Kichik yonoq suyagi mushagi burun - lab burushig'iga yopishgan bo'ladi va uni hamda yuqori labni ko'taradi. Yuqori labni ko'taradigan muskul yuqoridan ko'z kosasi chetiga, pastdan esa burun qanoti va yuqori labga yopishgan bo'ladi.

Burun mushagi ikki tutamga: - ko'ndalang va qanotli tutamlarga ajraladi. Ko'ndalang tutgan yuqori lab mushagi ostigacha, qanotlisi esa jag'ning yuqorigi qoziq tishi tepasi va burun teshigi o'rtasida joylashadi.

Og'izning aylana mushagi og'iz teshigini qoplab turadi, lablar qalinligi asos bo'ladi. Og'izning aylana mushagi ikki qismga ajraydi: tashqi va ichki. Ichki qism qisqarganda og'iz burchaklari o'zaro yuqinlashadi va lablarga yumaloq shakl beradi; tashqi muskul

qisqarganda lab qismlari og'zini mahkam yopadi. Og'zining aylana muskullari aks harakat qilganda esa yuqori lab va burun qanotlari ko'tariladi, pastki lab va burchaklari pastga tushadi.



58 rasm. Kexsa kishining yuz va bo'yin muskullarining sxemaik tuzilishi


Labning uch burchakli mushagi dahanning og'iz burchaklaridan pastroqda yon tomonlariga joylashgan bo'ladi. U o'zining keng asosi bilan pastki jag'ning quyi chetiga, ustki uchi bilan esa og'iz burchaklari yuqori lab terisiga yopishadi.

Pastki labning kvadrat mushagi pastki jag' suyagi va bo'yining teri osti mushagidan boshlanadi va pastki lab terisiga yopishgan bo'ladi.

Ko'krak o'mrov mushagi gardan suyagining so'rg'ichsimon o'simtasidan boshlanadigan boshni yelka bilan birlashtiradi, u bir tutam bilan ko'krak suyagiga, boshqa tutam bilan esa o'mrovga yopishgan bo'ladi, shuning uchun ham u ana shunday ataladi. Muskul qisqarayotganda boshni old tomonga engashiradi va boshni har tomonga buradi. Agar har ikki muskul bir vaqtning o'zida

qisqaradigan bo'lsa, bosh yuqori va orqaga ko'tariladi. Ko'krakning yuqori qismida tutashgan ko'krak-o'mrov muskullari bo'yicha o'ziga xos chuqurcha hosil qiladi. Tirik bosh rasmini chizayotganda u doimo hisobga olinadi, va u ko'pincha mo'ljal bo'lib turadi. Masalan, boshni bo'yin va yelka kengligi bilan tutashirish, ya'ni boshni yelkaga to'g'ri joylashtirish kerak bo'lsa, bo'yintirg chuqurchasi asosiy mo'ljal bo'ladi. Yelka kamari – inson tanasining eng harakatchan qismidir, u tirik naturada yaxshi ko'rinadi va asosiy o'rganish ob'ekti hisoblanadi.

Avval ko'rsatib o'tganimizdek, anatomiya bo'yicha o'quv materialini o'zlashtirish va mustahkamlashda gips Ekorshenamunasidan foydalanish mumkin. Bu o'rinda har bir muskulning plastik hususiyatini eslab qolish muhim. Shuning uchun ham rassomlar butun anatomiyani emas, balki aynan plastik anatomiyani o'rganadilar. Rassom uchun nafaqat muskulning umumiy ko'rinishi, balki muskullarning suyaklarga boshlang'ich va oxirgi yopishishlarni, eng asosiysi esa-muskul to'alarining yo'nalishi (joylashishini) xam bilish juda muhimdir.




59 rasm. Jan Antuan Gudonning "Ekorshen" namunasining tasviri

Chunki tasvirda shaklga tus berishda rassom qalami ana shu muskullar yo'nalishi bo'yicha harakatlanishi lozim, bu esa rassomga ishonchli realistik obraz yaratishga yordam beradi.

Dastlabki paytlarda o'kuv materialini mustahkamlash va uni amalda ijodiy-faol ravishda qo'llash ma'lum dasturiy amalni talab etar ekan, tirik bosh rasmi ustida ishlashning uslubiy bosqichma-bosqichda ko'rib chiqamiz.

Ishting uslubiy bosqichi aslida gips bosh rasmini chizishda qanday bo'lsa, shundayligicha qoladi. Shu o'rinda biz o'quvchining diqqat-e'tiborini tirik bosh rasmini chizishning alohida muhim tomonlariga qaratmoqchimiz.



60 rasn. Erkak kishining boshini yelka kamari bilan tasvirlash.  
Birinchi bosqich.

Biz oldin aytib o'tganimizdek, tasvir turish jarayonini alohida bosqichlarga bo'lib chiqish sharti bir holdir. Yosh rassomga faqat o'quv materialini yaxshiroq o'zlashtirib olish uchun zarur. Quyida biz tirik bosh rasmini chizishning bosqichlarini ko'rib chiqamiz:

✓ tasvirning kompozitsion joylashishi, bosh shaklining umumiy xarakterini, shuningdek qismlar va umumiy shaklining proporsional nisbatlarini belgilab olish:

✓ bosh shaklining anatomik tuzilishining o'ziga xos hususiyatlarini ochib borgan holda chiziqli-konstruktiv tasvirlash:

✓ tus munosabatlari hal etish orqali shaklini detalli chizib chiqish:

✓ materiallilik xususiyatini ochib berish va ishga yakun yasash-umunlashtirish. Bularning hammasini erkak kishining boshini yelka kamari bilan tasvirlash misolida ko'rib chiqamiz.

**Birinchi bosqich (60-rasn)** - qog'ozda yuzasida tasvirning kompozitsion joylashishi, bosh shaklining umumiy xarakterini va proporsiyalarini belgilash. Bochiqchi rasm chizishga kirishishdan oldin naturani xar tarafidan ko'rib chiqish va mazkur boshning xakterli hususiyatlarini belgilab olish, eng qiziqarli nuqtani tanlab olish va ushbu nuqtadan rasm qanday ko'rinish kasb etishini tasavvur qilib olish zarur. Buning uchun turli nuqtalardan turib bir qator kompozitsion qalam chizgilar bajarish, ulardan eng yoziq qolgan joyini tanlash lozim. Bu narsa shuning uchun qilinadiki, rasm ishlash jarayonida siz birdaniga tanlangan joyingizdan «sovit» qolishingiz mumkin. Talabalar odarda qiyofachining ifodali turishining o'zidan oq ilhomlanib ketadilar va darhol kompozitsion vazifa hal etildi va endi uni faqat mexanik tarzda, ko'z qanday ko'rinarayotgan bo'lsa shundayligicha qog'ozga tushurish qoldi, deb hisoblaydilar. Lekin natura aslida obrazi, juda yorqin va ifodalil bulishi bilan birga tasvirda ushbu nuqtai nazardan uning ko'rinishi yetarli darajada ishonchli chiqmay qolishi mumkin. Shuning uchun ham rassom uchun asosiy massa, bosh silueti va chizish hamda yuz tuzulishi, soch va ko'zlar go'zalligini ko'rish va his qila bilish juda muhimdir. Ushbu modeldan kompozitsion chizgilar chizishda talaba avvalo eng ifodalil ko'rinishini tanlab olish kerak. Qulay nuqta tanlab olingandan keyin rasm chizishga kirishamiz.

Avvalo, qalamni qog'oz ustida yengilgina, bosmasdan harakatlanirib modelning kompozitsion tuzilishini hal qila borib,

boshning umumiy shaklini belgilab olamiz. Kompozision yechim ustida ishlab turib, bir yo'la boshni sxematik tarzda belgilab olinadi. Bu perspektiv qonunlarni to'g'ri hal qilishga yordam beradi. Tasvirni qog'oz ustida joylashtirib bo'lingandan so'ng bosh shakli xarakterini, boshning burilishini (holatini), uning bo'yin va yelka kengligi bilan boshlanishini aniqlab olamiz.


Geometrik shakllar, jumladan kubni tasvirlashdan bo'lgani kabi, bosh rasmini chizishda ham uning, kata shaklining konstruktiv asosini ochishdan boshlash kerak.

Boshning old qismini yon qismlardan chiziqlar bilan belgilab olganimizdan so'ng unga profil chizig'i qo'yning va naturaga qarab uning yo'nalishini tekshirib oling. Shunday so'ng old qismidagi burun, lab, ko'zlar joylashgan o'rinlarini aniqlaymiz. Profil chizig'i yordamida biz alohida qismlar, yaxlitlik xamda umumiy boshning umumiy shakli ko'rinishi proporsional nisbatliklarni ham aniqlab olishimiz mumkin. Talabalar gips boshni tasvirlayotganda qurish sxemalari va proporsiya qonunlardan dadil foydalaniladilar. Lekin tirik bosh rasmini chizishga o'tishda esa ular bunga botina olmaydilar. Tirik bosh rasmini chizishda profil chizig'ini dadillik bilan uchta teng qismga ajratib. Bu sizga nafaqat tasvirni to'g'ri qurish, balki portret o'xshashligiga erishish uchun ham yordam beradi. Masalan, profil chizig'ini uch teng qismga ajratib biz ushbu misolimizda ko'rsatilgandek, sochi to'kiyotgan kishida sochlar qoplamasi qoplama chizig'idan ancha balanda joylashishini, quyug, osilgan qoshlar qosh usti yoylaridan pstroqda bo'lishini belgilaymiz.

Ushbu bosqichda eng asosiy boshning umumiy ko'rinishi va uning xarakterini to'g'ri belgilab olishdir. Detallar (burun, ko'zlar, og'iz) faqat belgilab qo'yiladi: ularga tus berishga shoshish kerak emas, bularni keyinroq, hamma narsalar o'z joyida belgilab bo'lgandek keyin qilsa ham bo'laveradi.

Amaliyotdan ma'lumki, ko'pchilik talabalar tirik bosh rasmini chizayotganda «umumiylikdan xususiylikka, kata xajmdan kichik xajimga» usulida ishlashga amal qilmaydilar. Ular, kata shaklining umumiy xarakterini aniqlab olmay, mayda iker-chikirlarni kiptirklar, ajinlar, teridagi nuqsonlarni i chizishga kirishib ketadilar. Ularning nazarida go'yo bular portret o'xshashligini ochib berishda eng asosiy narsadek tuyuladi. Shuning uchun, ular rasm chiziga kirishar ekanlar, bosh shaklining umumiy xakteri bilan tanishib chiqmaydilar,

qiyofachini faqat bir tomondan (bir nuqtadan) kuzatadilar, ya'ni boshni faqat qisman ko'radilar. Ular nimani ko'rsalar shundayligicha passiv ravishda ko'chirib qo'yadilar. Buning asosiy sababi talabalar gips bosh rasmini chizishda olgan bilim va malakalarini umuman unutilib qo'yganliklaridir. Bunday talabalarga rasmdagi o'xshashlik detellarni sanab o'tish bilangina emas, balki proporsional nisbatlarni to'g'ri belgilash shakli xakteri, alohida qismlarning o'zaro bog'liqligi to'g'ri ochib berishda ekanligini tushuntirish kerak. Shuning uchun dastlab bosh shaklining umumiy xakterini belgilab olish va detallar joylashish o'rinlarini aniqlab olish lozim. Tasvirga o'zgartirishlar kiritish mumkin bo'lishi uchun rasmini qog'ozga qalamni yengilgina yurgizib tushuramiz va chiziqi – konstruktiv rasimga o'tamiz.



61 rasm. Ikkinchi bosqich

**Ikkinchi bosqich (61-rassm)** - perspektiva va anatomik tuzilishni hisobga olgan holda bosh shaklini chiziqi – konstruktiv tasvirlash.

Umuman bosh va uning bo'laklarini chiziqi – konstruktiv tasvirlashga o'tayotganda hajm qanday tashkil topishini ko'rgazmali ravishda ko'rsatishga harakat qiling.

O'ar bir yuza har xil yoritilganlik kuga ega va biz shu yuzalarni yengil chiziqlar bilan berib, butun bosh shakli, uning bo'laklarini ham to'g'ri va ishonchli chiqarishimiz mumkin.

Bosh shaklini chizishda shaklning konstruktiv asosini ochib borib, bir yo'la kalla suyagi so'ngaklari bilan asoslangan shakl xarakteriga ham aniqlik kiritish lozim. Bizning misolimizda gardan suyagi oldinga turtib chiqqan, bosh usi chiziqlari peshona bugrilariga nisbatan biroz keng, yonoq suyagi o'simtalari yaxshi rivojlangan va yonoq suyaklari ancha oldinga turtib chiqqan pastki jag' keng va kalla suyagi qutisi suyaklar bilan zichlashib ketgan. Shaklni bunday tahlil qilish rasomga boshning xarakterini to'g'ri ochib berishga imkonini beradi. Shaklni yuzada oddiydan murakkabga prinsipi bo'yicha tasvirlashda, bosh rasmini chizishning butun jarayonidan katta shaklni tasvirlashda detali tus berishgacha bo'lgan jarayon umuman boshni va alohida detellarni (burun, lab, ko'zlarni) tahlil qilishda ham so'zsiz bajarish kerak.

Ko'z, quloq, burun, lablar shakliga aniqlik kiritib borib doimo ular o'rtasidagi bog'liqlikni kuzatib turish lozim. O'ar bir bo'lak biri biri bilan uyg'unlashishi maqsadga muvofiq halqit bermagandagina yaxshidir. Ushbu holarda bunday o'zaro bog'liqlik bugrilar, qosh usi chiziqlari, ko'z kosasi, yuqori va pastki qovoqlarni birlashtiruvchi yordamchi chiziqlar bilan ko'rsatilgan.

O'xshashlikni ochib berish uchun rassom ko'zlarning joylashish xarakterini diqqat bilan kuzatishi zarur. Ko'zlar shunday joylashishi kerakki, unda ichki (ko'z yoshi qobig'i) va tashqi burchaklar gorizontial chiziqda turgan bo'ladi, bu holni Yevropa irqiga xos bo'lgan kishilarda kuzatish mumkin. Ko'zlar shunday joylashtirilishi mumkin, unda ichki burchaklar (ko'z yoshi qobig'i) tashqi burchaklarda pastroqda bo'ladi, bu holni mo'g'ul irqiga oid kishilarda kuzatish mumkin. Lekin ko'z shunday ham joylashagan bo'lishi mumkin, unda ichki burchaklar tashqi burchaklardan yuqoriroq turadi, bunday holarni keksa yoshli kishilarda kuzatish mumkin. Ushbu holarda naturachining ko'zi gorizontial joylashgan.

Odam boshini to'g'ri va ishonchli tasvirlash quloq suprasining to'g'ri joylashganligiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Quloq rasmini chizayotganda quloq suprasining pastki (yumshoq joyi) jag' suyagi unchalik yopib qo'ymasligini yodda tutish kerak. Yonoq suyagi o'simtasi doimo quloq supراسi o'rtasida joylashgan bo'ladi. Buni, biz avval aytib o'tganimizdek, har kim o'zida tekshirib ko'rishi mumkin. Yonoq suyagi o'simtasini ushlab ko'rib siz shunga ishonch hosil qilassizki, u quloq supراسini o'rtasiga kirib boradi, yonoq suyagini puypaslayotgan barnoq esa uning bukrisiga borib taqalishiga ishonch hosil qilassiz. Quloq ensaga yoki yonoqda chizilib qolmasligiga doim e'tibor berish kerak. Quloq supراسining joylashishini to'g'ri belgilash uchun quloq supراسining ustki jag' suyagi shoxchasiga parallel bo'lishligini kuzatib borish kerak. Rasmda o'qlar yo'nalishi strekalalar bilan ko'rsatilgan.

Shakl xakteri va quloq supراسining joylashuviga alohida e'tibor qaratib. O'ar bir kishining quloqlari o'ziga xos tuzilishga ega. Quloq shakli qurilishining qonuniyatlarini bilgan rassom har bir detal xususiyatini osongina ilg'ab olishi mumkin. Odam qulog'i beshta asosiy qismlardan iboratdir. Siz qiyofachingiz quloq supراسining o'ziga xos tomonlarini kuzatib.

Shuningdek bosh shaklining bo'laklari burun, lab va ko'zlar harakatiga ham diqqat bilan e'tibor berib. Bosh bo'laklarning xakteri boshning o'z xususiyatiga bog'liq, yoki aksincha. A.Dyurer o'z asarida shunday yozgan edi: «Masalan, bu juda uzun yoki bu juda qisqa yuz deyishganda unga qismlar ham taalluqli bo'ladi; bu juda baland, past, do'ng peshona yoki yassi peshona demakdir. Burunlarga ham ana shundaylar taalluqli bo'lishi mumkin. Ba'zilar bosh burni haddan tashqari qirg'iy, uzun va osilgan, boshqalarniki esa aksincha, juda katta, kekayagan, qalin, qulupnay sifat, puchuk yoki peshona chizig'idan haddan tashqari turtib chiqqan bo'ladi. Shuningdek, ba'zilar ko'zlar kirtayagan, ichiga cho'kib ketgan yoki chaqchayagan bo'ladi. Ba'zi kishilar ko'zlarini juda qisqa ochadilar va pastgi qovoqlar yuqori qovoq tushgandagidan ham kattaroq bo'ladi; boshqalar ko'zlarini baqraytirib ochadilar, ularning ko'z qorachig'i yaqqol ko'rinadi. Ba'zi kishilarning qoshlari ko'z ostidan ancha ko'tarilgan, boshqalarniki ko'z ustida tushib turgan, bir kishida ular ingichka bo'lsa, boshqasiningida baroq qosh bo'ladi.



62 rasm. Uchinchi bosqich.

Ba'zi odamlarning lablari cho'chaygan, boshqalarniki ingichka, osilgan: ba'zilar ustki lab paski labga nisbatan ko'tarilgan (yoki aksincha), ko'pincha qalimroq bo'ladi: bir kishida burun ostidagi labi uzun bo'lsa, boshqasida kalta bo'ladi va hokazo. Shuningdek ba'zi kishilarning dahani yo'g'on, keng, kata bo'lsa, boshqalarda u juda kichik va uchi bo'ladi; ba'zan u orqaga, tomogga tortilgan yoki aksincha, tomogdan ancha turtib chiqqan bo'lishi mumkin va ba'zan ular uzun, ba'zan esa kalta bo'ladi, yuqorida aytib o'tilganidek, ular ko'ndalang chiziqlar bilan belgilanadi.

Bunday diqqat bilan kuzatish rasm chizuvchiga rasmda modelning individual xususiyatlari va portret o'xshashlikni ochib berish imkonini beradi.

Ushbu qiyofachimiz qulog'i ga nazar solar ekamiz, uning gardani kalla suyagi so'ngagiga yopishganligini sezamiz. Quloq suprasining bu xususiyati ushbu odamning qulog'i va butun boshining ham o'ziga xos xarakterini ko'rsatadi.

Yonoq va chaynash muskullari yaxshi rivojlangan yonoqlari esa kuchli bo'rtmaga ega ekanligini ko'ramiz. Uni tasvirlash orqali, obraz xarakteristikasini kuchaytiramiz.

Keng peshona muskullari terining ko'ndalang burushlari bilan chuqurchalar hosil qilgan. Ularni tasvirlashda ehtiyot bo'lish kerak, chunki bo'rtmalar yonoqlardagi teri burushlari bilan «tortishib» qolishi mumkin.

#### *Uchinchi bosqich (62-rasm) - tus berib shaklini detallashtirish.*

Shaklni detallashtirishdan oldin ish bosqichlarining to'g'ri hal etilganligini yana bir bor tekshirib chiqing. Shaklning umumiy ko'rinishini yo'qotmaslik uchun tasvirga sekin-astalik bilan tus beriladi. Dastlab yengilgina tarzda asosiy soyalarni belgilab chiqiladi. Bu esa bosh shaklini yaxlit ko'rish, aniqliklar kiritish imkonini yaratadi. Shundan so'ng yana umumiy shakldan keib chiqqan holda yuz bo'laklariga o'tish mumkin. Alohida bo'laklarga aniqlik kiritib, shakl tuzulishi qonuniyatlariga diqqat bilan e'tibor bering. Masalan, ko'zlar rasmini chizayotganda shuni esdan chiqarmaslik kerakki, ko'z olmasining old bo'rtmasini mutuz parda tashkil etadiki, uning orqasida markazdagi ko'z qorachig'i bilan rangdor qoplama turadi. Ko'pchilik talabalar ko'z qorachig'ini o'rasi qora doirasi bo'lgan yassi disk sifatida tasvirlaydilar. Bu noto'g'ri. Markazdagi ko'z qorachig'li rangdor qoplama yassi emas, balki qabariq shakliga ega. Ko'z olmasini qovoqlar yopib turadi. Ko'z bir tomonga qaraganda mutuz qabariq yuqori qovoqlarni ham o'sha tomonga, ya'ni odam qayoqqa qarasa o'sha yoqqa buriladi. Shuning uchun yuqori qovoqlarni chizayotganingizda uning tashqi va ichki tomonlariga diqqat bilan e'tibor bering. Ushbu misolimizda naturachining nigohi o'ngga va biron yuqoriga qaragan. Ko'z shaklini detalli chizib chiqishda yorug'likning taqsimlanish qonuniyatlarini ham yodingizdan chiqarmang. Oddiy sharoitlarda yorug'lik yuqoridan tushadi va yuqori qovoq qalinligi soyada, pastkisi esa yorug'likda

qoladi. Talabalar odatda yuqori qovoqning pastki yuzasini va pastki qovoq qaliniqligini bir xilda tuslaydilar, ba'zan esa qovoqlar qaliniqligini faqat chiziqlar bilan cheklab qolib, umuman ko'rsatmaydilar. Pastki qovoqni juda ehtiyotkorlik bilan, qalamni qog'ozga tegar-tegmas qilib chizish kerak, ayniqsa portret o'xshashligiga erishayotgan paytda.


Qoshlar rasmini chizishda jiddiy e'tibor bering. Qoshlar hilma xil bo'ladi, ular keng, tor, qalamqosh, baraqosh, tekis, pastga qarab osilgan, chimirligan, bir-biriga tutashib ketgan bo'lishi va portret xarakteristikasining aniq chiqish qoshlarning ham to'g'ri yoritilishiga bog'liq bo'ladi. Ushbu vazifada naturachining qoshlari quyug, ko'zlari ustida osilib turibdi.

Odamning tirik boshini tasvirlash jarayonida ko'pchilik talabalar, shaklni detalli ishlash, rasmining badiiy ifodali chiqishida uning detallarini umumlashtira olishiga bog'liq. Shaklga detalli ishlov berish rasmining ifodali chiqishini oshiradi. Ishning ushbu bosqichda bosh shakli va uning detallariga aniqlik kiritib borib, bir yo'la tus berish masalasini hal qilish uchun xam asos tayyorlashingiz kerak.

Akademik rasmda nafaqat shaklning to'g'ri tasvirlanganligi, balki uning ifodali chiqqanligi ham qadrlanadi. Rasmdagi ifodalilik tus berish vazifasini qanchalik to'g'ri hal etilganligiga ham ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

Ko'pchilik talabalar «tus» atamasini noto'g'ri talqin qilganliklari uchun ham ular bu so'zdan rasmda to'g'ri foydalana olmaydilar, amma shu tushuncha ustida biroz to'xtaymiz.

«Tus» (ton) so'zi grekcha «tonos» so'zidan olingan bo'lib, u «kuchlanish» degan ma'noni anglatadi. Tus (ton) – yorug'likning fizik xarakteristikasidir.




63 rasm. Qalamtasvirda qo'llaniladigan shtrix turlari va ularning tuslanishi

«Tus» deyilganda bir yorug'lik manbaiga qarab predmet yuzasiga yorug'likning miqdori va sifatini vash u predmet rangini tushunamiz. Predmetning alohida yuzalari yoritilganligining o'zgarishi ularning yorug'lik manbaiga nisbatan kenglikdagi holatiga bog'liq bo'ladi. Tus yorug'lik manbaining xarakteri (tabiiy – quyosh, oy nuri; elektr lampochkasi, sham) va yorug'lik tushayotgan predmet rangi bilan o'lanadi.

Yorug'lik (nur) jisim yuzasiga tushar ekan, u tus kuchini belgilaydi. Yuzalarning yorug'lik manbaiga nisbatan turganiga qarab tus xarakteristikasi ham o'zgaradi. Rasm chizuvchilar ayniqsa tirik odam boshi rasmini chizishdek murakkab vazifani bajarishda ko'p ehtaklashadilar. Ular bosh shakliga tus berayotganlarida nur-soya gradatsiyasini, binobarin, hajmning yoritganlik darajasini ilg'ab olomaydilar. Masalan, ular qora sochlarni tasvirlayotganlarida bu


sochlarni darhol bir tekis, bir xil ranga qoplab qo'yadilar va qayerda soya, qayerda yarim soya va qayerda yorug' bo'lishligini ko'rsamaydilar. Vaholanki, qora sochlarga tushgan yorug'lik xuddi, aytaylik burun uchiga tushgan Juda ko'p hollarda naturani uzog vaqt davom etadigan jarayonda tasvirlash natijasida talaba his etish (qabul qilish) jo'shqinligi susayadi, u naturadan passiv ravishda nusxa ko'chirishga o'tadi va o'zi chizayotgan rasmini «bo'yab tashlashga» o'tadi. Ushbu kamchilikni oldini olish uchun P.Chistyakovning quyidagi so'zlarini keltirib o'tamiz: «Detal ustida uzog ishlash kerak esam, chunki qabul qilish (his etish) jo'shqinligi yo'qola boshlaydi. Undan ko'ra boshqa, yon-atrofdagi qismini chizishga o'tish kerak. Avval qilingan ishga yana qaytilganda chala qolgan joylarni ko'rish oson bo'ladi».



64 rasm. To'rtinchi bosqich.

*To'rtinchi bosqich (64-rasm)* – materiallilikni hal etishga yakun yasash-umumlashtirish.

Ishtimol bu bosqich eng qiyin va davomlidir. Bunda talaba vazifani ma'lum tugallikka yetkazishi, o'quv materialini qanday o'zlashtirib olganligi bilan bir qatorda o'z ijodiy imkoniyatlarini ham namoyon etishi kerak. Talaba model shakliga tus berishda bir yo'la uning materiallilik tomonini ham ochib tustay olsa rasmining ifodaliligi yanada ortadi. Masalan, agar talaba naturachi ko'zining shakli va xarakterini to'g'ri tasvirlasa-yu, ko'zlarga joziba bermasa, uning chizgan rasmi yetarli darajada ifodali chiqmaydi; u ko'zlarni tasvirlar ekan, kipurik va teri, shuningdek, namlangan ko'zlar jozibasi kabi omillarni to'g'ri ochib bersa, portretning ifodaliligi yanada ortadi. Ko'zlar jozibasi deganda shu narsani tushunish kerakki, ko'z olmasi doimo ko'z yoshlari bilan namlangan bo'ladi. Agar rassom ularni tasvirda ochib bera olmasa, u odam ko'zining ishonchli va ifodali chiqishiga erisha olmaydi.



65 rasm. Beshinchi bosqich

### *Beshinchi bosqich (65-rasm).*

Shaklga tus berish va materiallikni ocha borib, sekin-asta soch, qosh, mo'ylovlar va kiyimlar tusini kuchaytiramiz. Bu yuz, soch, kostyum kabilar xususiyatini ochishga yordam beradi. Rasmda materiallikni ocha borib, shaklining plastik xarakteristikasini aniqlashga harakat qiling, undagi ba'zi joylarda paydo bo'ladigan ola-chiporliklardan cho'chimang. Bunday hollarda P.Chistyakov o'quvchilarga shunday der edi: «tasvirlash jarayonida, bir joydan ikkinchi joyga o'tayotganingda butun shaklni ko'zdan qochirima, darov umumiylikka intilma, balki detallar ichiga kirib ket, dastlabki olachiporliklardan qo'rqma, uni umumlashtirish uncha qiyin ish emas, asosiy nimanani umumlashtirish bo'lsa bas. Shaklni uning hajmini berishga intilish sening chiziqlaring, chizgilaringni jonli va ifodalil qiladi».

**Beshinchi bosqich (65-rasm).** So'nggi bosqichda qilingan ishga umumiy yakun yasash kerak. Shu yerning o'zida tasvirning holatini tez-tez tekshirib borish lozim. Qilingan ishga yakun yasash bosh nisbatlari, shakl xarakteri, hajm ifodasining ishonchiligi va tus berish nisbatlarining to'g'ri ekanligini tekshirishdan boshlanadi.

Eng avvalo rasmining uyqunlashuvini tekshirish kerak. Shaklni detali ishlash jarayonida siz rasmini surib yuborgan bo'lishingiz, detallar o'zaro bog'lanishi yo'qotgan, shaklga tus berish jarayonida anatomik tuzilishga putur yetgan bo'lishi mumkin; ehtimol biror joyda unga yangitdan chizgi berish, kontur bo'yicha esa ifodani bo'rtiruvchi chiziq tortish kerak bo'ladi.

Shuningdek, xar bir detal shakli xarakterini tekshirib chiqish zarur, chunki ular nafaqat bosh shaklining umumiy strukturasi to'g'ri ifodalash uchun, balki odamning obrazli xarakteristikasini ham bo'rtirib ko'rsatish uchun ham kerak.

Shundan so'ng tus berish vazifasining to'g'ri hal etilganligining tekshirish kerak. Bu o'rinda naturada eng to'q va eng yorug' joylarni belgilab chiqish, ularni yarim soyaga taqqoslagan holda tasvirni umumiy yaxlitlikka keltirish lozim. Detaillarga ishlov berilish darajasiga alohida e'tibor berish zarur.

Bosh shakli qismlarni ustida ishlash paytida uning umumiy yaxlitligi — butunligiga putur yetkazib qo'yish mumkin. Masalan, quloq juda ham yorqin, peshona qism haddan tashqari sent-ajin va qoraytirib yuborilgan, lablar bir-biridan keskin ajralib qolishi mumkin

va hokazo. Shunday hol yuz bermasligi uchun ishnning yakunlovchi bosqichini amalga oshirish kerakki, bunda boshning bo'laklar qismlari yagona butunlikka keltiriladi. Shakl haddan tashqari maydalashib, ajinlar ko'payib ketgan joylarni umumlashtirish, yoruqlikni yaxlitlash, yorug'lik manbaiga qarab bir tekisda uzoglashayotgan holatga keltirish lozim; soyadagi qismlarga shunday tus berilishki, ular umumiy uyqunlashuvdan chiqib ketmasin. Tasviriy san'at qonun qoidalariga ko'ra uzog plandagi detallarga kamroq, yaqin plandagilarga esa ko'proq tus berilishi lozim.

Qilingan ishlarga yakun yasalayotganda reflekslar yorug'lik bilan bir xil tusda to'lib qolmasligi, qattiq qoraytirib yuborilgan soyalar «darcha» hosil qilmasligi, uzog plandagi yoruqlik va soya kontrastlari oldinga «chiqib» qolmasligini tekshirib olish kerak. Bunday xatoqliklarni tezroq ilQab olish uchun tasvirga ko'proq uzogroqdan turib qarash kerak.

Tirik bosh rasm ustida ishlashning metodik ketma-ketligi haqidagi tanga yakun yasab, shu narsani yodda saqlab qolish kerakki, ishnning har bir bosqichiga yetarli darajada vaqt ajratilishi kerak.

Tasvir qurishning metodik ketma ketligini o'zlashtirib olish boshlovchi rassomga ishonch bilan, uzluksiz, har bir bosqichni alohida ravishda qanday hal etilishini bilgan holda ishlash imkoniyatini beradi. Rasm ustida ishlashning Amaliy tajribasini egallagan yosh rassom yakuniy natijani oldindan ko'ra bilish ko'nikmasiga ega bo'la boshlaydi. Lekin oldindan ko'ra bilish ko'nikmasiga ba'zilar o'ylaydigandek, har kim o'z holicha emas, balki pedagog yordamida, butun tasvir qurish jarayonini bosqichma-bosqich o'zlashtirish natijasidagina ega bo'lishi mumkin.

Tirik bosh rasmlarni chizish turkumlaridan keyin bir qator boshlarni yelka kengligi bilan birga chizib ko'rish kerak. Bu vazifalar boshning yelka kengligi bilan boqlanish qonuniyatlarini o'zlashtirib olish uchun zarur.

Bunday mashqlarni bajarishda bo'yin va yelkalarining plastik xarakteristikasiga alohida e'tibor bering. Dastlab boshning bo'yin va yelkaga nisbatan holatini aniqlab oling, ya'ni yelka kengligining rombi sifat maydonchasiga to'g'ri «o'mashuring». Shundan so'ng o'ng va chap tomondan ko'krak-o'mrov suyagining plastik xarakteristikasini aniqlang.

O'mrov o'simtalarning joylashish holatini kuzatib. bo'yinturug chuqurchasiga nisbatan tors ko'krak qafasi va bosh holatini tekshirib. Agar natura topishning iloji bo'lmasa, bunday holatni ko'zga qarab turib o'zingizda mashq qilishingiz mumkin. Bu o'quv materialini yaxshi o'zlashtirib olingandan so'ng odamning belidan yuqori tasvirini chizishga kirishish mumkin.

Davomli rasm chizish bilan bir vaqtda tirik odam boshidan muntazam ravishda homaki rasm va chizigilar qilish zarur. Bunday homaki rasmlar nafaqat odam boshini tasvirlashda olingan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash, balki tasvirda real hayotni tasvirlash qobiliyatini rivojlantirish uchun ham zarur.

Realist-rassom insonni harakatda, uning barcha go'zalliklarini tasvirlay olishi kerak. Davomli rasm ustida ishlash talabani yordamchi chizigilar, o'q chizig'i, konstruktiv asoslar yordamida tasvirni diqqat bilan va metodik bosqichlarda tasvir qurishga majbur etadi. Talaba davomli o'quv rasmida asosiy e'tiborini yuzada realistik tasvir kurishning qonuniyatlari va qoidalariga qaratadi. Binobarin, talaba o'quv-akademik rasmida bu ishni pedagog yordamida, uning uzluksiz kuzatuvda amalga oshiradi. O'quv va ijodiy rasm o'rtasidagi farqni ocha borib ular turli yo'nalishga ega ekanliklarini ko'rsatib o'tish lozim. O'quv rasm bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish uchun yaratiladi. Ijodiy rasmida esa aksincha-olingan bilim va ko'nikmalardan badiiy obraz yaratish uchun foydalaniladi. Shuningdek avval olingan bilim va malakalar asosida yangilik yaratadi.

Biz yuqorida takrorlab o'tkanimizdek, o'quv rasmining o'quv tahliliy (analitik) vazifalari ijodiy momentlardan ham holi emas. Xomaki rasm ham olingan bilim va malakalar asosida yaratiladi. Xomaki rasmida endi talabdan tasvir qurish izchilligi, yordamchi chizigilarni qo'llash kabilar talab etilmaydi.

Xomaki rasmlar haqida gapirganda ularning vazifalari, maqsad va yo'nalishlarini to'g'ri aniqlab olish kerak. Ko'pincha «xomaki» tushunchasini rasm ustida ishlashning birinchi bosqichi, shaklning chiziqli-konstruktiv qurilishi bilan aralashtirib yuboradilar. Bu albatta to'g'ri emas.

Xomaki rasm ma'lum vaqt oralig'ida kuzatilyotgan natura haqida to'liq tasavvur berishni maqsad qilib qo'yadi. Xomaki rasmlar har xil davomiylik va har xil ishtanishda bo'lishi mumkin: ish shart-

sharoitlari va rassomning o'z oldiga qo'ygan vazifalariga qarab yarim soatli, bir soatli, o'n minuti va xokazo.

Xomaki rasm-bu naturadan tezgina chizgi qilib olishdir, u o'quvchini tez fikrlash, tasvirlashning eng ishonchli va mantiqiy vositalarini qidirib topishga o'rgatadi, kuzatuvchanligini rivojlantiradi. Xomaki rasm, rasm chizuvchini uncha mohiyati bo'lmagan narsalarni cheiga chiqarib tashlab, asosiy narsaga qaratadi.

Xomaki rasm o'quvchida mustaqil ishga bo'lgan tayyorgarlik darajasini namoyon etadi.

Xomaki rasmlar talaba tasviriy savodxonligi qonuniyatlarini oson va tez qo'llay bilishga o'rgatishi lozim. O'tmishdagi buyuk ustoz rassomlarning xomaki rasm namunalari o'ziga xosligi, naturaning eng xarakterli xususiyatlarini ajratib ko'rsatilganligi bilan tomoshabinni o'ziga tortadi.

Naturadan o'quv - akademik rasm chizish vazifalarida xomaki rasmlar ma'lum o'quv-ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarni ko'zlaydi: avval o'tilgan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash va boshlovchi rassomni mustaqil ishlashga tayyorlashdan iborat. Xomaki rasm chizish-bu tez fikrlash, tez tahlil qilish demakdir. Xomaki rasm - bu avval olingan bilimlarni hisobga olgan holda natura bilan buyum haqidagi mantiqiy fikrlashdir. Rasm chizuvchi xomaki rasm chizish davomida ushbu natura haqida, uning shakl qurilishi konstruktiv tuzilishi anatomik xususiyatlari va hokazolar haqidagi butun bilimlari zahirasidan foydalanadi.

Dala amaliyoti davrida o'quv mashg'ulotlarining eng ko'p mahsudorligiga talabalar aynan xomaki rasmlar chizishda erishadilar. Bunda ular ham naturani o'rganish ham tasvirlashning butun texnik vositalaridan foydalana bilish tomonlarini namoyon etadilar.

Shuning uchun ham xomaki rasmlar agar rasm chizuvchi natura haqida ma'lum ma'lumotlarga ega bo'lganidagina foydalidir. Ma'lum vazifalar aniq yo'natirilgan maqsad bo'lmagan xomaki rasmlar chizaverish talabani ijodan bezdirib qo'yishi mumkin.

Ko'p yillik amaliyot shuni ko'rsatdiki, ma'lum bir tizimsiz, uslubiy prinsiplarsiz bu ish maqsadsiz bo'lishi mumkin. Xomaki rasm chizishga o'rgatish ham o'quv vazifalarini asta-sekin murakkablashtirish ma'lum bir uslubiy bosqichlikni taqazo etadi. Birinchi kurs talabalari uchun ancha yengil, yuqori kursdagilarga esa murakkab o'quv vazifalari berilishi maqsadga muvofiq.

Qisqa xomaki rasm va chizgilar asosiy e'tiborni xarakterni ochishga, kishining obrazi xarakteristikasini ko'rsatishga qaratilgan. Eng asosiy davomli rasm va xomaki rasmga bo'lgan yondoshishni to'g'ri tushinishdir. Davomli o'quv rasmida biz akademik rassomning asosiy qoidalar – bosh shakli qurilishining konstruktiv tuzilish anatomik qonuniyatlarini o'zlashtiramiz; xomaki rasm chizishda esa insonning emosional holatini – tipajini ilg'ab olish talab etiladi.

Xomaki rasm ustida muntazam ishlash rasm chizish san'atini tezroq egallab olish imkoniyatini beradi. Birota rassom yo'qki, u o'zi bilan xomaki rasmlar uchun maxsus albom ko'tarib yurmagan bo'lsa. O'tmishning mashhur rassomlari o'zlarining kundalik ishlariga juda katta e'tibor berganlar. Italiya rassomi Cheninno Chenini o'zining «Rangtasvir haqida asar» kitobida shunday yozgan edi: «Doimo, biror kuni ham o'tkazmay, garchi u bu maqsad uchun hech narsa bo'lmasa ham biror-bir narsaning rasmini chiz, bu senga juda katta foyda keltiradi». O'ayotda biz bir-biriga aynan o'xshash odamni uchratmaymiz. Rassomning vazifasi ham individual xususiyatlarni ilqab olish, ushbu odam uchun o'zgacha bir xususiyatni topa bilishdan iboratdir. Shuning uchun ham ko'proq kuzatib, ko'proq naturadan rasm chizib, muntazam ravishda xomaki chizgilar qiling.

Malik Nabiyevning Ekspressiv xomaki rasmlarida kulayotgan habash kishining yuz tuzilishi juda ishonchli chiqqan. Shuningdek uning Hindiston safarida bajargan turkum xomaki rasmlar obrazlarning to'liq xarakterlarini go'zal, chehralarini tasvirlashda ifodali shtrix va chizgilardan foydalangan.

Tasvirda inson yuzining hayotiy ta'sirchanligini bera olish realist rassom uchun o'ta muhimdir.

Hozirgi kunning eng dolzarb vazifasi mohir rassom – o'qituvchini tarbiyalash ekan, bosh shakli rasmini chizishga o'rgatish tizimida xomaki rasmlar chizish ishiga jiddiy e'tibor berish lozim. Xomaki rasmlar va qisqa chizgilar boshlovchi rassomni ijobiy faoliyatga uzluksiz bog'lab qo'yadi. Ular talabani mustaqillikka va o'quv mashq tasviriy vazifalarini hal etishga o'rgatadi.

Tirik odam rasmini chizish rassom uchun yaxshi maktab hisoblanadi. Tirik inson yuz harakatidagi shakl boyligi va ifodaliligi rassomga ushbu odamga xos bo'lgan eng xarakterli xususiyatlarini ilg'ab olish, yosh rassomga badiiy obraz yaratish uchun dadil qadam tashlash imkonini beradi. Muvaffaqiyat bilan hal etilgan vazifalar

rasm chizish san'ati bilan qiziqishga, keyinchalik esa portret san'atini ham egallashga bo'lgan intilishlarga foyda bo'ladi.

Odami boshini tasvirlash prinsiplarini yaxshi o'zlashtirib olgandan so'ng yanada murakkabroq vazifaga ijodiy portret yaratishga ham o'tish mumkin.

Portret chizish san'atini egallash uchun eng qulayi avtoportret tasviridir. Rassom o'zining rasmini o'zi chizib ekan, ishini nihoyasiga yetkazish uchun qancha vaqt talab etilsa, shuncha ko'zgu oldida tura olishi mumkin.


## ILOVALAR:

### 1 ilova. Portret ishlash bo'yicha mavzularni mustahkamlash



#### bo'yicha savollar

1. Qalamtasvir ishlash metodik bosqichlarini tushuntirib bering.
2. Uzoq muddatli qalamtasvir ishlash bilan qalamchizgining farqi nimada?
3. O'quv akademik qalamtasvir ishlashning maqsad va vazifalarini tushuntirib bering.
4. O'quv va ijodiy qalamtasvir ishlashning bir-biridan farqi nimada?
5. Qalamchizgi va qoramalar nima?
6. Shaklning konstruktiv asosi deganda nimani tushunasiz?
7. Qirrali buyumlarning konstruktiv asosi deganda nimalarni tushunasiz? Misollar keltiring.
8. Shaxsiy soya bilan tushuvchi soyaning farqi nimada?
9. Yorug', soya, yarimsoya, yaltiroqlik reflekslar va ularning bir-biridan farqi nimada?
10. Oddiy va murakkab shakllar deganda nimani tushunasiz?
11. Shakl qurishda yordamchi chiziqlarning axamiyati to'g'risida gapirib, misollar keltiring.
12. O'q chizig'i nima?
13. Turli shakllarning perspektiv qisqarishi to'g'risida ma'lumot berib, misollar keltiring.
14. Buyum nisbatlari deganda nimalarni tushunasiz?
15. Ufq chizig'i nima?
16. Surat tekisligi nima?
17. Kartina tekisligi deganda nimani tushunasiz?
18. Tutash nuqtasiga misol keltiring.
19. Aylana perspektivasi nima? Misollar keltiring (ufq chizig'idan pastda, yuqorida, ufq chizig'i balandligida).
20. Buyum tekisligini tushuntirib bering.
21. Ufq tekisligi deganda nimalarni tushunasiz?
22. Chiziqli va havo perspektivasi qonuniyatlarini aytib bering.
23. Katta shakl nima?
24. Natyurmortni tasvirlashning metodik bosqichlari nimalardan iborat?
25. Analiz va sintez nima?
26. Pedagogik rasmining oddiy rasmdan farqi nimada?
27. Buyumda yorug'ilikning taqsimlanish qonuniyatlarini gapirib bering.
28. Tabiiy va sun'iy yorug'lik nurlarining buyumga tushishi natijasida hosil bo'luvchi soya- yorug'lik munosabatlari to'g'risida ma'lumot bering.
29. Tus nima? Buyumdagi tus munosabatlari to'g'risida gapirib bering.
30. Buyumlarga shakl berish tartibi to'g'risida ma'lumot bering (kub, shar, silindr va boshqalar).
31. Qalam, ko'mir, sangina bilan ishlash texnikalari to'g'risida gapirib bering.
32. Odam boshi shakli tuzilishi to'g'risida ma'lumot bering.
33. Profil chizig'i nima?
34. Odam boshi shakli bo'laklarining nisbatlari to'g'risida tushuncha bering.
35. Odam bosh suyagi tuzilishi xususiyatlari nima?
36. Odam boshi shaklini uslubiy izchilikda ishlash tartibi qanday?
37. Burun shakli tuzilishi qonuniyatlarini misollarda ko'rsatib bering?
38. Ko'z shakli tuzilishini rasmda chizib ko'rsating?
39. Boshning asosiy muskullarini sanab o'ting. Ular qanday shaklga ega?
40. Odam boshi tuzilishini sxema asosida chizib ko'rsating. (3/4 xolatda, bosh ufq chizig'idan yuqoridagi rakursda).
41. Ko'zni kesib o'tuvchi chiziq haqida ma'lumot bering. U qayerdan o'tadi?
42. Tayanch nuqtasi, tayanch o'qi va muvozanat o'qi to'g'risida ma'lumot bering.
43. Odamning xarakter xolati to'g'risidagi ma'lumot bering.


2 ilova Mustaqil mashg'ulotlar bajarish uchun tasvirlar




David boshining ikki tomondan ko'rinishi




Gomer bosh shaklining qalamchizgisi



Kesik bosh shaklini uch holatdan tasvirlash



Bosh shaklining to'rt bosqichdagi qalamchizgisi



Appolon bosh shaklining bosqichli qalamtasviri



Agostino Karachchi portret



Rafael Santi kalamchizgi

## ADABIYOTLAR:

1. Baymetov, B.B. Haykaltaroshlik va plastik anatomiya. T.: "Moliya iqtisod" nashriyoti. 2007
2. Baymetov, B.B., To'irov M.S. Plastik anatomiya. T.: "Im ziyo" nashriyoti. 2016.
3. Baymetov B.B., Qalamtasvir, darslik "Musiq" nashriyoti 2006.
4. M. Toshmurodov. "Chizmatasvir" qo'llama. «NOSHIR» Toshkent—2012.
5. Могилевцев, В. Основы рисунка: учеб. пособие. – СПб., 2007
6. Ростовцев Н. Рисование головы человека. М., 1989
7. Учебный рисунок: учеб. пособие для вузов. – М., 2003
5. Атавин, Ю. Предмет и пространство в учебном рисунке. – М., Графические произведения старых и современных мастеров: Рисунок. Акварель. Гуашь. Темпера. Пастель. – М., 2005
6. Художественная школа: Основы техники рисунка: развитие творческого потенциала: учеб. пособие. – М., 2005
7. Кириер, Ю. Рисунок и живопись: учеб. пособие. – 7-е изд. стер. Масников, И. Рисунок: учеб. пособие. – М., 2007
8. Симблет, С. Анатомия для художника. – М., 2003
9. Осипенков, В. Рисуем простым карандашом. – М., 2007
10. Ли Н. Основы академического рисунка. – М., 2005 1 экз.
- Сенин В., Коваль О. Школа рисунка карандашом. – Харьков, Белгород, 2007
11. Рисунок: Учебное пособие для вузов. – М., 2005.

## MUNDARIJA

|                                                                             |            |
|-----------------------------------------------------------------------------|------------|
| Muqaddima.....                                                              | 3          |
| <b>I BOV. O'DAM BOSH SHAKLI TUZILISHINING ASOSIY QONUNIVATLARI .....</b>    | <b>5</b>   |
| 1.1. Bosh shaklini tahlil qilish va tasvirlash usuli.....                   | 5          |
| 1.2. Chiziqli-konstruktiv tasvirlash usuli .....                            | 21         |
| 1.3. Bosh bo'laklari – butun, ko'z, quloq va lablar rasmini tasvirlash..... | 35         |
| 1.4. Gips bosh rasmini chizish .....                                        | 58         |
| <b>II BOV. O'DAMNING PLASTIK ANATOMIYASI .....</b>                          | <b>69</b>  |
| II.1. Bosh skeleti va uning plastikasi.....                                 | 70         |
| II.2. Bosh suyakining yuz qismi .....                                       | 73         |
| II.3. Bo'yin muskullari, fassiyasi va plastikasi .....                      | 81         |
| II.4. Bosh muskullari, uning bo'laklari va plastikasi .....                 | 87         |
| II.5. Yuzning aytim qismlari va uning plastikasi .....                      | 98         |
| <b>III BOV. TIRIK O'DAM BOSH RASMINI CHIZISH.....</b>                       | <b>104</b> |
| III.1. Bosh suyagi bo'laklari .....                                         | 108        |
| III.2. Bosh muskullarining anatomik tahlili .....                           | 114        |
| Illovalar .....                                                             | 136        |
| Adabiyotlar .....                                                           | 142        |

BAYMETOV B.B.

# **QALAMTASVIR**

**(portret)**

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020.

Bosishga ruxsat etildi 06.02.2023.

Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog'ozi. "Times New Roman"  
garnitursi. Hisob-nashr tabog'i. 9,0.  
Adadi 100 dona. Buyurtma № 15.

«BOOK TRADE 2022» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.